GREAT BRITAIN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE

2024 YEAR

GREAT BRITAIN, LONDON

INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE

International scientific-online conference

Part 26

DECEMBER 15th

COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS

LONDON 2024

INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (15th DECEMBER, 2024) – Great Britain, London: "CESS", 2024.
Part 26 –331p.

Chief editor:
Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.
Editorial board:
Martha Merrill - PhD Kent State University, USA
David Pearce - ScD Washington, D.C., USA
Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն….

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE". Which took place in London on DECEMBER 15th, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

Table:

Sayfidinova Zarnigor *LEARNING ENGLISH THROUGH MOVIES FOR NON-NATIVE SPEAKERS*	**11**
Iroda Nurmuxamedova *O‘ZBEKISTONDA BOLALAR KINOSINING TARIXI.*	**14**
Yuldosheva Xulkar **Bannopova Zulxumor Xatamovna** *TA’LIM MUASSASALARI O’SMIR-YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI SAMARADORLIGINI O’SHIRISHNING AFZALLIKLARI*	**23**
Yunusova Nargiza Baxodir qizi *TA'LIMNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.*	**26**
Lola Abdunazar Qizi **Bozorova Shahzoda** *TIBBIY TERMINLARNING AHAMIYATI VA QO'LLANILISHI*	**28**
Mannobova Lola Abdunazarovna **Hamroqulova Ruxshona Ilhom qizi** *TERMIN VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI*	**32**
Musulmonova Viloyat *FINLANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTONNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANILGAN DIDAKTIK O‘YINLAR*	**38**
Absamatov Mirodil Zokirjon o‘g‘li *KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI*	**41**
Ochilova Dilobar *THE FORMATION OF AN IDEOLOGY OF SELF-AWARENESS AMONG THE INTELLIGENTSIA IN THE CONTEXT OF THE "RECONSTRUCTION" POLICY OF THE SOVIET STATE.*	**44**
Sobirova Laylo Xudayberganovna *BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI*	**48**
Abdullaeva Ulbosin *YOSHLARNING MA’NAVIY YUKSALISHINI TA’MINLASHDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINING O‘RNI*	**52**
Dusmatov Umidbek Alisher ugli *THE USE OF DEPOLARIZING MUSCLE RELAXANTS IN ANESTHESIA: STRENGTHS AND WEAKNESSES*	**55**
Raxmonova Safura Mutallibjon qizi	**58**

QARIYALARDA ENDOKRIN TIZIMI KASALLIKLARI	
Нематжонова Юлдуз Уткировна *РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ ОБУЧЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ МОДЕЛЬ 4К*	**61**
Xakimova Nafisa Oybekovna **Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna** *VITAMINLAR VA VITAMINLAR YETISHMOVCHILIGI*	**66**
E.Xasanov *BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI SAMARALI TASHKIL ETISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH*	**70**
Abdunabiyeva Feruza O‘ktamjon qizi *ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA BADIIY TASVIRIY VOSITALARNING QO’LLANISHI*	**73**
Qosimova R.Sh **Jo‘rakulova M.K** **Mustafakulov M.A** **Abduvaliyeva M.M** *APTOMERLAR TEXNOLOGIYASINI BIOTEXNOLOGIYADA QO`LLASH*	**77**
Xoliqov To`lqin Boltaevich *CHIZIQLI TENGLAMALAR*	**84**
J.O.Otamurodov **Sh.N.Baxodirov** *CLASSIFICATION OF ORGANIC ADHESIVE MATERIALS*	**86**
J.O.Otamurodov **Sh.N.Baxodirov** *ADHESIVE PROPERTIES OF BONE AND MEZDRA GLUE*	**90**
Б.Р. Нормуродов **Ш.З. Жабборова** *СИНТЕЗ И ИК-СПЕКТРОСКОПИЯ ЭФИРОВ ОЛЕИНОВОЙ КИСЛОТЫ ДЛЯ СМАЗЫВАНИЯ КАРАКОЛЬСКИХ ШКУР*	**94**
Azamova Mukhabbat Azimovna *INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH*	**98**
Д.У.Шадиева *ҲОЗИРГИ ЗАМОН ШЕЪРИЯТИНИНГ МОҲИЯТИ*	**104**
Qodiraliyev Shuxratbek Nuraliyevich **M.S.Vosiqova**	**109**

KORRUPSIYA QARSHI KURASHISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Choriyeva Nigina Kaxramonovna *KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDA STRATEGIK MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH*	**112**
Mamaraimov Bekzod Kadirovich **Makhmudov A'zam Kudratovich** **Musurmonov Ma'ruf Akrom ugli** *IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN INTEGRATED EDUCATION*	**116**
Ibroximova Maftunaxon Nozimjon qizi **Bozorova Zulayho** *INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MOBILE APPLICATIONS FOR PERSONALIZED USER EXPERIENCES*	**122**
O‘rinov Omadbek O‘rin o‘g‘li **Izzatullayev Ravshanbek Akmaljon o‘g‘li** **Obitov Boburjon Voxidjon o‘g‘li** *AMD FIRMASINING ZAMONAVIY PROTSESSORLARI VA ULARNING TASHKIL ETILISHI*	**128**
Allanova Khurliman Markabaevna *THE ESSENCE OF LEARNING AND TEACHING IT TERMS IN ENGLISH .*	**132**
Murodova Nafisa Mizrobovna *ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM RESURS MATERIALLARINI QO'LLASH.*	**136**
Рузиева Саодат Анваровна *УЗБЕКИСТАН: ПРЕОБРАЗОВАНИЕ МУЗЕЙНОГО МЕНЕДЖМЕНТА.*	**139**
Abdusattorov Ilhom Baxriddinovich *ABU ISO AT-TERMIZIY JARH VA TA’DIL IMOMI*	**144**
Yuldashev Mansurjon Alijanovich *GASTRONOMIK TURIZM SOHASIDAGI LINGVISTIK TADQIQOTLAR*	**148**
Erkinov Ma’murjon *“MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA TASVIRIY VOSITALARNING QO‘LLANISHI*	**151**
G‘aniyeva Ruxshona *JADIDALAR BIZNING MILLIY G‘URURIMIZ*	**153**
Abdurahimova Muhabbat Rustamov qizi *NEYROMARKETING PR FAOLIYATINING INNOVATSION VOSITASI SIFATIDA*	**156**
Badalova Zulfiya Kutbitdinovna	**162**

Khujaakhmatova Qunduzoy Bakhtiyarovna *PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODS.*	
Akbarova Durdona Baxodirjon qizi *TUG'RUQDAN KEYIN QON KETISHDA YORDAM KO'RSATISH*	**166**
Hasanova Sevara Akram qizi *TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH*	**169**
Muxlisa Eshmamatova **Ro'ziyeva Nilufar** *„AVESTO''NING ADABIY QIYMATI*	**177**
Jamolova Zebiniso Karshiboyevna **Irgasheva Madina** *IDIOMS AND ITS USAGE IN APPLIED LINGUISTICS*	**180**
Yusubjonova Gulnora Shavkatjon qizi *5-SINF O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLAR DARSINI MAZMUNLI O'TISH: INNOVATSION METODLAR VA SAMARALI MASLAHATLAR*	**184**
Tukhtasinov Tohirjon Shokirjon o'gli *CONTINUATIONS OF SUBADDITIVE MEASURES ON THE VON NEUMANN ALGEBRA*	**188**
Durdona Xaliljonova *LINGUISTIC FEATURES OF WORD MEANINGS IN ENGLISH AND UZBEK*	**190**
Durdona Xaliljonova *COMPARATIVE TYPOLOGY OF PRONOUNS IN ENGLISH AND UZBEK: TRANSLATION CHALLENGES*	**194**
Maxmudova Sharofatoy Nabiyevna *ORGANIZMDA QONNING XUSUSIYATLARI VA FUKSIYALARI*	**199**
Mirojiddinova Marhaboxon Najmiddin qizi *PHONETIC PECULIARITIES OF SLANG*	**204**
Зияева Г.А *ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ.*	**207**
Tojiboyeva Nozimabonu Yolqin qizi *BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI*	**211**
Dauletmuratova Mehriban Eliubayevna	**218**

INFLUENCE OF DISTANCE EDUCATION ON THE ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION PROCESS	
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi *"FROM WALL STREET TO TASHKENT: A COMPARATIVE STUDY OF THE S&P 500 INDEX AND THE TASHKENT STOCK EXCHANGE"*	**223**
Ergasheva Feruza Nasrullaevna *MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O'TISHDA MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARNI MOSLASHTIRISHNING AXAMIYATI*	**231**
Gulhayo Ortiqova *MADANIY O'ZIGA XOSLIKNING MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O'RNI*	**235**
Karimov Ulmasbek *THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN*	**238**
Alimdjanov Xayot Farxadovich *CALCULATION OF THE SIGNAL-TO-NOISE RATIO FOR A CUBESAT SATELLITE*	**242**
Gulrux Maxamedova Abduqahhor qizi *NAVOIY QALAMIGA MANSUB ARBAIN ASARIDA KELGAN QIT'ALAR G'OYASI*	**245**
Йулдошева Нилуфар Юсуфовна *ВАЖНОСТЬ УЛУЧШЕНИЯ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ДЛЯ УРОКОВ*	**249**
A.A. Yo'ldoshbekov *ISLOM HUQUQIDA OLDI-SOTDI SHARTNOMALARI TUZISHDA TOMONLAR ROZILIGINI BELGILASH MEXANIZMLARI*	**252**
Safarova Nilufar Vohidovna **Meyliyeva Shoxista Rustamovna** **Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li** *OLIY TA'LIM TALABALARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH*	**255**
Choriyeva Muhlisa **Abdumalikova Jasmina** *UMAR XAYYOMNING "NAVRO'ZNOMA" ASARIDA NAVRO'Z BAYRAMINING IFODALANISHI*	**258**
Hayitova Dinora **Ismoilova Shohsanam** *KAYKOVUSNING "QOBUSNOMA" ASARIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYAT*	**260**

Xabibullayev Ne'matillo **Ismoilova Munisa** *AYOLLARDAGI MIOMA KASALLIGI HAQIDA*	**262**
Mansurova Dildora Otabek qizi **Shodiyev Asilbek Boqi o'g'li** **Egamberdiyev Sardorbek Tohirjon o'g'li** **Esanov Temurmalik Beknazar o'g'li** *ROBOTOTEXNIKA VA SUN'IY INTELLEKTNING ETIK MASALALARI, ROBOTLARNING INSONHAYOTIGA TA'SIRI VA XAVFSIZLIK MASALALARI*	**268**
Kambarov Nodirjon Sattarovich **Ergashova Ziyoda Abdulvayit qizi** *TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MODUL TIZIMINING SAMARADORLIGI*	**275**
Kambarov Nodirjon Sattarovich **Ravshanova Jasmina Qobiljon qizi** *BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI*	**280**
Kambarov Nodirjon Sattarovich **Akramjonova Nigoraxon Ilxomjon qizi** *TEXNALOGIYA FANI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA DARS JARAYONIDA QO'LLANILISHI*	**286**
Ravshanov Shahzod Alisher o'g'li **Hakimov Turakul Hakimovich** *ANALYZING THE IMPACT OF METALLURGICAL PLANT OPERATIONS ON THE POWER SUPPLY SYSTEM*	**294**
Axmedjanova Umida Baxodirovna **Komilova Omina A'zam qizi** *QOZOG'ISTON ZARGARLIGI: O'TGAN ASRLARDA BUGUNGI KUNGACHA*	**299**
Qo'chqarova Madinabonu Qaxramonjon qizi *NEYL GEYMAN IJODI MISOLIDA ZAMONAVIY INGLIZ ADABIY ERTAKLARI POETIKASI*	**303**
Inoyatova Gulnoza Dilmurod qizi *FRANSIYA SAN'ATI –IMPERSSIONIZM. EDUORD MANE*	**306**
Qahramonov Aliboy Yolgoshevich **Shirinboyeva Sevinch Sattor qizi**	**311**

Husanboyeva Fotima Husniddin qizi **Husanboyeva Zuhra Husniddin qizi** *TINISH BELGILARI VA ULARNING ISHLATILISH USULLARI*	
Haydarova Gulruh Muhiddin qizi *JAMIYAT VA TA'LIMDAGI O'ZGARISHLAR*	**315**
Xolmamatov Ilyos Sharif o'g'li **Choriyev Adham A'zamjon o'g'li** *TA'LIM SOHASIDA VEB-SAYTLARNING O'RNI*	**320**
Kambarov Nodirjon Sattarovich **Abdurahmnova Diluza Hakimjon qizi** *TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO'L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI*	**234**
Haydarova Jamila Chorshanbi qizi *NIZOMULMULKNING "SIYOSATNOMA"ASARI HAQIDA*	**329**

LEARNING ENGLISH THROUGH MOVIES FOR NON-NATIVE SPEAKERS

Sayfidinova Zarnigor
Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: *It is well known that English is the most widely studied language in the world today. A significant portion of information and news available on the internet and other resources is presented in English. Naturally, this creates challenges for those who do not understand the language. Moreover, learners of English often face difficulties with grammar, vocabulary, and other aspects of language acquisition, which can lead to frustration and discouragement. However, learning English through movies has proven to be one of the most enjoyable and effective methods.*

This article examines how movies offer a rich and immersive environment for language learners. By exposing learners to authentic dialogues, diverse accents, and real-life contexts, movies help improve listening skills, pronunciation, and cultural understanding. Subtitles can serve as a bridge for beginners, while intermediate and advanced learners benefit from observing the natural use of idioms and expressions. Additionally, the emotional engagement and storytelling in movies make the learning process less monotonous and more entertaining.

Key words: *Movies for language learning, vocabulary improvement, pronunciation enhancement, listening skills development.*

INTRODUCTION

In today's interconnected world, English has become the most widely studied and utilized language across the globe. It serves as a key medium for accessing vast amounts of information available online, including news, academic resources, and entertainment. However, for individuals who lack proficiency in English, navigating such resources can be challenging. Moreover, learners often encounter difficulties with grammar, vocabulary, and pronunciation, which can make the process tedious and discouraging.

To address these challenges, incorporating engaging and practical methods into language learning is crucial. One of the most effective and enjoyable approaches is learning English through movies. Films not only entertain but also provide learners with real-life language exposure, including natural conversations, idiomatic expressions, and diverse accents. Additionally, movies create an immersive environment where learners can improve their listening comprehension, expand their vocabulary, and understand cultural contexts in a relaxed setting.

This paper explores how movies can transform language learning into an exciting and rewarding experience. It examines practical techniques, such as utilizing subtitles and selecting appropriate films, and highlights the benefits of this method for learners of all levels.

Main Body

The importance of learning English cannot be overstated, especially in a world where much of the information shared globally is in this language. However, acquiring proficiency

in English is not always an easy task, particularly for non-native speakers. Challenges such as mastering grammar, expanding vocabulary, and understanding diverse accents often lead to frustration. One solution to these difficulties is learning English through movies, which offer both entertainment and educational value.

Movies as a Tool for Language Learning

Research suggests that movies provide a rich and engaging environment for learners of all levels. According to Goctu (2017), using movies in the English as a Foreign Language (EFL) classroom is an effective strategy, as they expose learners to authentic dialogues and real-life contexts. Goctu emphasizes that 'movies provide an authentic context for learners to engage with the language naturally' (Goctu, 2017). This is crucial because it allows learners to experience language as it is used in everyday situations, including colloquial expressions and slang that are often omitted in traditional textbooks.

Moreover, Halawa, Ahmed, and Aziz (2022) argue that movies significantly enhance speaking and listening skills. They found that exposure to movies not only aids in improving pronunciation but also helps learners develop listening comprehension by familiarizing them with various accents and speech patterns. As they explain, 'watching English movies exposes learners to different speech styles and accents, which enhances their ability to understand spoken English in real-world situations' (Halawa, Ahmed, & Aziz, 2022). This immersive experience improves learners' ability to recognize different voices, tones, and conversational rhythms, which is essential for mastering spoken English.

Vocabulary and Pronunciation Enhancement

Movies also play a vital role in expanding vocabulary. The natural dialogues in films introduce learners to a variety of words and phrases, including idiomatic expressions and colloquial terms, which they may not encounter in formal learning environments. As Ismaili (2013) highlights, 'movies provide an opportunity for learners to acquire vocabulary in context, making it easier to retain and use it in communication' (Ismaili, 2013). This contextual learning aids memory retention and helps students understand the appropriate use of words in different situations.

Additionally, movies improve pronunciation by providing learners with the opportunity to hear words spoken in various accents and intonations. As noted by Halawa et al. (2022), the exposure to different accents and speech patterns is crucial for learners to better grasp the nuances of English pronunciation. This can lead to improved clarity and confidence in speaking.

Cultural Context and Emotional Engagement

In addition to linguistic benefits, movies offer valuable cultural insights, allowing learners to gain a deeper understanding of English-speaking societies. As Goctu (2017) points out, films present cultural references and social contexts that textbooks often fail to cover. This understanding of culture is vital for learners who wish to communicate effectively in diverse settings. Movies provide a window into social norms, humor, and customs, which are essential components of language use.

The emotional engagement created by storytelling in movies is another advantage. Ismaili (2013) emphasizes that the emotional connection learners develop with movie characters helps to increase motivation.

He argues that 'the emotional impact of movies makes language learning less tedious and more enjoyable, which encourages consistent practice' (Ismaili, 2013). When learners are emotionally invested in the story, they are more likely to stay motivated and committed to learning the language.

Conclusion

In conclusion, learning English through movies offers numerous advantages, including the development of listening skills, vocabulary, pronunciation, and cultural understanding. It is an enjoyable, dynamic approach that can alleviate the frustrations often associated with language learning.

As demonstrated by Goctu (2017), Halawa et al. (2022), and Ismaili (2013), incorporating movies into language learning not only enhances linguistic proficiency but also promotes motivation and engagement. By making language learning both entertaining and educational, movies are a valuable tool for learners of all levels.

REFERENCES:

1. Goctu, T. (2017). 'Using Movies in the EFL Classroom.' European Journal of English Language and Literature Studies, 5(4), 37-45.

2. Halawa, S. M., Ahmed, M. A., & Aziz, M. (2022). 'The Role of English Movies in Enhancing EFL Learners' Speaking and Listening Skills.' Journal of Language and Linguistic Studies, 18(3), 987-1003.

3. Ismaili, M. (2013). 'The Role of Movies in EFL Classes: A Cognitive Perspective.' International Journal of English Language and Linguistics Research, 1(1), 1-14.

O‘ZBEKISTONDA BOLALAR KINOSINING TARIXI.

Iroda Nurmuxamedova
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrasi o‘qituvchisi +998935427034 ms.irooddaa@mail.ru

Annatatsiya: *Bu maqola XX asr O‘zbekistonda ilk bora bolalar filmlarining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi tarixi haqida. Bolalar kinosi yo‘nalishida ishlagan ijodkorlarning filmlarining tahlili berilgan. Filmlarning asosiy qahramonlari bolalardan tashkil topgan filmlar yig‘indisi keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O ‘zbekfilm, bolalar kinosi, studiya, to ‘laq metraj film, multiplikatsiya, film, ssenariy, ijodkor, operator.*

Annotation: *This article is about the history of the emergence and development of children's films for the first time in Uzbekistan in the 20th century. An analysis of the films of creators working in the direction of children's cinema is given. The following is a list of films in which children are the main characters.*

Key words: *Uzbek film, children's film, studio, full-length feature film, multiplication, film, screenwriter, creative, operator.*

1936-yilda sobiq SSSR da “Soyuzdetfilm” kinostudiyasining ochilishi, boshqa xalqlarda bolalar kino san`ati turining rivojiga o‘z ta`sirini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda kinoning san`atining rivojlanishi sekinlik bilan kechgan “O‘zbekfilm” — eng eski va eng katta badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi o‘zbek kinostudiyasi. Studiyaga 1925-yil asos solingan. Uning ilk nomi „Sharq yulduzi“ bo‘lgan. 1936-yil „O‘zbekfilm“ deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida studiya „Toshkent Kino Studiyasi“ deb nomlangan. 1958-yil nomi yana qaytadan „O‘zbekfilm“ deb o‘zgartirilgan. Kino studiya shu kungacha 400 dan ortiq to‘laq metrajli va 100 dan oshiq multiplikatsiya qilingan film chiqargan. [1]

1936-yilda Toshkent studiyasida birinchi bolalar badiiy filmi olindi. Filmning nomi “Kalit”, ssenariy muallifi A. Sharpov, filmni o‘sha davrda yosh rejissyor Yo‘ldosh Agzamov tomonidan amalga oshirdi. 30-yillarda, barcha sohalarda, yangilanish davri bo‘lgan. Jumladan, adabiyot olamida ham yangi nafas ufirib turgan. O‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan yozuvchilar: Zafar Diyor, Sharif Muslim, Adham Rahmat, Shukur Sagdulla, Xakim Nazir, Quddus Muhammadi va boshqalar. Ularning asarlari bolalar xaraktiristik psixologiyasini ochishda, bolalarcha qarash muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Bolalar uchun yozgan yozuvchilarimiz Sadriddin Ayniy, G‘afur G‘ulom, Xamid Olimjon va G‘ayrat. O‘zbek xalqini, bolajon xalq deb bejizga aytishmagan. Xalqimiz, ijodkorlari har doim bolalar haqida qayg‘urishgan. Respublikamizada yosh tomoshabinlar teatri ham 1929-yilda Toshkentda ochilgan.

“Kalit” filmni hikoyasi yosh bolaning texnikaga qiziqishi, uning orzusi, yangi ilmni bilib olish. Quyoshli o‘lkaning kalxozida yashovchi bolaning ismi Kalit bo‘ladi. Bobosi va

[1] https://uzpedia.uz/pedia/ozbekfilm_2

dadasi ertalabdan kechgacha boyvochalar qo‘lida ishlaydi, endi sotsalistik yo‘ndashuv bilan bosh kalxozlar bo‘lishadi. Hozirgi payt texnikaning bunday rivojlangani bilan hech kimni qiziqtira olmaysiz, lekin o‘z davrida kalxozda yangi texnologiyalar ufirayotgan davr bo‘lgan. Bu filmni suratga olishayotganda, O‘zbekistonning chiroyli fasllaridan biri bo‘lmish kuz fasli tanlab olingan. O‘zbekning oq tillasini terim davri ko‘rsatilgan. Yoshli chol bog‘cha bolalariga Toshkentda ochilgan poezdlar haqida hikoyalar aytib beradi bu Kalitning qiziqishini yanada ortiradi. Ming marotaba eshitgandan bir marotaba ko‘rgan yaxshi, degan naqilga amal qilib Kalit poezni ko‘rish uchun temir yo‘l stansiyasiga boradi.

Filmda, qahramoni birinchi marotaba poyezd ko‘rishi, ko‘zlarini katta ochib hayratda qolishi, omadli tasvirga olingan. Kalit rolini - Jo‘ra Asadullyev ijro etgan, u hayotida birinchi martaba texnika bilan tanishyotgan edi. Bolaning xarakteri, uning soddaligi, spantanligini ekranda yorqin ko‘rishi mumkin. Kalitning orzusi amalga oshadi, u nafaqat poyezdni ko‘radi, balki unda Toshkentga boradi. Tog‘asining mashinist bo‘lib ishlashi, uning hayotini o‘zgartirib yuboradi. Toshkentda u o‘zining xonasiga ega bo‘ladi, bo‘g‘chaga boradi, bu voqealar bolaning kelajakda mashinist bo‘lishga undaydi. Film oq-qora shaklda olingan, ovosiz bo‘lishiga qaramay, qahramoni ijrosidan soflikni ko‘rish mumkin. Bu film o‘z davrida aktuval film hisoblangan. 30-40 yillarda bolalar filmi umuman suratga olinmagan.

1947-1952-yillar sobiq SSSR kinematografiyasi vazirligi buyrug‘iga binoan, birorta ham film ishlanmagan. Uzoq tanaffusdan so‘ng, keyingi 1952-yilda “Paxtaoy” nomli film ishlab chiqarildi.

Bu mas`uliyatli vazifani o‘z davrining mohir rejissyori Komil Yormatov amalga oshirgan. Bolalar kinosiga birinchi bor qo‘l urayotgan rejissyor Komil Yormatov, bu filmga o‘zining mashhur filmi “Alisher Navoiy” dan so‘ng amalga oshirdi. O‘zbekfilmda “Paxtaoy” filmi zamonaviy ertak janriga asos solgan. Filmning negizi real faktlarga asoslanishgan: O‘zbekistonda paxtani oq oltin deb atalishi, uning terimiga alohida ahamiyat berigan, har bir paxtadan qancha maxsulot ishlab chiqarish mumkinligini ertak sifatida tomoshabinlarga havola qilingan.

Film ijodkorlari, yosh tomoshabinlarni oldida katta mas`uliyat bilan yondashishgan. K. Yormatov bo‘ynida katta vazifa yotar edi, studiyaning keyingi ijodiy faoliyati, shu kartinani qanday chiqishiga bog‘liq edi. Bolalar filmining to‘rtinchi bor suratga olinishi edi.

Film bosh qahramoni Xasan, xayol surishni va chizishga qiziqadi. U o‘zining albomida, jahildor sahro shamoli Garmisiliyani rasmini chizadi. Rasmda g‘alati plashda odamga o‘xshaydigan, soqqoli uzun, ko‘rinishidan vajohatli etib tasvirlangan. Xasan o‘zining rasmda uni zanjirban qilib qo‘yadi.

Paxtani naturada chizish uchun ketadi. Mehnat – Bobo Xasanga qutida paxta beradi, shomgacha qaytarish sharti bilan, agar qaytarmasa yomonlik bo‘lishi mumkinligini ogohlantiradi. Shunday qilib uning rasm albomida oppoq momiq quti paydo bo‘ladi, ko‘rinishidan hozir jonlanidiganday.

Shudan boshlab ertakning rivojla boshladi. Suratda jonlangan Garmisil, Xasandan zanjirdan ozod qilishini, zanjirband holda unga sehri ko‘rsata olmasligini haqida gapirib avraydi.

Zanjirlardan ozod bo‘lgan Garmisil unga bo‘ysunmay qo‘yadi. Uning daxshatli baqirig‘i eshtiladi – “endi qara nima bo‘lishini, paxta qutini qanday yonishini ko‘rasan!” deb hayqirdi.

Paxta qutini qizchaga (Paxtaoyga) aylantirib yondira boshlaydi, Xasani judaym yosh bolaga aylatirib qoyadi.

Klassik ertaklarga xos: Yalmog‘iz kampir, o‘lmas Koshey singari salbiy qahramon emas balki zamonaviy reallika yaqin qahramon bo‘lib gavdalanadi.

Garmisil esa O‘rta Osiyada jazirama issiqda esadigan shamol singari tasvirlangan, dehqonlarning hosiliga, ko‘pdan zarar keltiradigan shamolligini hamma bilar edi.

U o‘zining nafasi bilan paxta qutilarini yondira boshlaydi.

Osmonda bulutlarda uchib, dehqonlarning ekinlarini nobut qila boshlaydi. Xasanni mitti bolakayga aylatirib qo‘yganiga qaramay uni yuragini zabt eta olmaydi.

Garmiselni kuchi qancha ko‘p bo‘lmasin, Xasan unga qarshi jang olib borishga tayyor bo‘ladi, piyanaerlik burchini ado qilishga shay.

U o‘zi bergan vadasini Paxtaoyni shomgacha o‘z uyiga qaytarishi kerak. Fantaziyaning keng qo‘llamda ishlatilishi ertakka xos xislatdir, “Paxtaoy” filmida ham shunday. Bobo-Mehnatning oldiga borish yo‘lida, ko‘pkina sinovlardan o‘tishadi. Filmni, ko‘p epizodlari Xasan va Paxtaoyning yo‘ldagi sodir bo‘lgan qiyinchiliklarni birga yengib o‘tishi asosiy qismni tashkil etadi.

Yo‘lligida chiqgan tez oquvchi ariq, mitti Xasan oldinlari undan bemalol o‘ta ollar edi hozir esa uni kesib o‘tish uchun katta kuch kerak. Uni kesib o‘tishda ularga sehirli paxta pistasi yordam beradi. Biz filmda ko‘rishimiz mumkin qanday qilib paxtadan real hayotda foydalaniladigan vaziyatlar ham kiritib o‘tilgan, mo‘jizaviy ertakni o‘z jozibasi bilan boyitilganligini.

Film ko‘rish davomida oppoq tilla bo‘lmish paxtaning yangi jihatlarini yosh tomoshabinga tasvirlab bergan. Filmdagi ko‘plab qiyin vaziyatlarda Xasanga Paxtaoyning sehrili pistasi bilan yordam beradi. Salbiy qahramonlar: chigirtka va shilla qurt bilan Xasan mardonavor jang olib boradi. Xasan, Paxtaoy suvga yiqilib oqib ketayotganda ham o‘zini o‘ylamaydi, uni qutqarishga o‘zini otadi. Paxtaoyni hosil bayramiga yetkazishga astoydil harakat qiladi. Hamma ertaklarning so‘ngi kabi, voqealar yaxshi yakun topadi.

Bayramda paxta qutilari zobidaroy o‘yin o‘ynashadi. Birdan Mehnat - Boboning burnini tagidan paxta qutilari bir xil oq kiyimdagi qizlarga aylanib raqs tusha boshlaydi. Mitti Xasanga bu mo‘jizalarni ko‘rib quvonadi.

Mehnat – Bobo unga aytadi: - sehrli pistani unga qaytar sen yana o‘z holinga qaytasan. Xasan raqsaga tushayotgan qizlardan Paxtaoyni tanimay qoladi.

Bobo Xasanga to‘pi yo‘g‘i o‘sha Paxtaoy bo‘ladi chunki pisatasi senda deydi.

Mitti Xasan o‘z holiga keldi, Garmisel ham albom varaqalariga qaytdi.

O‘z davrida bu film bolalar kino san`atining ilk qadamlari bo‘lgan. Bu yerda rejissyorning ishi juda katta, aktyor tanlashida bolalardan asosan tabiiylikka ahamiyat bergan. Yoshi katta aktyorlarning hammasi ham bolalar bilan yaxshi kAlisahib ishlay olishi qiyin.

O‘zbekning mehnatkashligini ifodalaydigan obraz, Mehnat – Bobo rolini Asad Ismatov, salbiy qahramon bo‘lmish Garmiselni – Obid Jalilov ijro etishgan. Rejissyor hattoki salbiy qahramon ham yosh tomoshabini qo‘rqitishi keramasligiga urg‘u bergan. Shuning uchun Garmiselni ham inson ongiga bo‘ysunishini tasvirlagan.

Rejissyor K.Yormatovning filmi bo‘lmish “Paxtaoy” ijodkor ijodining epizodi edi. Ijodiy faoliyatida bunday yangicha nazar kinemotagrafiya olamida kam ommolashdi. Necha yillar keyin yangi ochilgan “O‘zbekfilm” ham o‘zining texnik imkoniyatlari bilan bunday shaklda ertaklar suratga olmadi.

Badiiylik, ijodkorning yangicha nazarini xatoki “Semurg” (H.Fayziyev), “Yettinchi jin” (M.Og‘amirzayev) filmlarda ham kam ko‘rishimiz mumkin. Bunday rusumda filmga o‘xshash film suratga olishga harakat bo‘ldi albatta 1957-yilda rejissyor Z. Sabitovning “Cho‘l ishi” (Случай в пустыне) filmda ko‘ringan.

“Cho‘l ishi” filmining qisqacha mazmuni. O‘zbekistonning chegara shaharlaridan birida planerchilar musobaqalari o‘tkaziladi. To‘satdan uchib ketgan tayfun maktab o‘quvchilari Kostya va Rustam bilan birga planerni cho‘lga olib boradi. Ularning planeri qumga qulab tushganda, o‘rindiq ostidagi kabinada bolalar uchishni juda xohlagan, ammo uni olib ketmagan kichik Firuzani topadilar.

Uchalasi cho‘l orqali o‘lik shaharga yo‘l olishadi. Bu yerda qadimiy xarobalar orasida, o‘zlarini arxeolog deb atagan to‘rtta notanish odam bilan uchrashishdi. Ko‘p o‘tmay, yigitlar ularning oldida dushmanlar borligini tushunishadi. Qahramonlarning kuzatuvchanligi bunda ularga qo‘l keladi. Tayfun niqobi ostida ular bilan bog‘lanish uchun sovet hududiga ko‘chirildi ilgari chegarani kesib o‘tgan sabotajchilar guruhi tomonidan. Ammo birinchi guruh chegarachilar tomonidan hibsga olingan.

Rustam diversionerlar tomonidan yashirilgan radioni topadi va o‘z koordinatalarini efirga yuborishga muvaffaq bo‘ladi. Bu haqda bilib qolishadi, banditlar yigitlar bilan kurashishga qaror qilishadi. Ular qizaloq Firuzani o‘ldirishadi. Bu vaziyat bolalarni sindirmaydi balki yanada olg‘a qadam bosishga undaydi. Boshligidan o‘tkazgan holatlarda ular bir birovi bilan mehribon va har qanday ishni eplay olishga, vatan tuyg‘usini yanada mustaxkam tuyishdi. Samolyotda kelgan chegarachilar sabotajchilarning butun guruhini egallab olishadi. Sarguzasht janrdagi filmga rejissyor bekorga qo‘l urmagan. 30 yillarda sovetdetfilmda romantik sarguzashat janridagi filmlar yaratish o‘z rivojlangan palla edi.

60-yillar bolalar kinosining rivojlanish davrining asosiy pallasi edi. Bollar kinosida mavzular kengaydi, filmlarning janrlari rivojlandi.

Yosh rejissyorlarning izlanishlari tomoshabinlarni o‘ziga jalb qila boshladi. San`at talantlarni kashf qildi. Filmlarda eksperemental nazarlar olib borishlarni qo‘llab quvatlay boshlashdi. Hozirda mashhur rejissyorlar Shuhrat Abbasov, Ravil Batirov, Elyor Eshmuhammedov, Damir Salimov o‘zlarining birinchi ijodiy ishlari bo‘lmish– “Sen yetim

emas, san", "Toshkent non shahri", "Kanadchilar", "Nafosat", "Olmos" filmlari bilan tez fursatda tomoshabinlar mehrini qozongan. "O'zbekfilm"da bolalar filmining suratga olish tendensiyalari rivojlandi.

O'z kasbibning ustasi, metr, rejissyor bo'lmish Shuhrat Abbasov tamonidan olingan barcha filmlar O'zbekfilm kinofondining oltin filmlari hisoblanadi. 60-yillarda "San yetim emas san" va "Toshkent non shahri" filmlari uning nomini butun dunyoga tanitgan. Bu filmlarda rejissyor asosan har xil yoshdagi bolalar bilan ishlagan. Nafaqat ijodkor sifatida balki pedagog sifatida faoliyat olib borgan. O'zbek kinosida birinchi bor bolalar xarakterini yaqqol ochib bergan.

Bolalar va o'smirlar kinosini E. Eshmuhammedovning "Nafosat", D. Salimovning "Olmos" filmlarisiz tasavur bilib bo'lmaydi. Film dunyosi bizga toza qalb ko'zi bilan yorug'likni his etishni o'rgatadi. Damir Salimovning "Doira" nomli kartinasinini kuzatuv filmi deyish ham mumkin. Filmda mashhur aktyorlar o'ynamagan, katta yasama rangli dekoratsiyalarsiz, ko'p dialoglarsiz tasvirga olingan.

Kartina asosan naturada tasvirga olingan. Unda bolakayning ot bilan munosabatini nozik ifodalab berilgan. Bolakayning bobosi kalxozda yuzlab otlarni o'tlaydi. Oxiri ko'rinmas dalalarda, suv bo'ylarida o'tlaydi. Bolakay bobosi bilan oddatda sayir qilar edi. Unda tabiatga va hayvonot olamiga mehri oshib boradi. Bolakayning ko'zi oldida dunyoga kelgan "Olmos" ismli toychog'ni mehr berib g'amxo'rlik qila boshlaydi.

Toychog' bolakay oldida o'zini shoh shodon tutadi, bolakay yo'qligida esa uni qo'msaydi, hattoki bolakayni maktabida ham bolani izlaydi. Ular bir biroviga samimiy mehr bilan bog'lanib qolishadi. Olmos chopqir otga aylanadi, uni ot poygaga olib ketishadi. Operator to'xtovsiz Olmosning holatlarini kuzatuv qilib tasvirga olgan. Olmosning tushkun kayfiyati kadrlarda yaxshi yetkazib berilgan. Uning taomini yemasligi, o'zing quvonchili damlarini qo'msashi, bolakay bilan o'tkazgan paytlari daladagi sayrlarini otning kechinmalari yaxshi aks ettirilgan. Ekranda otning unga qo'pol munosabatda bo'lganlarning hammasiga qarshi chiqishi ko'rsatilgan. Bola bilan hayvonat olami o'zaro do'stligining yaqol namuna film.

Badiiylik, o'ziga hos yechimlar biran suratga olingan, "Nafosat" filmi o'zining poezik jihati bilan butun dunyoga manzur bolgan.

E.Eshmuxamedov ijodiy ishlaridan biri "Nafosat" nomli film 100 ta eng yaxshi jahon filmlar sarasiga kirgan, Parijdagi kinematikada saqlanadi, shular asosida yosh kinoijodkorlar ta`lim olishadi. "Nafosat" nomli filmda ko'plab o'brazli yechimlardan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

U uch navelladan (Sanjar, Lena, Ma`mura) iborat bo'lib, Sanjar Lenani uchratgach chin qalbdan birinchi marotaba sevib qoladi. Temur ismli yigitni Lenaning yonida ko'rgach aldanganini sevgisi yolg'onligini tushunib yetadi.

Qahramoning sevgi to'g'risidagi qizlarga "Sevgini hammasi yolg'on o'zini go'rlikka solish, ishonmanglar" aytgan gaplaridan bilsa bo'ladiki, yigit qattiq iztirobga tushgan.

Filmda shunday sahna ko'rinishi orqali rejissorning obrazli yechimini ko'rish mumkin: bolalikni yodga soladigan sahnalar, musiqa va bolalarning ko'prik bo'yida

arg‘imchoqda o‘tirishi va bolaning skripka chalishida bolalikning tez o‘tishini gavdalantiradi. Bolalarning anhorda oqishi, 60-yillarda Toshkentda yozgi ta`tillarining qanday o‘tishiga yaqqol na`muna bo‘la oladi.

Keying novellada Lena bir umr Andrey ismli yigitni kutib yashaydi. Rejissor bu uchta hikoyani Lena ismli qiz orqali bog‘lagan.

Qiz kasalligi tufayli, hattoki sevgan insonlarini qiynamaslik uchun o‘ziga yaqinlashtirmagan, yaqinlari bilan yumshoq va nafosatli hayrlashgisi keladi. Faqatgina iliq xotiralarni hamisha yodga olib, uni sevgan Temur Barbosning Nafosat nomli hikoyasini Ma`mura ismli maktab qiziga aytib beradi.

Bunda ssenariy muallifi insonlarga butun film davomida aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarni hikoya tarzda tomoshabinlarga so‘zlab beradi. Filmning oxirida karnaval sahnalari bilan tugatiladi. Bu bilan rejissor inson hayoti o‘zi tomoshadir degan fikrni tasviriy obrazlar bilan tomoshabin qalbiga yetkazib beradi.

Yoshlik beboshlik degan jumlani ko‘p marotaba eshitganmiz, tez yonib tez o‘chadigan feyverkka o‘xshaydi. E.Eshmuxamedovning “Nafosat” filmi insonning qalbida yoshlikning har bir shirin lahzasini iliqlik bilan uyg‘otadigan filmlardan biri.[2]

Yuqorida keltirib o‘tilgan filmlarning to‘liq qilib yosh bolalar filmi deb ham atash qiyin, ularni ko‘proq o‘smir yoshdagi bolalar filmlar qatoriga kiritsa bo‘ladi. Bu kartinlar o‘sib kelayotkan yosh rejissyorlar uchun yangi qadam bo‘ldi.

70-yillarda, O‘zbekkistonda bolalar kinosi sekinlik bilan, oldingi ajdodlarning urf-odatlarni davom ettirgan holda o‘sa boshladi.

O‘sha davrning yosh rejissyorlar: Damir Salimov, Kamara Kambarova, Xadji Axror, Xabibulla Fayziyev, Axror Akbarxodjayev va boshqalar bolalar kinosi yo‘nalishida ishodlarini davom ettirishadi. Zamonaviylik – qayg‘urush, o‘smirlarni qiziqishlari, axloq muammolar – bolalar kinosi olamida asosiy mavzu bo‘lib qoladi. Bu davrda o‘zining ijodiy faoliyatini Kamara Kambarova va Damir Salimov deyarli bir vaqtda boshlashgan. 60-yillarni, ikkinchi yarmida – o‘zligining birinchi qog‘irchoq filmlari, multfilm turkumida yosh tomoshabinlar uchun filmlar suratgaolingan.

Yoshi kattalarning bolani tushunmasligida, ularga be e`tiborligi, hisoblanadi. Oxir oqibat o‘sib kelayotgan shaxsning siqig‘liga olib keladi. Ijodkorlar o‘z qarshiliklarini, bolalarni qo‘llab quvatlovchi personjlar bilan boyitishgan. Ularga: Abbos Gazievich (“Tog‘lar chaqiradi”), Anvarni otasi (“Bu qo‘rqmas bolalar...”), Buvijon (“Achchiq danak”), badiiy personajlar kinematagrafistlarning nuqtai nazari sifatida gavdalangan.

“Tog‘lar chorlaydi” filmi 1972-yilda tomoshabinlarga havola qilindi. Film sujeti, bir qishloqda bolalar lageredi dam olovchi bolalar kichik patronning topib olinishidan boshlanadi. Bolalarni, bu yerlarda patronni kim qo‘llagan, qaysi qahramon degan savollar qiziqtirib qo‘yadi. Yoshlarning bu qiziqishlarini yoshi katta vajatilar ham qo‘llab quvqtlaydilar.

[2] I.Nurmuhamedova “Rejissor Elyor Eshmuhamedov filmlarida yoshlar hayotiga nazar” UzACADEMIA №18, Volum2 2, ISSUE 8(18), JULY 2021, B-18

Masalan, pianer vajatiy Abbos Gaziyevich bolalarni boshlayotgan ishlarini qo‘llab va o‘rinli maslahatlar ulashadi. Qachonlardir qizil askarlar hayotiga befarq bo‘lmaganligini ko‘ramiz, u o‘zi ham yoshligidan faktlar izlaganligini ko‘ramiz, bolalarni qidirmalarni topishni qo‘llar edi. Shunday qilib kattalar va bolalar, jahon urushining nomsiz qahramonlarini izlarni qidira boshlashadi.

Lekin sir jumboqligicha qoladi. Ekranda qiziquvchan bolalarning quvonch ko‘zlari so‘nadi, tomoshabini oldida shunday kadr: bo‘sh pianerlar hovlisi, hamma yerda kuz xazoni.

Film tushkun kayfiyatda tugagan bo‘lsada tomoshabin o‘zida yana bir nafas sezadi. Voqealarning asosiy mavzusi qiziqishilar bilan davom etmagani ham bu ijodkorning bizga pasili. O‘tmish hozirgi zamon uchun doim jumboq bo‘lib qoladi.

Bolalar urush jumboqlarini topa olishmaydi, nomsiz qahramonlarning ismlarini bilishmaydi, lekin ularning intilishi, o‘z yurtining tarixni bilishga qiziqishlari, orzu, intilishi bilan vatanparvarlikni ko‘rish mumkin.

Filmining jumboq bo‘lib qolishida ham joziba bor. Balki rejissyor filmni oxirgacha tugatilmaganligi, kengi ishiga debocha qoldirgan degan taxminlar bor.

Rejissyor Damir Salimov, yoshlar hayotiga juda qiziqish bilan qaraydi, o‘zining ijodiy ishlarida yoshlar xarakterini mukamal ifodalashga uringan. Yangiliklarni ochishga qiziqishi, fanlarni o‘rganishga, asosan texnikaga o‘rganishga qiziqishi, mehnat-sevarligi, xohish-irodalari, o‘zining kartinasida “Bu poyga mashinalarida qo‘rqmas bolalar” filmida asosan ko‘rinadi.

O‘zbek yigiti Anvar poyga mashinasini qurishi va uni butun dunyo bo‘ylab aylanib chiqish g‘oyasi bilan ovora bo‘lib, atrofiga ishtiyoq bilan qaraydi. Mashinaga qiziqishi, bog‘langan va eski qismlardan mashina yig‘adigan do‘stlarini yig‘adi. Do‘stlari Uyg‘un, Botir, Ismoil ular ham mashinani yig‘ishga chanqoq o‘smirlar. Filmda xarakterlarni ochishda o‘smirlar va yoshi katta kishilarning o‘zaro tutash yo‘llari ko‘rsatilgan. Yoshlarning birinchi sinovda mashina yonib ketadi. Keyin uy-joy ishchilari bolalar ishlaydigan ustaxonani buzishga harakat qilishadi.

Yosh mashinasoz dizaynerlar, nazoratni o‘z zimmasiga olgan kattalar bilan birgalikda ustaxonani himoya qilish uchun bor kuchini tashlaydilar. Ustaxonada ish yana qaynaydi. Filmda o‘smirlar xarakterining negizi ko‘rsatilgan. Qahramonlardan yoshlar orasida Anvarning badiiy obrazi ajralib turadi o‘zining sho‘xligi, ortidan do‘stlarini chorlashi, o‘zni tutib olganligi, masuliyatli etib tasvirlangan. Uning bunday yashashi tarzi, tushunchalari, uning oilasidan ko‘rinib turadi. Anvarning do‘sti Uyg‘un obrazi, milonxolik temperamintli xarakterga ega, sodda, do‘stlariga sodiq yigit.

O‘zinga ishonchi yo‘q, otasiga o‘zining haqiqatini yetqizishga oshiqqan o‘smir. Bu obraz oiladagi bolaning tarbiyasiga ta`sir qanchalar muhim ekanligini yigitning holatidan ko‘rinadi.

Otasining haddan ortiq qattiq qo‘lligi bolani san`atini so‘ndirishiga olib keladi.

Bu filmda, oilalardagi har xil shaklda tarbiyalash sistemasini solishtirishi tasvirlangan.

Uyg‘unning otasining obrazi to‘la - qonlikcha ochib berilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Insonlarni psixologik xarakterlarining buzulganligi, sabablari ko‘rsatilmagan. Film ijodkorlari, o‘sha davradigi o‘smirlarga dunyo qarashini ochib berishgan. Rejissyor D. Salimovning ijodi o‘sha davrdagi Toshkentda yashovchi xalqning urf-odatlarini ko‘rsatishga urunganlar. O‘z faoliyati bilan o‘zbek xalqining sevimli rejissyorlar qatoriga kirgan.

O‘zbekistonda bolalar kinosida ajoyib hodisa bo‘lib tanilgan film “Achchiq danak”. 1976- yilda yosh rejissyor Kamara Kamalova tomonidan suratga oligan. Unda bolalar kinosining rivojlanish kurtaklari ko‘riladi. Poeziyaning lirik uyg‘unligi, melanxolik notalar, qahramoning ichki kechirinmalarini tomoshabin anglashiga yordam berganini ko‘riladi. “Achchiq danak” Kamara Kamalovaning birinchi to‘liq metrajli badiiy filmi hisoblanadi.

Ijodkor bu filmni suratga olishdan oldin o‘zini multiplikatsiyon janrda ijodiy faoliyatini olib borgan. “Rahim va qo‘ng‘iz” (1967), “Quyosh nuri”(1971) va “Velosiped qochib ketti”(1974) kabi qog‘irchoqli multfilmlari muallifi. K.Kamalova 1983 yilda o‘zining ijod na`munalari bo‘lmish “Achchiq danak”, “O‘zgalarning baxti”, “Ertaga chiqasanmi?” nomli filmlari uchun Lenin komsomolining mukofoti laureati bo‘lgan. [3]

“Achchiq danak” filmi o‘zining stili, monerasi bilan ijodkorning oldingi ishlarining davomi shakli. Nargiza ismli bosh qahramon nozik bilan nafosat bilan filmda jilovlanib turadi. 12-13 yosh atrofidagi Nargiz o‘zini moviy osmon bo‘ylab sayr etayotgan pushti pulutlarda yashayotganday his qiladi. Psixologiq nuqtai nazaridan bolalarning 10 yoshdan 16 yoshga qadar, o‘smirlarning o‘tish periudi hisoblanadi. Kartinada o‘smirning o‘tish davrida hayotga real qaray boshlashini ko‘ramiz. Nargizaga uning o‘rtog‘i bo‘lmish Erkin ismli bolani yoqtirib qolgan.

Uning eng yaqin do‘sti Lali yozgi ta`tilda buvasining yoniga keladi. Lali qizil baxt qushiga juda ham ishonadi, tabiati beg‘ibor, do‘stiga sodiq bo‘lgan qiz. Hich kimni ranjitgisi kelmaydi, hammaga qo‘lidan kelgancha yordam beradi. Lekin Nargiza Lalini tushunmidi, Erkindan hafa bo‘lgan payti ichidagi dardini aytadi, u bilan yarashganda dugonasini yodidan chiqarib o‘zini hayoliy sevgan odamni oldiga ketadi. Filmda yosh bolalarga hos topilmalarga boy. Badiiy yechimlar tasviriy uyg‘unlik filmni har daqqiqasida bilinadi. Misol qilib Lalining dugonasidan ko‘ngli qolganda uning soy bo‘yida yig‘lashni suvda suzayotgan toshbaqa bilan kantrast holda berilgan.

Tomoshabin biladiki dugonasi toshaqa misol beg‘amligini misol qilib tasviriy ifodalab o‘yilgan. Erkinning shoxligi, hammani urishtirib qo‘yishni, g‘uromlik bilan bo‘lsa ham hamma narsadan g‘olib chiqishini, Nargizagani ko‘nglini ovlab, achchiq mevani ham shirin deb yeb unga havola qilishilarini bu voqealarning hammasi obrazni ochishga katta ahamiyatga ega. Rejissyorning rollarni ijro etishga tanlangan yoshlarni aktyorlik qobilyatlariga to‘la qonlik bilan ochishda ishlagani ko‘rinib turadi.

Mazkur film bolalar qalbida atrof-muhitga mehr uyg‘otish, ezgulik va yomonlik, go‘zallik va qabohat kabi tushunchalarni ongiga singdirishga xizmat qiladi.

[3] https://www.kino-teatr.ru/kino/director/sov/35169/bio/

Bir kuni Nargiz baland qoyalar uzra parvoz qilayotgan Qizilqushni ko‘rib qoladi. Buni do‘stlari va Erkinga aytgan edi, ular baxt qushini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish uchun qoya tomon chopadi.

Qizilqush xuddi bir xavfni sezgandek, hali hanuz qoya tosh uzra uchar, inida unga talpinayotgan yagona poloponini begona ko‘zlardan himoya qilishga intilardi.[4] Nargiz obrazi hayotidagi hayoliy sevgiga real nazar bilan ko‘ra boshlashi bilan film yakunlanadi. To‘g‘ri ota-onalar faqat kirib chiquvchi personajlar kabi gapda, bir qancha kadrda ko‘rinishadi.

Filmni qizchaning ko‘zi bilan ochib berilgani taqsirga loyiq. Kadrlarning har biri bolalar dunyo qarashini ochib bergan qaratilganligi shubhasiz. Qahramonlar bolalar hayotini shakllashda, ozmi ko‘pmi miqdorda fikrlashga olib keladi. Kino san`ati asarlari to‘la ilm beradi degan fikrdan yiroq.

Moddiy qashshoqlik ayb emas, ma`naviy qashshoqlik gunohi azimdir deb Mark Aranovich Rubiyshteyn bejiz aytmagan. Ma`naviyat qashshoqlik bu inson ongining tasavurlardan holi shakli, faqatgina tirik qolish uchun ovqat yemoq kabidir. Ma`naviyatimizni rivojlantirishga har bir inson o‘z hissasini qo‘shishi darkor.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT:

1. https://uzpedia.uz/pedia/ozbekfilm_2
2. UzACADEMIA №18, Volum2 2, ISSUE 8(18), JULY 2021, B-18
3. https://www.kino-teatr.ru/kino/director/sov/35169/bio/
4. A.Ishoqov “Kinomatografiya tarixi(Lavhalar)” “Zilol buloq” nashiriyot, Toshkent 2019 y, B:96

[4] A.Ishoqov “Kinomatografiya tarixi(Lavhalar)” “Zilol buloq” nashiriyot, Toshkent 2019 y, B:96

TA'LIM MUASSASALARI O'SMIR-YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI SAMARADORLIGINI O'SHIRISHNING AFZALLIKLARI

Yuldosheva Xulkar
The faculty of English philology, 1st year student, Uzbekistan state world language university
Bannopova Zulxumor Xatamovna
Scientific adviser senior teacher philology faculty Uzbekistan state world language university

Abstrakt: *O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash, ularning manfaatini himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning siyosiy, huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb masaladir.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, ijtimoiylashuv, samaradorlik, davlat siyosati, madaniyat.*

SOCIALIZATION OF ADOLESCENTS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS THE BENEFITS OF INCREASING EFFICIENCY

Abstract: *Working with young people in Uzbekistan, protecting their interests to make and comprehensive support, their political, legal raising awareness and culture, active involvement in political processes to do, to develop entrepreneurship among young people, about young people implementation of state policy is an urgent issue today.*

Key words: *Youth, socialization, productivity, public policy, culture*

СОЦИАЛИЗАЦИЯ ПОДРОСТКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ ПРЕИМУЩЕСТВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Абстракт: *Работа с молодежью Узбекистана, защита ее интересов оказывать и всестороннюю поддержку, их политические, правовые повышение осведомленности и культуры, активное участие в политических процессах делать, развивать предпринимательство среди молодежи, о молодежи Реализация государственной политики является сегодня актуальным вопросом.*

Ключ слова : *Молодежь, социализация, производительность, государственная политика, культура*

Ma'lumki, ikki yil muqaddam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil qilindi hamda 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston amaliyotida butunlay yangi tizim, ya'ni yoshlarning turli dolzarb muammolarini o'rganish bilan shug'ullanadigan maxsus – Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi.

Ushbu muassasaning O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi qoshida tashkil etilganligi institutning ilmiy-metodik va tahliliy-tadqiqot faoliyatini zamon talablariga mos shakllantirilishi uchun asos bo‘ldi.

Yoshlar siyosati sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida muhtaram hukumatimiz tomonidan yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalariga hozirda juda katta e’tibor qaratilmoqda.

Bilamizki, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning intiluvchan, harakatchan faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi bevosita yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviyatini, huquqiy ongini va madaniyatini, bilim va dunyoqarashini yuksaltirish, yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirish asosida olib borilmoqda.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda barkamol insonni, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ustuvor masala sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, eng avvalo yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy va jismoniy kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, O‘zbekistonning yoshlar sohasidagi siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Yoshlarni jismonan va aqlan sog‘lom bo‘lib o‘sishini ta’minlash.

2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagi birinchi qadamlaridanoq singdirish.

3. Har bir yoshni o‘z Vataniga muhabbat va mehr, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash.

4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo‘lishi uchun yoshlar o‘z millati, o‘z yurti tarixini, urf-odatlari, an’ana va qadriyatlarini hamda uning jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotidagi o‘rnini har tomonlama bilishini ta’minlash.

5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug‘lovchi xolis vosita sifatida foydalanish.

Yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirish masalasining davr ruhi bilan uyg‘unlashib borishini T.Mahmudov quyidagicha e’tirof etadi: “Yoshlar hayot maydoniga qadam qo‘yayotgan ekanlar, qaysi tomonga qaraydilar (orqagami, oldingami), kimga ergashmoqdalar, nimani orzu qilmoqdalar, o‘z yoshlik kuchi, iste’dodi va imkoniyatlarini nimaga sarf qilmoqdalar – bular bevosita millat va mamlakat istiqbolini belgilovchi masaladir.

Ana shu ma’noda yoshlarga befarqlik istiqbol mevasining ildiziga bolta urish bilan barobar bo‘lardi. Yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirish jamiyatimiz hayotida vujudga kelgan bir qator vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadi.

Eng avvalo, mamlakatimizda bozor munosabatlari jadal shakllanishi sharoitida yoshlarimiz ongida unga mos iqtisodiy tafakkurni shakllantirish talab qilinadi. Ikkinchidan, yoshlarimiz ongida hozirgi zamon fan-texnikasi va texnologiyasi yutuqlarini egallash zarurligi shakllantiriladi.

Uchinchidan, demokratik qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, demokratik qadriyatlarni egallash ularni mustaqil fikrlashga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, o‘z-o‘zini anglashiga va erkin faoliyat ko‘rsatishlariga imkon beradi.

Xorijiy tillarni, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, bu omillarni tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan uyg‘unlashtirish ham eng ustuvor masalalardan biri sanaladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda jamiyatdagi barcha fuqarolar, eng avvalo jamiyatdagi eng faol, izlanuvchan, ishbilarmon va tadbirkor ijtimoiy qatlam bo‘lgan yoshlar, shu bilan birgalikda, uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ishlarni tizimli ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. Toshkent, Sharq, 2001 yil, 120 bet.

2. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Samarqand gazetasi, 2016 yil 10-dekabr, 3-bet.

3. Yangi O‘zbekiston gazetasi – № 9 (1070), 2024 yil 13-yanvar, 1-bet.

4. R.S.Qosimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori.

TA'LIMNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

Yunusova Nargiza Baxodir qizi
IIV -2 sonli toshkent akademik litseyi ingliz tili o`qituvchisi .

Annotatsiya: *Ta'lim insoniyat hayotining muhim omillaridan biri bo‘lib, jamiyat rivoji va barqarorligining asosi hisoblanadi. Har bir jamiyatda ta'lim tizimining rivoji faqat individlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishni emas, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, ta'limni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lishi lozim.*

**Kalit so`zlar:** *ta`lim, jamiyat, kadrlar, ijtimoiy tenglik, demokratiya.*

Ta'limning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati

Zamonaviy dunyoda ta'lim iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismidir. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologik taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun ta'limga katta e'tibor qaratiladi. Ma'lumotlarga ko‘ra, yuqori ta'lim darajasiga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo‘lib, bu davlatlarning global bozor raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ta'lim ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maktab va universitetlarning barchaga ochiq bo‘lishi, turli tabaqalar va qatlamlarga teng imkoniyatlar yaratishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, ta'lim orqali inson huquqlari, tenglik va demokratiya kabi qadriyatlar jamiyatda targ‘ib qilinadi.

Zamonaviy ta'limdagi muammolar va yechimlar

Bugungi kunda ta'lim tizimining oldida turli muammolar mavjud. Ulardan biri – ta'lim sifatining yetarli darajada yuqori emasligi. Ko‘p hollarda o‘quv dasturlarining eskirganligi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda yetishmovchiliklar va o‘qituvchilarning malakasini oshirishdagi cheklovlar muammolarni kuchaytiradi.

Bu muammolarni hal qilish uchun davlatlar ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga e'tibor qaratmoqda. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi orqali ta'lim sohasidagi ilg‘or yondashuvlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ta`limni oshirishning samarali yo`llari:

1. Ta'limning raqamlashtirilishi

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim platformalari, virtual darsliklar va masofaviy o‘qitish metodlari o‘quvchilarga bilim olishda qulaylik yaratadi. Buning uchun: Internet va zamonaviy qurilmalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Elektron resurslar va multimedia materiallarini ishlab chiqish. O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslarida o‘qitish.

2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish

Ta'lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning bilim va tajribasiga bog‘liq. Shu bois Doimiy treninglar va seminarlar tashkil etish o‘qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi. Tajriba almashish dasturlarini amalga oshirish, masalan, xalqaro va mahalliy darajadagi ustozlar bilan hamkorlik qilish. Motivatsiya tizimini takomillashtirish orqali o‘qituvchilarni yanada samarali ishlashga undash.

3. Innovatsion o‘qitish metodlarini qo‘llash

An'anaviy ta'lim usullari zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmaydi. Shu bois, quyidagi yondashuvlarni joriy qilish lozim: Loyiha asosidagi ta'lim: o‘quvchilarni haqiqiy muammolarni hal qilishga jalb etish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘yinlashtirish (gamification): o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qilish.

STEAM ta'lim: fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarini integratsiya qilish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

4. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish

Bilimlarning yangiligi va zamonaviyligi o‘quvchilarning bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. O‘quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda yangilash. Iqtisodiyot, ekologiya va raqamli texnologiyalar kabi sohalarga oid mavzularni kiritish. O‘quvchilarni fikrlashga undovchi va amaliyotni o‘rgatuvchi o‘quv materiallarini ishlab chiqish.

5. Qulay va inklyuziv ta'lim muhiti yaratish

Har bir o‘quvchi teng imkoniyatlardan foydalana olishi uchun ta'lim muhiti sharoitlari yaxshilanishi lozim. Ta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihatdan mustahkamlash, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash. Nogironligi bo‘lgan va ehtiyojmand o‘quvchilar uchun maxsus dasturlar va infratuzilma yaratish. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning psixologik va emotsional holatini hisobga olish, masalan, psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri bo‘lib, uning sifati va samaradorligi har bir mamlakatning kelajagi uchun muhimdir. Ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Faqat shundagina ta'lim jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda asosiy kuchga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon banki hisobotlari va ta'lim bo‘yicha tahlillar: World Bank Group. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise.

2. UNESCO ma'lumotlari va tavsiyalari: UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.

3. Akademik tadqiqotlar va maqolalar: Darling-Hammond, L. (2000). Teacher Quality and Student Achievement: A Review of State Policy Evidence. Education Policy Analyis Archives. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.

TIBBIY TERMINLARNING AHAMIYATI VA QO'LLANILISHI

Lola Abdunazar Qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
Bozorova Shahzoda
Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Tibbiy terminlar tibbiyot sohasidagi maxsus atamalardir va ularning asosiy ahamiyati aniq va tushunarli bo'lishidadir. Ushbu terminlar kasalliklar, davolash usullari, diagnostika va tibbiy faoliyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Tibbiy terminlar ilmiy va amaliy tibbiyotda global miqyosda muloqotni osonlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va tibbiyot sohasida samarali ish olib borishga imkon yaratadi. Ushbu maqola tibbiy terminlarning ahamiyati, qo'llanilishi va ularning tarixiy rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Tibbiy terminlar nafaqat tibbiyot mutaxassislari, balki ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tibbiyot hamjamiyatining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiy terminlarning aniq ishlatilishi tibbiyotda kasalliklarni tez va samarali davolashga, shuningdek, ilmiy izlanishlarning ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *tibbiy terminlar, tibbiy til, diagnostika, kasalliklar, xalqaro tibbiyot, davolash usullari, Patologiya, Fiziologiya, profilaktika, Farmokologiya.*

Abstract: *Medical terms are specialized terms in the field of medicine, and their main importance lies in their clarity and comprehensibility. These terms play a crucial role in expressing diseases, treatment methods, diagnostics, and medical activities. Medical terms facilitate communication on a global scale in both scientific and practical medicine, reduce errors, and enable effective work in the medical field. This article focuses on the importance of medical terms, their usage, and their historical development. Medical terms are important not only for medical professionals but also for scientific research and the development of the international medical community. The precise use of medical terms helps in the rapid and effective treatment of diseases in medicine, as well as ensuring the reliability of scientific research.*

Keywords: *medical terms, medical language, diagnostics, diseases, international medicine, treatment methods, pathology, physiology, prevention, pharmacology.*

Аннотация: *Медицинские термины — это специализированные термины в области медицины, и их основное значение заключается в их ясности и понятности. Эти термины играют важную роль в описании заболеваний, методов лечения, диагностики и медицинской деятельности.*

Медицинские термины способствуют глобальной коммуникации как в научной, так и в практической медицине, уменьшают количество ошибок и обеспечивают эффективную работу в медицинской сфере. В данной статье рассматриваются важность медицинских терминов, их использование и историческое развитие. Медицинские термины важны не только для медицинских специалистов, но и для научных исследований и развития международного медицинского сообщества. Точное использование медицинских терминов

способствует быстрому и эффективному лечению заболеваний в медицине, а также обеспечению надежности научных исследований.

Ключевые слова: *медицинские термины, медицинский язык, диагностика, заболевания, международная медицина, методы лечения, патология, физиология, профилактика, фармакология.*

KIRISH

Tibbiyot ilm-fanining rivoji insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biridir. Ushbu sohaning samaradorligini oshirishda aniqlik va tushunarlilik hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu borada tibbiy terminologiya tibbiyot sohasi vakillari uchun universal muloqot vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Tibbiy terminlar nafaqat shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni osonlashtiradi, balki tibbiyot ilmini global miqyosda birlashtirishga xizmat qiladi.

Tibbiy terminlar - bu tibbiyot sohasiga oid maxsus atamalar bo'lib, kasalliklar, davolash usullari, tashxis qo'yish jarayonlari va boshqa tibbiy faoliyatlar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular tibbiyot tilining aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash, biror kasallik yoki davolash usulini global miqyosda tushunishga imkon yaratadi. Tibbiy terminlar, shuningdek, xalqaro ilmiy hamjamiyatda mutaxassislarning o'zaro aloqalarini va muloqotini yengillashtiradi.

Bugungi kunda tibbiyot terminologiyasi inson tanasi tuzilishi, kasalliklar, diagnostika usullari va davolash jarayonlarini tavsiflash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tibbiyotning keng qamrovli sohasi tufayli ushbu terminlarning to‘g‘ri tuzilishi va ma'nosini bilish tibbiy amaliyotda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tibbiy tilning bir xilligi sog‘liqni saqlash tizimining turli bo‘g‘inlari – mahalliy shifoxonalardan tortib xalqaro tibbiy konferensiyalargacha – samarali ishlashiga imkon beradi.

Tibbiy terminlarning asosiy ahamiyati ularning aniq va qisqa bo'lishidadir. Ushbu terminlar, mutaxassislarga kasalliklarni, simptomlarni va davolash usullarini izohlashda yordam beradi. Tibbiyot sohasida har bir atama ma'lum bir fenomenni yoki jarayonni ifodalashda aniq ma'no anglatadi, shuning uchun bu sohada noto'g'ri tushunish yoki noaniqliklar juda xavfli bo'lishi mumkin.

Tibbiy terminlarning xalqaro miqyosda umumiy qabul qilingan bo'lishi tibbiyotning rivojlanishiga va zamonaviy tibbiyot amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol sifatida, tibbiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va darsliklar yaratish jarayonlarini ko'rsatish mumkin. Ma'lumotlar almashinuvi va tibbiyotning global rivojlanishi uchun tibbiy terminlarning to'g'ri va aniq ishlatilishi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Tibbiy terminologiyaning tarixi ming yillar avvalga borib taqaladi. Qadimgi yunon olimlari va shifokorlari, jumladan, Gippokrat va Galen, tibbiyotning ilmiy asoslarini yaratishda yunon va lotin tillaridan foydalanganlar. Bu tillar o‘zining ilmiy tugal va tuzilmalarga boyligi bilan tibbiyot atamalari uchun qulay asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli, ko‘plab hozirgi zamon tibbiy atamalari aynan ushbu qadimiy tillardan kelib chiqqan. Masalan, "kardiologiya", "gastrit", "artrit" kabi terminlar kelib chiqish tarixiga ko’ra

grek tilidan kelib chiqqan bo'lsa, "fiziologiya", "terapiya", "leykimiya", "trombotsit" kabi terminlar Lotin tilidan kelib chiqqan.

Bugungi kunda tibbiy terminologiya faqatgina lotin va yunon so‘zlariga emas, balki ingliz tilidan olingan zamonaviy ilmiy atamalar bilan ham boyitilmoqda. Texnologiya va innovatsiyalar rivojlanishi bilan tibbiyotda yangi atamalar paydo bo‘lmoqda, masalan, genomika, telemeditsina va biotexnologiya bilan bog‘liq terminlar. Shu sababli, tibbiy xodimlar zamonaviy terminologiya bilan tanish bo‘lishlari zarur. Jumladan, "miokard", "gastroenterolog", "adenoma", "laboratoriya" kabi ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar har tibbiyot xodimi uchun tanish va ularning kundalik ish faoliyatida tez tez duch keladigan so'zlardir.

Tibbiy terminlar barcha sohalarda, jumladan klinik amaliyotda, ilmiy-tadqiqot ishlarida, diagnostika, davolash va profilaktika jarayonlarida qo'llaniladi. Tibbiyotda ishlatiladigan terminlar ko'plab tarmoqlarga bo'linadi, jumladan:

1. Anatomiya: Tana tuzilishi va uning qismlari bilan bog'liq atamalar. Masalan, "qon tomirlar", "miya", "o'pka" kabi atamalar anatomiya sohasiga kiradi.
2. Fiziologiya: Organizmning normal funktsiyalarini tasvirlovchi atamalar. Masalan, "qon aylanishi", "nafas olish" kabi atamalar.
3. Patologiya: Kasalliklar va ularning sabablari bilan bog'liq atamalar. Masalan, "rak", "yallig'lanish", "infektsiya".
4. Farmakologiya: Dori-darmonlar va ularning ta'sirini tasvirlovchi atamalar. Masalan, "antibiotiklar", "analgetiklar", "antiseptiklar".
5. Tashxis va davolash: Kasalliklarni aniqlash va ularni davolashga oid atamalar. Masalan, "rentgen", "EKG", "operatsiya".
6. Psixiatriya: Ruhiy holatlarni tasvirlovchi terminlar. Masalan, "depressiya", "anksiyetete", "psixoz".

Tibbiy terminlarning aniq va to'g'ri ishlatilishi klinik amaliyotda muhimdir. Misol uchun, tibbiy xatoliklar ko'pincha noto'g'ri tashxis qo'yish yoki davolash usullarini noto'g'ri tanlashdan kelib chiqadi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda ham tibbiy terminlarning aniq ishlatilishi ma'lumotlar ishonchliligi va natijalarining to'g'riligini ta'minlaydi.

Tibbiy Terminlarning Tarixi

Tibbiy terminlar qadimgi davrlarda ham mavjud edi, ammo ular zamonaviy tibbiyotda ishlab chiqilganiga qadar, oddiy xalq tili va lokal dialektlarga asoslanib ishlatilgan. Tibbiy sohada terminologiyaning rivojlanishi alohida tarixiy bosqichlarga ega. Masalan, qadimgi Yunonistonda "medicina" atamasi ishlatilgan, bu so'z "shifo berish" ma'nosini anglatadi. O'rta asrlarda esa arab mutaxassislari, masalan, Ibn Sina (Avitsenna) tibbiyot sohasida terminologiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Zamonaviy davrda esa, tibbiy terminlar ko'pincha lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan, chunki bu tillar o'sha davrda ilmiy va tibbiy sohada keng tarqalgan edi. Bugungi kunda esa tibbiy terminlar xalqaro tizimda, xususan, "International Classification of Diseases" (ICD) va "Anatomical Therapeutic Chemical Classification System" (ATC) kabi tizimlar asosida qo'llaniladi.

Xulosa

Tibbiy terminlar tibbiyot sohasida yuqori darajadagi aniq va samarali muloqotning ta'minlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular kasalliklar, davolash usullari va boshqa tibbiy jarayonlar haqida to'g'ri tushuncha yaratishga yordam beradi. Tibbiy terminlarning qo'llanilishi, shuningdek, ilmiy va amaliy tadqiqotlarda natijalarning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, tibbiy terminlarning to'g'ri ishlatilishi tibbiyot sohasida eng yuqori samaradorlikka erishish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. McCance, K. L., & Huether, S. E. (2019). Pathophysiology: The Biologic Basis for Disease in Adults and Children. Elsevier Health Sciences.
2. Gray, H., & Lewis, W. H. (1918). Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Medicine and Surgery. The Williams & Wilkins Company.
3. ICD-10 Classification of Diseases, World Health Organization (WHO), 2023.
4. Avitsenna (Ibn Sina). (1999). The Canon of Medicine (translated by Laleh Bakhtiar). Kazi Publications.
5. Dorland's Illustrated Medical Dictionary, 32nd edition. (2012). Elsevier.

TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mannobova Lola Abdunazarovna
Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
Hamroqulova Ruxshona Ilhom qizi
SamDChTI "Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik" fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbek va Ingliz tillarida terminologiyaning o'rganilishi va ularning tarjimasi, shuningdek, ikki til o'rtasidagi terminologik farqlar tahlil qilinadi. Hozirgi kunda, globalizatsiya va ilmiy-texnikaviy rivojlanish jarayonlari tufayli, har bir tilda o'ziga xos terminologiya shakllanmoqda, ammo ko'plab sohalarda ikki til o'rtasida o'zaro aloqalar va o'xshashliklar ham mavjud. O'zbek tilidagi ilmiy, texnik va ijtimoiy sohalardagi terminlar ingliz tilidan keng miqyosda tarjima qilinmoqda, ammo bu jarayonni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar va terminologik tafovutlar hali ham dolzarb masalalardir.*

Ingliz tilida ilmiy va texnik terminlarning mavjudligi va ularning dunyo miqyosidagi ta'siri sababli, ko'plab terminlar to'g'ri va aniq tarjima qilishni talab qiladi. Biroq, O'zbek tilida bu sohada hali ham ba'zi noaniqliklar mavjud. Mazkur tadqiqotda, O'zbek va Ingliz tillaridagi terminlarning o'xshashliklari, farqlari va tarjimadagi muammolarni tahlil qilish orqali, ikki til o'rtasida terminologiyani o'rganish darajasi aniqlanadi.

Ushbu ishda terminologiyaning tarjimasi va o'rganilishi, ilmiy, texnik va ijtimoiy sohalarda yuzaga keladigan o'zaro tafovutlar, shuningdek, O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy-texnik sohalarda terminologik izchillikni yaratish va ikki til o'rtasidagi terminologik aloqalarni yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit Sozlar: *Terminologiya, tarjima, O'zbek tili, Ingliz tili, ilmiy terminlar, texnik terminlar, tilshunoslik, globalizatsiya.terminlar, terminlar xususiyatlari, terminlar tarixi, tilshunoslik.*

Abstract: *This article explores the study of terminology in Uzbek and English, as well as their translation, and analyzes the terminological differences between the two languages. In today's world, due to globalization and scientific-technical developments, each language is forming its own unique terminology. However, in many fields, there are also interactions and similarities between the two languages. Terminology in scientific, technical, and social fields in Uzbek is widely being translated from English, but the challenges and terminological discrepancies that arise during this process remain relevant issues.*

Due to the presence of scientific and technical terms in English and their global impact, many terms require accurate and precise translation. However, there are still some ambiguities in this area in the Uzbek language. This study analyzes the similarities, differences, and translation challenges of terms in both Uzbek and English, and aims to determine the level of terminology research between the two languages.

The paper explores the translation and study of terminology, the mutual differences that arise in scientific, technical, and social fields, as well as the unique features of the Uzbek language. The research findings provide practical recommendations for creating terminological consistency in scientific and technical fields and improving terminological relations between the two languages.

Keywords: *terminology, translation, Uzbek language, English language, scientific terms, technical terms, linguistics, globalization, terms, characteristics of terms, history of terms, linguistics.*

KIRISH

Terminologiya — bu ma'lum bir soha yoki faoliyatga oid atamalar va ularning ta'riflarini o'z ichiga olgan ilmiy va amaliy fan hisoblanadi. Tilshunoslikda terminologiya so'zlarning ma'nolarini aniqlash va tizimlashtirish orqali tilning ilmiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu jarayon har bir tilning o'ziga xos xususiyatlariga qarab farq qiladi. O'zbek va ingliz tillarida terminologiyaning o'rganilish darajasi, ayniqsa, ilmiy va texnik sohalarda keng tarqalgan. Ushbu maqolada O'zbek va Ingliz tillaridagi terminologiya va terminlar o'rganilishining asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

1. Terminologiyaning ta'rifi va ahamiyati

Terminologiya — bu ma'lum bir fan yoki sohaning maxsus atamalari to'plamidir. Har bir soha o'z terminologiyasiga ega bo'lib, u atamalarni aniqlash, tushuntirish va bir-biriga bog'lash orqali soha bilimlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Terminologiyaning asosi so'zlarning aniq va to'g'ri ishlatilishida yotadi. Ingliz tilida bu tushuncha "terminology" deb ataladi va u biror soha yoki ilmiy faoliyat bilan bog'liq so'zlar va atamalar majmuasini anglatadi. O'zbek tilida esa "terminologiya" so'zi bir xil ma'noda ishlatiladi.

Bugungi kunda kundalik kommunikatsiya jarayonida muloqotni osonlashtiradigan so'zlar-terminlardan foydalanamiz. Har xil sohahalarda terminlar turlicha ko'rinishlarda ya'ni soha egalariga tushunarli tilda ifoda etiladi. Bundan tashqari, terminlar va umumadabiy sozlar ortasida bir nechta farqlar mavjud bolib, terminlarning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga undaydi.

Hozirgi ozbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida orin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lugat tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga kora, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida etirof etilsa, ikkinchi talimotga muvofiq u adabiy til soz boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli sozlashuv)ga tenglashtiriladi. V.P.Danilenkoning takidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, yani ananaviy fan tili (fan,ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi [1] Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli sozlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi X.Xyuellning qayd etishiga kora, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qollanadigan sozlar yigindisidir. Biz terminlar manosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz [2] Terminlar, terminologik tizimlar va terminologiya butun leksik qatlam sifatida lingvistik, mantiqiy va aniq ilmiy mazmundagi koplab asarlarning tahlil predmeti bolgan. Biroq yillar davomida terminologiya va nazariy va amaliy yonalishning turli muammolariga qiziqish doimiy ravishda ortib bordi. Bu zamonaviy tilda terminologiyaning ahamiyatini favqulodda osishi bilan bogliq bolib, bu zamonaviy jamiyatda ilm-fanning alohida rolini bevosita aks ettiradi.[3] A.Reformatskiy terminga tarif berar ekan, "... terminlar.— bu maxsus sozlardir" degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan sozlarni "maxsus leksika" deb

ataydi va uni ikki guruhga ajratadi: 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, "Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xojaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bolgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalism esa biror kasb, mutaxassislik, kopincha jonli tilde tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qatiy, ilmiy tavsifiga ega bolmagan yarim rasmiy sozdir " — deydi.

Lug'aviy manosiga ko'ra termin grekcha "terminus" sozidan olingan bolib, chek, chegara degan manoni bildiradi va u malum bir sohaga oid sozlarni qisqa va londa, hammaga tushunarli tarzda yetkazish uchun xizmat qiladi. Masalan, bank, kredit, plastik karta kabi terminlar iqtisodiyotga taalluqli bolsa, maqola, tezis, iqtibos kabi terminlar ilmiy faoliyatga ishora qiladi. Diagnoz, anesteziya,rengen kabi terminlar tibbiy sohaga oid bolsa, turist, tur paket, tur operator, gid-tarjimon kabi zamonaviy biroq hozirgi kunda eng aktual sohalardan biri bolgan turizm terminlari sanaladi. Ingliz tilidan terminlarni ozbek tiliga tarjima qilishda tarjimon ahamiyat berishi kerak bolgan bir qancha jihatlar mavjud. Jumladan, grammatik jihatdan aynan tarjima qilinayotgan termin tarjima qilingan tilda tarkibiga kora mos kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, malum bir tilda leksik birlik sifatida mavjud bolgan termin boshqa tilga tarjima qilinganda kichik sintaktik birlikka aylanib qolish ehtimoli ham mavjud. Shuningdek, tarjimon ingliz tilining madaniy oziga xosligidan kelib chiqib, tarjima qilinayotgan termin ishlatilayotgan kontekstga mos tushishini ham inobatga olishi juda muhimdir.[4]

Terminlarning kelib chiqishi ko'pincha ular yaratilgan davr va joyga bog'liq bo'ladi. Terminlar haqida ko'plab olimlar asarlar yozishgan, jumladan D.Lotte, E.Dresen, A.Lesoxin, S.Chapliqin, G.Vinokur, A.Reformatskiy va boshqalar. Ularning fundamental asarlari umumiy xarakterga ega bolib, atama nazariyasi, tilning leksik tizimidagi o'rni, shuningdek, ilmiy bilimlarning verbalizatsiyalangan birligi sifatida atamaga qoyiladigan talablarga bagishlangan edi.

"Termin" maqolasini 1922-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy yozgan bolib, ushbu maqola, o'ziga xos uslubda berilgan ma'lumotlar va tushunchalar bilan ajralib turadi. Maqolada o'sha davrda ilmiy terminlar, ularning mohiyati, kelib chiqishi va ulardan qanday foydalanish kerakligi haqida bahs yuritgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining bilimini va tajribasini ushbu maqola orqali o'rtoqlashgan. Mahalliy terminologiyaning shakllanishi D.Lotte nomi bilan bogliq. Aynan u terminologiyani o'rganish zarurligini asoslagan, shuningdek terminologiyani o'rganishning tasniflash (statik) yondashuvining asoschisi bo'lgan..

Terminlarni noto'gri ishlatish, tamoyillarni bilmaslik terminologik tizimlarning tashkil etilishi va ishlashi inson faoliyatining barcha sohalarida aloqa buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, XX - XXI asr boshlari togrisida bahslashish mumkin. Bu turli terminologik tizimlarning rivojlanishida, terminologiyaning tegishli lingvistik, falsafiy va amaliy nazariy muammolarini ishlab chiqishda noyob davr sifatida etirof etiladi."Termin" tushunchani umumistemoldagi so zdan farqlash uchun quyidagilarga ahamyat berish lozim:

1.Termin — umumadabiy tilning faqat maxsus odamlargina ishlatadigan biror bir kichik guruh uchungina tanish bolgan so zlar hisoblanadi. Masalan:ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so z yoki so z birikmalari tushuniladi;

2.Termin stilistik jihatdan neytraldir;

3.Termin bu aniq, nominative funksiyaga ega bolib,emotsionallik,ekspenssivlik xususiyatiga mos emas;

4.Terminning manosi tushunchaga tengdir;

Aslida termin va umumadabiy tildagi so zlarni bir biridan farqlamoqchi bo'lsak, bu borada o'sha soha bilan shug'ullangan olimlarning fikrlariga, nazaryalariga etibor qaratishimiz kerak.Terminologiya sohasi yangi sohalardan hisoblanmasa ham termin tarifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko pgina mulohazalar bildirilgan. O.Vinokuming fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan paydo bolmaydi, balki u jamiyatga zarurligi, unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. O zbek tilshunos olimi A.Hojiyev o zining terminga bergan tarifida ,termin — bu fan texnika yoki boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan ishlatilish doirasi maxsus sohalar bilangina chegaralanadigan so z yoki so z birikmasi deb aytib o tgan [5].

Ingliz tilida terminologiya o'rganilishi, asosan, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Leksikografiya: Bu, ingliz tilidagi so'zlar va atamalarni tizimlashtirish va ularning ma'nolarini aniq ifodalashni o'z ichiga oladi.
2. Kompyuter va informatika: Ingliz tilida texnik va ilmiy sohalarda yangi terminlarning paydo bo'lishi va ularning globallashuvi.
3. Fanlararo terminologiya: Bir necha sohalar orasida umumiy terminlar va ularning ifodalari o'rganiladi, bu esa ilmiy hamkorlikni osonlashtiradi.

3. O'zbek tilida terminologiya o'rganish

O'zbek tilida terminologiyaning rivojlanishi va tizimlashuvi ingliz tiliga nisbatan sekinroq bo'ldi. O'zbekiston mustaqil bo'lishi bilan ilmiy va texnik sohalarda o'zbek tilidagi terminologiyaning o'rganilishiga katta e'tibor berildi. O'zbek tilidagi terminologiyaning rivojlanishida davlatning ilmiy va texnik sohalarda milliy tilni saqlab qolish, tarjima va lingvistik yangilanishlarga qaratilgan sa'y-harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilida terminologiya o'rganilishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1. Milliy va global terminlar uyg'unligi: O'zbek tiliga inglizcha terminlarning kirib kelishi va ularning mahalliylashtirilishi.
2. Adabiyotlar va lug'atlar: O'zbek tilida turli ilmiy va texnik sohalarga oid lug'atlar va terminologik resurslarning yaratilishi.
3. Tarjima va adaptatsiya: Ingliz tilidagi terminlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va ularga mos keladigan terminlarning aniqlanishi.

Bundan tashqari terminlarning asosiy xususiyatlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Mano jihatidan:

Aniqlik: Terminlar muayyan sohada aniq va bir manoli bolishi kerak. Bu mano boshqa sohalarda ishlatilganida ham ozgarmaydi. Masalan, "hujayra" termini biologiya sohasida aniq bir ma'noni bildiradi va boshqa sohalarda ishlatilmaydi.

Bir manolilik: Terminlar imkon qadar bir manoli bolishi kerak, yani bir xil soz turli manolarda ishlatilmasligi kerak. Bu sohada tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Umumiylik: Terminlar muayyan sohada keng tarqalgan bolishi va kopchilik tomonidan tushunilishi kerak. Bu ularning ishlatilishi va samaradorligini oshiradi.

Rasmiylik: Terminlar kopincha rasmiy tilga xos bo'lib, ular oddiy tilga nisbatan kamroq ishlatiladi. Bu ularga oziga xos ogirlik va ahamiyat baxsh etadi.

O'ziga xoslik: Har bir sohada oziga xos terminlar mavjud bolib, ular boshqa sohalarda ishlatilmaydi. Bu terminlarni aniqlash va ularning manosini tushunishni osonlashtiradi.

2. Shakl jihatidan:

Qisqalik: Terminlar qisqa va tushunarli bolishi kerak. Bu ularni eslab qolish va ishlatishni osonlashtiradi.

Tushunarlilik: Terminlar oz manosini tushunishni osonlashtiradigan tarzda shakllantirilishi kerak. Kopincha ular lotin yoki yunon tilidan olingan ildizlarga asoslanadi.

Zamonaviylik: Terminlar zamonaviy tilga mos kelishi va oziga xos uslubga ega bolishi kerak. Yangi tushunchalar va texnologiyalar paydo bolganda, yangi terminlar yaratilishi yoki mavjud terminlarning manosi kengaytirilishi mumkin.

3. Ishlatilish jihatidan:

Togri ishlatilish: Terminlar oz manosiga mos ravishda togri ishlatilishi kerak. Bu ularning aniqligini va samaradorligini taminlashga yordam beradi.

Kontekstga moslik: Terminlar kontekstga mos ravishda ishlatilishi kerak. Yani ularni qanday vaziyatda ishlatish kerakligini tushunish muhim.

Tushunarlilik: Terminlarni tushunish uchun aniq tariflar va misollar berish kerak.

Xulosa

Termin va terminologiya ilmiy, texnik, ijtimoiy va boshqa sohalarda to'g'ri va aniq tushuncha va izohlashni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Terminologiya, biror soha yoki fan bo'yicha maxsus so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganish va tizimlashtirish jarayoni sifatida, sohaning rivojlanishini va o'zaro aloqa qilishni osonlashtiradi.

Terminlarning to'g'ri qo'llanilishi ilmiy izlanishlar, ta'lim va amaliyotda aniq va izchil kommunikatsiyani ta'minlaydi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida terminlarning noaniqliklari va farqlari kutilgan natijalarga erishishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bu, ayniqsa, ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasida terminologik aloqalar o'rnatishda muhim masala bo'lib, madaniy va lingvistik tafovutlar, hamda terminlarning kontekstual ahamiyatiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, termin va terminologiyaning o'rganilishi va aniq qo'llanilishi har bir til va sohaning rivojlanishi, samarali ilmiy va texnik aloqalar o'rnatish, shuningdek, xalqaro hamkorlik va bilim almashinuvi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Shu sababli, terminologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar va tarjima ishlarini yanada takomillashtirish, ikki

til o'rtasidagi terminologik farqlarni kamaytirish va o'zaro tushunishni mustahkamlash dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dadaboyev H.. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: Yoshlar, 2019.

2. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya.- M.:Nauka, 1977.400 st 3

3. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. Общая терминология. Вопросы теории / отв. ред. Т. Л. Канделаки. Изд. 2-е, стереотип. М. : Едиториал УРСС, 2003. С. 14.

4. Mannobova L.A. Ingliz tilidagi turizm terminlari va ularning o'zbek tiliga o'girilishi// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.11.2024, 34-son

5. Hojiyev A.. O'zbek tilining izohli lug'ati. M. :Rus tili, 1981

FINLANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTONNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANILGAN DIDAKTIK O‘YINLAR

Musulmonova Viloyat
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistri

Annotatsiya: *Maqolada Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimi dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanishi, Finlandiya tajribasi asosida O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tizimida foydalanilgan didaktik o‘yinlar ularga ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish usullari haqida fikrlar mavjud.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tizimi, Finlandiya, o‘yin, tarbiyachi.*

O‘zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimiga Finlandiya tajribasini joriy etish haqida fikr yuritish juda dolzarb va istiqbolli mavzu hisoblanadi. Finlandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali va innovatsion tizimlardan biri sifatida tan olingan.Ushbu tajribani O‘zbekistonda qo‘llash mamlakatda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.Quyida Finlandiya tajribasining asosiy jihatlari va ular O‘zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida qanday joriy etilishi mumkinligi muhokama qilinadi:

Finlandiyada har bir bolaning individual ehtiyojlariga e'tibor beriladi. Bolalarning rivojlanish darajasini baholash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi.O‘zbekiston maktabgacha ta’limida bolalar nutqini rivojlantirish uchun nutqiy o‘yinlar o‘tkazildi.Bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar ularning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va so‘z boyligini oshirishda muhimdir. Quyida turli yosh guruhlariga mos keladigan foydali mashg‘ulotlar misollari keltiramiz:

1. Nutqiy o‘yinlar

"Nima bu?" o‘yini

-bolaga rasmlar yoki o‘yinchoqlar ko‘rsatib, "Bu nima?" deb so‘rang.

-bola javob beradi va ob'ektning rangini, shaklini yoki vazifasini tavsiflaydi.

-Masalan: "Bu nima? - Bu olma. Rangi qizil va u mazali."

"Xotiraviy so‘zlar" o‘yini

Bir so‘zni aytasiz (masalan, "kitob"), bola unga bog‘liq boshqa bir so‘zni aytadi (masalan, "kutubxona"). O‘yin zanjiri uzoq davom etsa, bolalar so‘z birikmalari tuzishni o‘rganadi

2. She’r va qo‘shiqlarni yodlash

Bolalar uchun qisqa va qiziqarli she’rlarni o‘qib berish, so‘ng ularni birgalikda yod olish. Masalan: “Qo‘lni yuvib ovqat yeyman, har doim sog‘lom bo‘laman.” Musiqa bilan birga she’rlar va qo‘shiqlarni ijro etish bolalar nutqini ritm va intonatsiya bilan boyitadi.

3. Hikoya aytish va davom ettirish

"Hikoya yaratamiz" mashg‘uloti

Bir hikoyani boshlang, masalan: "Bir kuni o‘rmonda kichkina quyoncha yashar edi..." Bola hikoyani davom ettiradi. Bu faoliyat tasavvur va so‘z boyligini rivojlantiradi.

Rasmlardan hikoya qilish

Turli rasmlar yoki suratlar ko‘rsatib, bolaga ularning haqida gapirishni so‘rang.

Savollar bilan yordam bering:

"Bu rasmda kim bor?

U nima qilyapti?"

4. So‘z birikmalarini kengaytirish

"Qo‘shib gapir" o‘yini

Bolaga bir nechta so‘z bering (masalan: "qush", "uchmoq").

Bola ularni bog‘lab gap tuzadi: "Qush uchyapti". Keyinchalik so‘zlarni ko‘paytirib gaplarni murakkablashtirish mumkin.

5. Rolli o‘yinlar

Do‘kon yoki shifokor o‘yini

Rolli o‘yinlar orqali bolalar muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, biri sotuvchi bo‘ladi, boshqasi esa xaridor.

"Bu nechanchi? – Bu ming so‘m." kabi dialoglar yordamida bolalar nutqini boyitish mumkin.

6. Artikulyatsion mashqlar

Bolaning talaffuzini yaxshilash uchun maxsus mashqlar:

Og‘iz ochish va yopish: "Katta och og‘zingni – katta ajdarhoday".

Tilda aylantirish: Tilni yuqoriga va pastga harakatlantirish.

Shovqinli tovushlar chiqarish: “Sh-sh-sh” (shamol tovushi), “Z-z-z” (ari tovushi).

7. Nutqiy labirintlar

Bolaga bir masalni ko‘rsatib, so‘zlar yordamida uni hal qilishni so‘rang.

Masalan: "To‘rtta hayvon bor: mushuk, it, quyon, baliq. Qaysi biri suvda yashaydi?" Bu nutq bilan birga mantiqni ham rivojlantiradi.

8. Ertakni qayta so‘zlab berish

Bolaga oddiy ertak o‘qib bering (masalan, “Uchta to‘ng‘izcha”).

Keyin undan nima eslaganini so‘rang va o‘z so‘zlari bilan hikoyani aytib berishga undang.

9. Birgalikda rasmlar chizish va tavsiflash

Biror bir rasm chizib, boladan bu rasmni so‘z bilan tasvirlashni so‘rang.

Masalan: “Bu quyosh.

U sariq va dumaloq.” Keyin bola o‘zi rasm chizib, uni tasvirlab beradi.

Bu mashg‘ulotlar bolaning so‘z boyligini kengaytirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Nutq rivojlanish mashg‘ulotlarini bolalarning qiziqishlariga moslashtirish juda muhimdir.Maktabgacha ta’lim samaradorligiga erishish uchun bolalarning savodxonligini rivojlantirish juda muhim.

Bolalarni savodga o‘rgatuvchi mashg‘ulotlar ularning yoshiga mos ravishda qiziqarli, oson tushunarli va ijodiy tarzda tashkil etilishi kerak.

Savod o‘rganish bolalarning harflarni tanishi, so‘zlarni o‘qishi va yozishni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Timoti Uoker. Finlyandiya ta'lim mo'jizasi. Toshkent: Global Books, 2023. 272 bet.
2. Samandarova Adolat. O'zbekiston-Finlandiya pedagogik hamkorligi. Journal of Modern Scientific Research, 2023 yil.
3. Nazarova Sevara. Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosliklari. International Journal of Education, 2024 yil.
4. Pasi Sahlberg. Finn Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press, 2015.
5. OECD. Education Policy Outlook: Finland. OECD Publishing, 2018.
6. Hancock, L. Why Are Finland's Schools Successful? Smithsonian Magazine, 2011.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education. Helsinki, 2016.
8. Timothy Walker. Teach Like Finland: 33 Simple Strategies for Joyful Classrooms. W. W. Norton & Company, 2017.
9. Walker, T. maktabgachaTeach Like Finland: 33 Simple Strategies for Joyful Classroomsmaktabgacha.
10.Niemi, H., Toom, A., & Kallioniemi, A. maktabgachaMiracle of Education: The Principles and Practices of Teaching and Learning in Finnish Schoolsmaktabgacha.
11. Hargreaves, A., & Shirley, D. maktabgachaThe Fourth Way: The Inspiring Future for Educational Changemaktabgacha.

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Absamatov Mirodil Zokirjon o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Email: mirodilabsamatov1404@gmail.com Tel: +998957011420

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolar va jamiyatning erkin va farovon turmushi himoyachisi ekanligi konstitutsion normalar va moddalar yordamida tahlil etiladi.*

Kirish so‘zlar: *Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy huquqlar, inson huquqlari va erkinliklari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, normalar*

KIRISH

Bosh qomusimiz qabul qilingan kun 8-dekabr har yili ko‘tarinki ruhda nishonlanadi. Bu yil mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi bilan tasdiqlangan Dastur doirasida bu borada barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, badiiy kechalar, festivallar, sayillar, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, keksa va yosh avlod vakillari, taniqli sportchilarni jalb etgan holda bayram tadbirlarini amalga oshirish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dinamik ya’ni, doimiy harakatdagi, o‘sish va rivojlanish xarakteriga ega bo‘lganligi tufayli 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinganidan buyon bir necha marta qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilish bosqichidan o‘tdi. Xususan, 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 1-maydan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda bosh qomusimizning erkin va farovon hayot garovi ekanligi yana bir bor qo‘shimcha moddalar, normalar va yangi huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlandi.

Ushbu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri Muqaddimasida inson huquq va erkinliklariga sodiqlik, fuqarolarning munosib hayot kechirishi, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligi va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad etilganligi belgilangan.

Agar dunyo mamlakatlari konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda bu huquqlarning 90 tasi mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Shundan 40 tasi yangi konstitutsiyaviy huquqlardir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning

barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” deyilgani ham ko‘rsatmoqda-ki, Bosh qomusda fuqarolar farovonligi va jamiyatimizning barqarorligini ta’minlash davlat faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanishi belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasida rasman “o‘lim jazosi taqiqlanadi” deb aniq belgilanishi ham yurtimizda inson huquqlari keng himoya etilayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda asosiy muhokamalarga sabab bo‘layotgan mavzu hisoblangan ekologiya va atrof-muhit masalasi birinchi marta yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda konstitutsiyaviy darajada ta’minlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli” ekanligi belgilangan. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini beradi.

Bu norma ham qaysidir ma‘noda fuqarolarning erkin va farovon hayoti naqadar ahamiyatli ekanligi ko‘rsatadi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning rolini oshirish bo‘yicha Konstitutsiyaning 56-moddasi: “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi. Davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi” muhim demokratik qadamdir.

Shuningdek, fuqarolarning bepul yuridik yordam olish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Qiynoqlar va zo‘ravonlikning boshqa turlari konstitutsiyaviy darajada taqiqlandi. Konstitutsiyaning 26-moddasida qiynoqlar, zo‘ravonlik va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolar taqiqlangan. Bu ham inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashda asosiy qadamlardan biri hisoblanadi.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo‘lgan samarali va barqaror tizim shakllantirilmoqda.

Asosiy qonunimizda ham buyuk ne’matlar orasida eng ulug‘i — “inson uchun” degan g‘oya ilgari surilib, uni ulug‘lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o‘z aksini topgan. Binobarin, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan yurtdagina yuksalish bo‘ladi, bunday davlat fuqarosi har tomonlama barkamol bo‘lib, vatan uchun, xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat fuqarolari farovonligi va erkinligining garovi sifatida bosh hujjat hisoblanadi. Unda belgilangan norma va moddalar inson qadr-qimmati, sha’ni, xalqimiz tinch-totuvligini asrab-avaylassh, millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglikni ilgari surish va himoya qilishga qaratilgan. Davlatda kostitutsiyaning joriy etilganligi va unga barchaning birdek amal qilishi bu

davlatning farovonligi va tinchligini ta`minlaydi. Buning uchun esa har bir shaxs huquqiy tarbiyalangan bo‘lishi va huquqiy ong va bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Manba:
https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/download/5068/4959/5089
3. Yangi o‘zbekiston konstitutsiyasi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga sodiqlik. Manba: “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024 yil 9 noyabr kungi 228 (1289)-soni
4. YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI: yaratilishi, qabul qilinishi va ijro etilishi. Manba: http://nhrc.uz/oz/news/m14205
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi. PF-53-son. 2024-yil 17-oktabr.

THE FORMATION OF AN IDEOLOGY OF SELF-AWARENESS AMONG THE INTELLIGENTSIA IN THE CONTEXT OF THE "RECONSTRUCTION" POLICY OF THE SOVIET STATE.

Ochilova Dilobar

Abstract: *By the early 1980s, crisis situations had intensified in the socio-economic and political life of the Soviet state. In the spring of 1985, the April Plenum of the Central Committee of the CPSU announced the path of radical restructuring of Soviet society, deep reform of all its spheres. At the plenum, "reconstruction" was defined as an objective need for the development of Soviet society, a vital necessity dictated by the interests of the nations and peoples living in it.*

Key words: *Soviet society, democratization, Central Committee of the CPSU, crisis.*

The democratization of society and the implementation of fundamental economic reforms were declared as components of the restructuring process. Despite attempts to change economic relations, improve public life, and carry out a number of reforms in the ideological, political, and spiritual spheres as a result of the restructuring of society, the crisis that has arisen in society has not been improved. Due to the complex conditions that arose in Uzbekistan during this period, the existing problems in all areas did not find a positive solution. In short, attempts to fundamentally reform the life of society have not yielded the desired results. However, it should be noted that during this time, communist ideology and censorship in the country were weakened and practically eliminated, creating an opportunity for the freedom of thought and press that had been expected for many years.

[16] Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar: Termiz tazkirasi – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2017. – B. 127.
[17] Iyod Xolid Tiba’. Al-imam at-Termiziy al-hafiz an-naqid, faqih as-salaf va Jome’ as-sunan. – Damashq: Dor al-qalam. – B. 171.
[18] Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 126.

bo‘lsa, u rivoyat qilgan yolg‘on hadislar sababli dinda yo‘q narsani paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lasan. Shuningdek, ishonchli va so‘zi olinadigan roviyni yaxshi tekshirmaganliging sababli so‘zi olinmaydigan roviylar qatoriga kiritsang, birinchidan, dindagi bor narsani yo‘qqa chiqarasan va begunoh bir musulmonni yomonotliq qilib, gunohga botasan”[19].

Imom Termiziy “hifz va guvohlikni ado etish” hadis rivoyat qiluvchining oldiga qo‘yiladigan eng muhim shartlardan ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni roviy o‘z shayxidan eshitgan xabarini qachon so‘ralsa biror bir so‘zini tushirib qoldirmasdan aytib bera olishi lozim bo‘lgan. Termiziy “al-Ilal as-sog‘ir” kitobida shunday deydi: “Ayrim insonlar borki, o‘zlari solih bo‘lishsa ham, guvohlikni ado eta olmaydi va uni hifz eta olmaydi. Hadis rivoyati masalasida yolg‘onchilik bilan shubha-ayblovga yoki g‘aflat sababli ko‘p xato qiluvchi har bir kishi borasida hadis ahli imomlarining ko‘pchiligi ixtiyor etgan narsa shuki, undan rivoyat qilinmaydi. Abdulloh ibn Muborakka qarang, u ilm ahlidan bo‘lgan kishilardan rivoyat qildi. Qachon ularning ishi unga ma’lum bo‘lgach, ulardan rivoyat qilishni tark etdi”[20].

Imom Termiziy hadislarni jarh va ta’dil qilish borasida ko‘pincha Imom Buxoriy, Imom Dorimiy, Abu Zur’a kabi olimlarning fikrlariga tayanganligini yuqorida keltirib o‘tdik. Shu bilan birga, muhaddislarning so‘zlarini naql qilish bilan chegaralanib qolmay, o‘z qarashlarini ham bayon qiladi. Quyida “Sunani Termiziy” dan ba’zi misollarni keltirib o‘tamiz.

Tahoratni to‘liq qilish haqida kelgan hadislar bobida alloma hadisni rivoyat qilib hadis roviysi haqida fikrini bayon qiladi: “al-Alo ibn Abdurahmon – u Ibn Ya’qub al-Juhanniy al-Haraqiy bo‘lib, ahli hadis fikricha, ishonchlidir”.

Ikki mahsining ustiga va ostiga masx tortish haqida kelgan hadislar bobida Mug‘ira ibn Sho‘ba (roziyallohu anhudan) hadis rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam mahsining ustiga va ostiga masx tortdilar”.

Abu Iso at-Termiziy yuqoridagi hadisni keltirib bu hadis borasida mujtahid olimlarning qarashlarini ham bayon qilib o‘tadi. Keyin ushbu hadis isnodiga alohida to‘xtalib o‘tadi.

“Bu hadis ma’lul – illatlangan, uning sanadini al-Valid ibn Muslimga Savr ibn Yaziddan boshqa (roviy) bog‘lamagan.

Abu Iso (at-Termiziy rahmatullohi alayh) deydi: Abu Zur’a va Muhammad ibn Ismoil (al-Buxoriy) dan ushbu hadis haqida so‘radim. Shunda ikkovi ham sahih emas dedilar...”[21].

“Sunani Termiziy” asarida bu kabi misollarni juda ko‘p ketirish mumkin. Odob Mahmud ash-Shams o‘zining “al-Imom at-Termiziy va manhajuhu fi kitobihi al-jome’” asarida Imom Termiziyning jarh va ta’dil borasida qo‘llagan istilohlari va uning uslubi to‘g‘risida batafsil ma’lumot berib o‘tgan.

Ba’zi tanqidchi olimlar Termiziyning “mutasohil”(engil hukm beruvchi) muhaddislar qatoriga qo‘shganlar. Ammo, jumhur ulamolar ImomTermiziy hadis rivoyat qilish, hadislarning illatli jihatlariga alohida e’tibor berish, roviylarning holatini bayon qilishda

[19] Odilxon qori Yunusxon o‘g‘li. Muhaddis va faqih alloma. – Toshkent: Movaronnahr, 2017. – B. 73.
[20] Cho‘tmatov J. Imom Abu Iso at-Termiziy: hayoti va ijodi sahifalari. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2019. – B. 68.
[21] Abu Iso at-Termiziy.“Sunani Termiziy” sharhi. 1-Jild. Sharhlab, nashrga tayyorlovchilar: H.Aminov, M.Ismoilov, H.Abiyev, B.Abdullayev. – Toshkent: Irfon-Nashr, 2021. – B. 168.

benazir imom ekanligini ta'kidlaganlar. Shuning uchun ham, allomaning "Sunani Termiziy" asari eng ishonchli olti hadis to'plamlari qatoriga kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, Imom Termiziy roviylarning jarh va ta'dili borasida o'z uslubiga ega bo'lgan ulug' mujtahid olimlardan biridir. Muhammad (s.a.v) tomonidan naql qilingan hadislarni bugungi kunga qadar yolg'on va bid'atlardan saqlab, sof holatda yetib kelishiga xizmat qilgan buyuk muhaddisdir. Uning "Sunani Termiziy" asari bugungi kunga qadar musulmonlarning ijtimoiy-diniy muammolarini hal qilishda asosiy manbalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Abu Iso at-Termiziy."Sunani Termiziy" sharhi. 1-Jild. Sharhlab, nashrga tayyorlovchilar: H.Aminov, M.Ismoilov, H.Abiyev, B.Abdullayev. – Toshkent: Irfon-Nashr, 2021. – 400 b.

2. Odob Mahmud ash-Shams. Al-Imom at-Termiziy va manhajuhu fi kitabihi al-jome'. – Ummon: 2003. – 1463 b.

3. Iyod Xolid Tiba'. Al-Imam at-Termiziy al-hafiz an-naqid, faqih as-salaf va Jome' as-sunan. – Damashq: Dor al-qalam.

4. Nuriddin Atar. Al-imom at-Termiziy va muvozanatu bayna jome'ihi va bayna as-sahihayn. Dor al-kutub, 1970.

5. Cho'tmatov J. Imom Abu Iso at-Termiziy: hayoti va ijodi sahifalari. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashryoti, 2019. – 176 b.

6. Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 216 b.

7. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar: Termiz tazkirasi – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2017.

8. Odilxon qori Yunusxon o'g'li. Muhaddis va faqih alloma. – Toshkent: Movaronnahr, 2017. – 96 b.

9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – 383 b.

GASTRONOMIK TURIZM SOHASIDAGI LINGVISTIK TADQIQOTLAR

Yuldashev Mansurjon Alijanovich
Namangan muhandislik tehnologiya Instituti tayanch doktoranti

Lingvistik tadqiqotlar gastronomik turizmda turli tillarda gastronomik atamalarni va madaniyatlarni tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqotlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi:

Gastronomik atamalar va terminologiya

Gastronomik turizmda foydalaniladigan atamalar va terminlar, masalan, “gastronomik sayohat”, “oshxona turizmi”, “taom festivali” kabi so‘zlar muhim ahamiyatga ega. Lingvistik tadqiqotlar bu atamalarni tahlil qilish, ularning boshqa tillardagi tarjimasi va tushunilishi, shuningdek, xalqaro kontekstdagi o‘zgarishini o‘rganadi. Tadqiqotchilar, shuningdek, gastronomik terminlarning milliy va madaniy kontekstdagi o‘ziga xosliklarini ham o‘rganadilar.

5.5.8.5 b) Madaniyatlararo kommunikatsiya

Gastronomik turizmda sayohatchilar turli madaniyatlar va ularning oshxona an'analari bilan tanishadilar. Bu jarayonda tilning rolini o‘rganish juda muhimdir. Masalan, “slow food” (sekin ovqatlanish) yoki “food pairing” (taomlarni moslashtirish) kabi atamalar turli tillarda qanday ifodalanadi va bu terminlar turli madaniyatlarda qanday qarshi olinadi.

5.5.8.6 c) Gastronomik til va muloqot

Gastronomik turizmda muloqotning o‘ziga xosligi bor, chunki sayohatchilar ko‘pincha restoranlarda, oshxonalarda yoki taom tayyorlash bo‘yicha master-klasslarda qatnashadilar. Bu turdagi muloqotda, xususan, taomlarni tasvirlash, ingredientlar haqida gapirish, retseptlar va tayyorlash jarayonlarini tushuntirish kabi lingvistik jihatlar o‘rganiladi.

5.5.8.7 d) Sotuv va marketing tilini o‘rganish

Gastronomik turizmning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri marketing va reklama tilidir. Turistik kompaniyalar, restoranlar va boshqa gastronomik markalar o‘z mahsulotlarini qanday targ‘ib qilishlari, jahon bo‘ylab turli madaniyatlarga moslashtirilgan tillarda qanday ifodalashlarini o‘rganish bu sohadagi lingvistik tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalishdir.

5.5.9 Ilmiy terminologiya va gastronomik turizm

Gastronomik turizmda ilmiy terminologiya aniq va muayyan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. U quyidagi sohalarda muhim ahamiyatga ega:

5.5.9.1 a) Gastronomik terminlarning standartlashtirilishi

Ilmiy va texnik terminologiya gastronomik turizmda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “gastronomik sayohat” (gastronomic travel), “gastronomik meros” (gastronomic heritage), “taomlarni moslashtirish” (food pairing) kabi atamalarni turli tillarda standartlashtirish va ular orasidagi tafovutlarni tahlil qilish kerak. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar, gastronomik atamalarning aniqligini va tushunilishini ta'minlashga yordam beradi.

5.5.9.2 b) Oshxona madaniyati va gastronomy lexicon

Ilmiy terminologiyaning yana bir muhim jihati oshxona madaniyatiga oid so‘zlar va tushunchalarni o‘rganishdir. Masalan, har bir millatning oshxona terminologiyasi, taom tayyorlash usullari, ingredientlar va ular bilan bog‘liq atamalar, milliy oshxona ta'riflari, mahalliy oziq-ovqat brendlari ilmiy tahlil qilishni talab qiladi.

5.5.9.3 c) Gastronomik turizmning ekologik va sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha terminologiyasi

Sog‘lom va ekologik ovqatlanish, organik taomlar va ekologik toza oziq-ovqatlar bilan bog‘liq terminlar so‘nggi yillarda gastronomik turizmda keng tarqalgan. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar ekologik barqarorlik, ekoturizm va organik oziq-ovqatlar bo‘yicha terminlarni aniqlash va tushuntirishga yo‘naltirilgan.

5.5.10 Til o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari

Gastronomik turizmda til o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

5.5.10.1 a) Gastronomik tilni o‘rganish

Gastronomik turizm sohasida til o‘rganish sayohatchilarga ma'lum bir hududning oshxona madaniyatini va an'analari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bunda sayohatchilar gastronomik sohada ishlatiladigan terminlarni o‘rganadilar, restoranlarda, oshxonalarda muloqot qilishda yordam beradigan tilni egallaydilar. Bunday o‘rganish, faqat talaffuz va grammatika emas, balki o‘sha hududning oshxona tilini ham o‘z ichiga oladi.

5.5.10.2 b) Gastronomik tilni o‘rgatish metodikasi

Gastronomik tilni o‘rganish metodikasi ham alohida o‘rganish maydonini tashkil etadi. Bu yerda asosiy e'tibor gastronomik soha bilan bog‘liq so‘z boyligini oshirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Masalan, gastronomik atamalar, restoranlar va oshxonalar bilan bog‘liq so‘zlar va ifodalar, retseptlar va taom tayyorlash jarayonlarida foydalaniladigan maxsus leksika.

5.5.10.3 c) Kulturologik aspektlar

Gastronomik turizmda til o‘rganish faqatgina so‘zlarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki o‘sha madaniyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarini ham tushunishga yordam beradi. Til o‘rganish jarayonida, sayohatchilar madaniyatlararo farqlarni, ovqatlanish an'analari, oshpazlik uslublarini va turli xil gastronomik meroslarni o‘rganadilar.

5.5.10.4 d) Onlayn va mobil tillarni o‘rganish

Bugungi kunda, gastronomik turizmda sayohatchilar tez-tez onlayn va mobil ilovalar yordamida turli madaniyatlarda taomlar va oshxona haqida ma'lumot olishadi. Bu jarayon til o‘rganishda yangi yo‘nalishlarni yaratadi, chunki mobil ilovalar va onlayn kurslar orqali gastronomik sohada o‘rganish osonlashadi.

Gastronomik turizm sohasidagi lingvistik tadqiqotlar va ilmiy terminologiya, madaniyatlararo o‘zaro aloqalar, taomlar, oshxona an'analari va bu sohalarga oid atamalarni o‘rganish orqali yangi bilimlarni yaratishga yordam beradi. Til o‘rganish, o‘z navbatida, gastronomik madaniyatlarni chuqurroq tushunish va sayohatchilarga o‘z tajribalarini boyitish imkonini beradi. Gastronomik turizm sohasidagi lingvistik tadqiqotlar esa bu sohaning rivojlanishini, uning terminologiyasini standartlashtirish va aniq ifodalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Hall, C. M., & Mitchell, R. (2005). Food Tourism Around the World: Development, Management, and Markets. Butterworth-Heinemann.

2. Hjalager, A. M. (2002). A typology of gastronomy tourism. Tourism Review, 57(3), 33-47.

3. Santich, B. (2004). The Role of Gastronomy in Tourism Development. Tourism and Hospitality Research, 5(3), 223-232.

4. Richards, G. (2002). Gastronomy: An essential ingredient in tourism production and consumption. Tourism Review International, 6(3), 195-198.

5. Bessiere, J. (1998). Local Development and Heritage: Traditional Food and Tourism in Rural Areas. Sociologia Ruralis, 38(1), 21-34.

6. Acar, M.S., (1996). Qassob hayvon go'shti va tovuq go'shtidan tayyorlangan doner kaboblarining mikrobiologik sifatini qiyosiy tekshirish, Istanbul universiteti, Sog'liqni saqlash fanlari Oliy maktabi, Sog'liqni saqlash bo'limi, PhD dissertatsiyasi, Istanbul.

7. Aqgol, Y., (2012). Gastronomiya turizmi va Turkiyaga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlarning gastronomiya tajribalarini baholash, Mersin universiteti, Ijtimoiy fanlar instituti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi bo'limi, magistrlik dissertatsiyasi, Mersin.

“MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA TASVIRIY VOSITALARNING QO‘LLANISHI

Erkinov Ma’murjon
Namangan muhandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti

Mehrobdan chayon— o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman birinchi marta 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzui 19-asr hodisalari— „xon zamonlari“ davridagi o‘zboshimchaliklarni ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan.

Asarni „Mehrobdan chayon“ deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh— sajdagohdan chiqqan, o‘sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo‘y, e’tiqodsiz kishilarga ishoradir.

Anvar bilan Ra’noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslar tomonidan yozuvchining jiddiy yutug‘i deya hisoblanadi. Asar uzoq yillar davomida juda ko‘p marotaba qaytadan nashr etilgan. Jumladan 1994-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan O‘tkan kunlar bilan bir kitobda 602 betli 60 000 nusxada, 2016-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 512 betli yumshoq muqovada, 2008 va 2018-yillarda Sharq nashriyoti tomonidan 288 betli qattiq muqovada nashr etilgan.

„Mehrobdan chayon“ romanida xonliklar davri zug‘umi muayyan darajada sezilsa ham, adibda goho tarafkashlik mayllari ko‘rinadi. Adib amalda realizm mavqeida turgan tarixiy haqiqatni mumkin qadar haqqoniy ifodalashga intilgan. Romanda muallif yengil hazil-mutoyiba, kulgi-yumor, piching, kinoya-kesatiq, hajv orqali Solix maxdum tabiatiga xos „maqtab bo‘lmaydigan“ xususiyatlarni batafsil ko‘rsatadi. Bunday xususiyatlarning ichki va tashqi ijtimoiy ildizlarini ham ochadi. Mehrobdan Chayon, o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutgan asar bo‘lib, Mirza Muhammad Aminning "Mehrobdan Chayon" asaridagi tasviriy vositalar va adabiy iqtiboslar haqida gapiradigan bo‘lsak, quyidagi jihatlarni keltirish mumkin:

1. Tasviriy vositalar

Mehrobdan Chayon asarida tasviriy vositalar, jumladan, simvolizm, metafora, taqqoslash va tafsilotli tasvirlar keng qo‘llanilgan. Bunda autor o‘z voqealarini, obrazlarini va ruhiy holatlarni o‘quvchiga aniq va jonli tarzda etkazish uchun quyidagi tasviriy usullardan foydalanadi:

- Metafora va taqqoslash: Asar davomida inson ruhiy holatlari va voqealarning ta’siri tasvirlashda metaforalar (masalan, "ko‘zlaridagi yashin", "yurakdagi yangilik" kabi) faol ishlatiladi. Bunday tasvirlar o‘quvchiga hodisalar va obrazlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

- Tafsilotli tasvirlar: Asarda joy va holatlarni tafsilotli tarzda tasvirlash orqali o‘quvchiga har bir sahna va voqea haqidagi tasavvurni jonlantirishga erishiladi. Shuningdek, bu usul orqali personajlarning ichki dunyosini yoritish mumkin bo‘ladi.

- Simvolizm: Asardagi ayrim elementlar (masalan, Chayon yoki Mehrobdan) simvolik ma'noga ega bo'lib, ular turli xil ma'nolarni anglatadi va asar orqali ko'p qatlamli yoritiladi. Chayon, masalan, xavf, o'lim, yoki shafqatsizlikni ramzlash mumkin.

2. Adabiy iqtiboslar

Mehrobdan Chayon asarida bir nechta adabiy iqtiboslar va allusiyalar mavjud, ular o'quvchiga ko'proq ma'lumot va chuqurroq tushuncha olish imkoniyatini beradi. Iqtiboslar orqali Mehrobdan Chayon ko'p hollarda o'z davrining adabiy an'analari va falsafiy qarashlariga murojaat qiladi. U asarda shakllangan umumiy ma'naviy g'oyalarni qisman qadimgi adabiyotdan, xususan, o'zbek klassik adabiyotidan iqtiboslar keltirish orqali mustahkamlaydi. Bu orqali u adabiyotdagi doimiy qadriyatlarni va ulardan o'rganilgan saboqlarni voqealarga tatbiq qiladi.

Misol uchun:

- Iqtiboslar va referensiyalar: Asarda ko'plab arabcha yoki forscha iqtiboslar uchraydi, bu esa o'quvchiga nafaqat tarixiy, balki madaniy o'zgarishlarni va vaqt o'tgan sari o'zgarib boradigan inson ruhiyatini tushunishga yordam beradi.

Xulosa. "Mehrobdan Chayon" asarida tasviriy vositalar va adabiy iqtiboslar asar mazmunini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Adabiy iqtiboslar asarning ma'naviy qatlamlarini oshirib, o'quvchini o'z zamonasi va o'tmish bilan bog'lashga yordam beradi. Tasviriy vositalar esa voqealarning hissiy va ruhiy tasvirini aniqroq etkazish orqali o'quvchi qalbida chuqur iz qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI:

1. https://kitoblardunyosi.uz/mehrobdan-chayon-lotin
2. Mirza Muhammad Amin – Mehrobdan Chayon
3. Abdulla Qodiriy – O'tkan kunlar
4. Sulaymonov Shukur – O'zbek adabiyoti uslubi
5. Sulaymonov Shukur – O'zbek adabiyoti uslubi
6. Maqsuda Ziyodullayeva – O'zbek adabiyotida tasviriy vositalar
7. Shodiya Pirmatova – O'zbek adabiyotida obraz va tasvir
8. Qobilov Muhammad – Adabiyotshunoslik asoslari

JADIDALAR BIZNING MILLIY G‘URURIMIZ

G‘aniyeva Ruxshona
Samarqand davlat chet tillari instituti Payariq xorijiy tillar fakulteti xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo ‘nalishi 2302-guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadidlar haqida so ‘z borar ekan , ularning harakatlari , xalqni savodli qilish , madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun qilgan sa'y- harakatlari bayon qilinadi . Ushbu harakatlarning yetakchilari , jumladan; Mahmudxo ‘ja Behbudiy , Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat , Abdulla Qodiriy , Is'hoqxon To ‘ra Ibrat Rossiya imperiyasi bosimi ostidagi o ‘zbek xalqining madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilganlari haqida so ‘z boradi .*

Kalit so‘zlar ; *Jadidlar , jadidchilik harakati , Abdulla Avloniy , Behbudiy , Fitrat , Munavvarqori Abdurashidxonov , Abdulla Qodiriy.*

Annotation: *This article discusses the Jadids, their activities, and their efforts to promote literacy, cultural, and social progress among the people. It highlights the leaders of this movement, including Mahmudkhoja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidkhonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, and Is'hoqkhon To'ra Ibrat, and their contributions to the cultural and social development of the Uzbek people under the pressure of the Russian Empire.*

Keywords: *Jadids, Jadidism movement, Abdulla Avloni, Behbudi, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidkhonov, Abdulla Qodiriy.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о джадидах, их деятельности и усилиях, направленных на повышение грамотности, культурный и социальный прогресс народа. Подчеркивается роль лидеров этого движения, таких как Махмудходжа Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, Абдулла Кадыри и Исхакхон Тура Ибрат, в культурном и социальном развитии узбекского народа под давлением Российской империи.*

Ключевые слова: *джадиды, движение джадидизма, Абдулла Авлоний, Бехбудий, Фитрат, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдулла Кадыри.*

Jadid - bu so‘zni eshitishimiz bilan yuragimizda o‘zgacha his - tuyg‘ular junbushga keladi . Jadid deganda ko‘z o‘ngimizda o‘z jonini xavf ostiga qo‘yib , o‘zbek millatining yuksalishi uchun jon - jaxti bilan harakat qilgan insonlar gavdalanadi . Jadidlar harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida avj olgan bo‘lib , ularning maqsadlari Turkiston xalqi ya'ni o‘zbek millatining dunyoqarashini yaxshilash , ilm - fan taraqqiyotini yuksaltirish , yangi maktablar ochish , ma ' rifatga yangicha yondashuvlarni targ‘ib qilishlardan iborat . Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asr oxirlarida , Rus imperiyasining musulmonlar yashaydigan hududlarga ta'siri , zulmi kuchayishi orqali vujudga kelgan . Bu kabi ta'sirlarni qalami o‘tkir yozuvchi O‘tkir Hoshimovning " Ikki eshik orasi " romanida ko‘rish mumkin . Bu asarda Robiyaning otasi Jo‘raqulov o‘qituvchi bo‘ladi va o‘sha paytlar maktab kamligi sababli Robiyaga yozishni patnisning orqa tarafiga yozib o‘rgatadi va keyinchalik u maktab

qurmoqchi bo‘ladi , lekin bu xabar yuqoridagilarning qulog‘iga yetgandan keyin unga tur xil ayblovlar qo‘yib , " xalq dushmani " deb tuhmat asosida qamashadi . Bundan tashqari kimning uyidan yo ilmiy , yo diniy kitob topilsa , u ham qamalgan . Ushbu asarda yana bir tahqirlanishlarning na 'munasini ko‘rishimiz mumkin , o‘sha paytlarda urushga ketganlarga ozuqa yetkazib berish uchun , mahalliy aholi tinmay ishlaganlar , asardagi qahramon Umar zakunchi Olimjonni buyurgan ishini qilmaganligi uchun o‘laskidek qilib kaltaklaganlari ham bu zulmdir . Yuqoridagi tahqirlanishlar orqali junbushga kelgan jadidlarimiz eski hayot tarzini , jamiyatning savodsizligini va jihodni yengish hamda ilm - fan , modernizm va ijtimoiy yangiliklarni ommaga joriy qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishadi .

Jadidlar o‘z maktab tizimini yaratish orqali eski madrasalar tizimiga qarshi chiqadilar va yangi usul maktablari ya'ni " jadid maktablari" o‘quvchilarga ilm- fan , matematika , tabiiy fanlar , adabiyot va yangi g‘oyalarni o‘rganishga qaratgan edilar . Jadid maktablarida , arab alifbosi o‘rniga lotin alifbosi o‘rgatila boshlanadi . Jadid maktabi birinchi bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) tomonidan yo‘lga qo‘yilgan . U Samarqandda 1913-yilda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. Behbudiy ochgan maktabda , asosan zamonaviy fanlarni diniy ilmlar bilan o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan . O‘zbek jadidchilik harakatining peshqadam arbobi Behbudiy bundan tashqari " Samarqand " gazetasi , " Oyna " jurnalini nashr qiladi va bu nashr orqali milliy uyg‘onishni , dunyoqarashni kengaytirish va o‘z g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qilibgina qolmay , xalqni uyg‘otishga , ilm olishga chorlaydi . Mahmudxo‘ja Behbudiyning eski va yangi qarashlarning to‘qnashuvi , savodsizlikning oldini olish va jaholatning ayanchli oqibatlarini aks ettirgan asarlaridan biri " Padarkush " (Ota qotili) drammasidir . Bu asarda o‘g‘ilning johilligi , botir tarbiya va savodsizlikning salbiy oqibatlari ochib berilgan . Yuqorida ta' kidlaganimizdek , eski qarashlar orqali o‘z umriga zomin bo‘lgan otani ko‘rishimiz mumkin. Bularning barchasi savodsizlik sababli ro‘y bergan voqea - hodisalardir.

O‘zbek jadidchilik harakatining taniqli vakillaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) Turkiston o‘lkasida milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilib , yangi usul maktablarini tashkil etishga va xalqni savodli qilishga katta hissa qo‘shgan . Munavvarqori yangi usul maktablarini tashkil etishga kirishadi va birinchi maktab 1901 - yilda Toshkentda ilk yangi usuldagi maktabni ochdi. Munavvarqori nafaqat maktab ochibgina qolmay , balki " Xurshid " , " Najot " gazetasi , " Oyina " jurnalini nashr ettirish orqali jamiyatning savodli bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Munavvarqori ulkan ishlari bilan Turkistonning ijtimoiy muammolari , milliy uyg‘onish , ayollarning ta' limit kabi ko‘zga ko‘rinadigan muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Jadidchilik harakatining yana bir namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy (1878 - 1934) o‘z faoliyati bilan jamiyat hayoti uchun manfaatli bo‘ladigan ishlar , jumladan; yangi usul maktab ochishi , o‘z asarlari " Turkiy Guliston yoxud axloq " , " Adabiyot yoxud milliy she'rlar " ,"Maktab guli " kabi asarlari orqali jamiyatni uyg‘onishga jalb qilishi , " O‘qituvchi" , "Turon " gazetalarini nashr ettirish bilan esa jamiyatdagi muammolarni , tarbiya masalalarni yoritishi orqali jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan jadidchilik

harakatining vakillaridan biri hisoblanadi.Abdulla Qodiriy (1894- 1938) nafaqat o‘zbek romanchiligining asoschisi , balki jadidchilik harakatining faol a'zolaridan biri hisoblanadi . Bundan tashqari , Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida jamiyatdagi eski urf - odatlar va jaholatni havf qilish orqali ijtimoiy muammolarga e' tibor qaratgan , hamda u o‘z asarlari orqali xalqni savodsizlikka , milliy ongni va madaniyatini rivojlantirishga chaqirgan .

Jadidchilik harakatida ko‘plab adiblar , yozuvchilar o‘z hissasini qo‘shgan va sovet tuzumi davrida ularning barchasi " millatchi ", " xalq dushmani " deb qoralashadi. Yillar o‘tgandan so‘ng mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng , jadidlarning qilga ishlari ko‘rib chiqilib , ularning milliy uyg‘onish harakati ulkan e' tirofga loyiq deb topiladi va barchasi oqlanadi . Jadidlar o‘z millatning farovonligi va ravnaqi uchun kurashgan fidoyi sifatida bizning milliy g‘ururimiz hisoblanadi va ularning tarixiy merosi mustaqil O‘zbekistonning bugungi va kelajakdagi rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning g‘oyalari bizni yangi marralarga erishish uchun ilhomlantiradi va milliy merosimiz, qadriyatlarimizni asrashga undaydi . Biz shu kabi buyuk allomalarimizning avlodlari ekanligimizdan nafaqat faxrlanishga , balki ular kabi shijoatli bo‘lishga undaydi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Jadidchilik ; islohot , yangilanish ,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash . Davriy to‘plam.

2.O‘tkir Hoshimov ; " Ikki eshik orasi "

3.Mahmudxo‘ja Behbudiy ; " Padarkush " drammasi

NEYROMARKETING PR FAOLIYATINING INNOVATSION VOSITASI SIFATIDA

Abdurahimova Muhabbat Rustamov qizi
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Neyromarketing tushunchasi inson miyasining reklama, marketing signallari va brendlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish orqali, mijozlar qaror qabul qilish jarayonlarini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. U nafaqat marketing strategiyalarini, balki PR kampaniyalarini ham samarali tarzda yo'naltirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada neyromarketing usullari orqali qanday qilib kompaniyalar o'z mijozlarining sezgi va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunib, ularni to'g'ri yo'naltirishlari mumkinligi va uning PR sohasida qo'llanilishi* haqida bayon etilgan.

Kalit sozlar: *Neyromarketing, PR, reklama, marketing, raqamli texnologiyalar, strategiya, target, brend, iste'molchi, psixologiya.*

XX asr oxirlarida va XXI asr boshlarida paydo bo'lgan neyromarketing tushunchasi psixologiya, marketing va neyrofiziologiya kabi sohalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Biroq, uning asoslari ancha oldin psixologiya va kognitiv ilm-fan doirasida shakllangan. Masalan, Pavlovning reflekslar bo'yicha ishlari va 1950-yillarda neyromarketingning ilk shakllari bo'lgan eksperimental psixologik tadqiqotlar insonning xulq-atvorini tushunishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar va ilmiy tadqiqot usullarining rivojlanishi natijasida miya faoliyatini aniqlash uchun EEG (elektroensefalografiya), fMRI (funktsional magnit-rezonans tomografiya) kabi ilg'or texnikalar qo'llanila boshlandi. Bu metodlar inson miyasining reklama yoki marketing stimullari bilan ta'sirlashuvini aniqlashda eng samarali vositalardan biri sifatida foydalaniladi.

Aytish joizki, neyromarketing nafaqat marketing strategiyalarini, balki PR kampaniyalarini ham samarali tarzda yo'naltirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Neyromarketing usullari orqali kompaniyalar o'z mijozlarining sezgi va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunib, ularni to'g'ri yo'naltirishlari mumkin. PR sohasida neyromarketing texnologiyalari imij yaratish va jamoatchilik bilan munosabatlarni boshqarish jarayonida qo'llaniladi. Masalan, kompaniyaning imiji, mahsulot dizayni, brend qiyofasi yoki reklama roliklari mijozlarda qanday hissiyotlarni uyg'otishini tahlil qilish orqali, PR strategiyalarini yanada takomillashtirish mumkin.

Ilgari marketing sohasida asosan ongli qaror qabul qilish jarayonlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, neyromarketingda ongsiz jarayonlar ham chuqur o'rganiladi. Bir qator tadqiqotlar ko'rsatadiki, odamlarning xarid qilish qarorlari ko'pincha ongsiz ravishda amalga oshiriladi, ya'ni ular brendlarga yoki mahsulotlarga nisbatan his-tuyg'ular va intuitiv fikrlarga asoslangan holda harakat qiladilar. Neyromarketing bu qaror qabul qilish jarayonlarini aniqlash orqali marketing strategiyalarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Marketingda his-tuyg'ular va sezgilar kuchli vositalar hisoblanadi, chunki iste'molchilar ko'pincha his-tuyg'ular asosida xarid qiladilar. Neyromarketing bu his-

tuyg‘ularning miyada qanday shakllanishini tahlil qiladi va marketing kampaniyalarida qaysi his-tuyg‘ularni uyg‘otish kerakligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, reklama kompaniyalarida qo‘llaniladigan ranglar, musiqa yoki vizual tasvirlar mijozlar ongida qanday hissiyotlarni uyg‘otishi neyromarketing orqali o‘rganilishi mumkin.

Neyromarketingning asosiy tamoyillaridan biri bu iste’molchi xulq-atvorini oldindan bashorat qilishdir. An’anaviy marketingda esa ko‘p hollarda iste’molchi xulq-atvoriga asoslangan statistik ma’lumotlarga tayanilsa, neyromarketing miya faoliyati va sezgilar orqali iste’molchi qanday qaror qabul qilishini oldindan bilishga imkon beradi. Bu esa marketing strategiyalarini mijozning ehtiyojlariga yanada moslashtirish imkoniyatini yaratadi. Marketing va neyromarketingning integratsiyasi zamonaviy marketing jarayonlarida qator yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Ushbu tendensiyalar marketingning evolyutsiyasi va mijozlar bilan ishlash usullarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Neyromarketing va marketingning birgalikdagi ishlashi orqali iste’molchilarning individual xatti-harakatlarini chuqur o‘rganish va ularga mos ravishda mahsulot yoki xizmatlar taklif qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Personalizatsiya zamonaviy marketingning eng dolzarb tendensiyasidir. Neyromarketing metodlari orqali iste’molchi nima istayotganini va qaysi reklama elementi uning e’tiborini tortishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, marketingda individual talablarga moslashtirilgan kontent, reklama va mahsulotlar ishlab chiqilishi marketingning samaradorligini oshiradi.

Hozirgi zamonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida marketingda interaktivlik kuchaymoqda. Neyromarketing bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi, chunki iste’molchilarning onlayn platformalarda qanday xatti-harakat qilishi ularning miya faoliyati bilan bog‘liqdir. Masalan, internet reklamalari, veb-sayt dizayni, ijtimoiy tarmoqlardagi reklama postlari iste’molchilarning ongsiz reaktsiyalarini hisobga olgan holda tayyorlanishi marketing tendensiyasiga aylanmoqda. Raqamli reklama iste’molchining e’tiborini tortuvchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi va neyromarketing bu yo‘nalishda yangi metodlarni tatbiq etishga imkon yaratmoqda.

Jumladan, emotsional marketing tendensiyasi iste’molchilarning brendga bo‘lgan his-tuyg‘ularini boshqarishga asoslanadi. Neyromarketing texnologiyalari mijozning his-tuyg‘ularini tahlil qilish orqali marketing kampaniyalarini yanada chuqurroq individualizatsiya qiladi. Emotsional marketingda mijozlar brend bilan emotsional bog‘lanishga intiladilar, bu esa uzoq muddatli sadoqatni shakllantirishga yordam beradi. Neyromarketing orqali iste’molchida qanday emotsiyalarni uyg‘otish kerakligi aniqlanib, brend kommunikatsiyasi strategik jihatdan o‘ylab amalga oshiriladi.

Neyromarketing va marketing sintezining yana bir muhim tendensiyasi — bu sensor marketingdir. Sensor marketing mijozning sezgi organlari orqali uning ongsiz qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sir qiladi. Ushbu yo‘nalishda brendlar hid, tovush, vizual tasvirlar, va hatto ta’m orqali mijozlar bilan interaktiv muloqot qiladi. Masalan, do‘konlarda o‘rnatilgan yoqimli hidlar iste’molchining xarid qilish qaroriga ta’sir qiladi. Neyromarketing bu jarayonlarni chuqur o‘rganib, sezgilar orqali marketing kampaniyalarini tashkil etishda foydalaniladi.

Shu narsa aniqki, neyromarketing vositalari orqali ishlab chiqilgan marketing strategiyalari iste'molchilarning yashirin ehtiyoj va xohishlarini aniqroq tushunishga imkon beradi. Bu esa kompaniyalarga mijozlar talablariga mos strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Marketing kampaniyalari miya faoliyatiga asoslanib ishlab chiqilganida, ularning samaradorligi oshadi.

Ayrim kompaniyalar neyromarketing orqali iste'molchilarning sezgi va hissiyotlariga aniqroq ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Iste'molchining brendlarga nisbatan his-tuyg'ularini tahlil qilish reklama materiallarini optimallashtirish va reklama xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi. Neyromarketing reklamalarda qaysi elementlar iste'molchiga ta'sir qilishini aniq ko'rsatib beradi va bu orqali reklama samarasini oshiradi.

Bugungi kunda neyromarketing PR texnologiyalari samaradorligini oshirishda bir qancha foydali jihatlarni taqdim etadi va ular orqali brendlar mijozlar bilan yanada chuqurroq bog'lanish imkoniga ega bo'ladilar. Neyromarketing PR xabarlarining to'g'ri auditoriyaga qanday ta'sir qilishini o'rganib, brendlarni kerakli segmentlarga samarali yo'naltirishga imkon beradi. Masalan, yoshlar va o'rta yoshdagi iste'molchilar turli xil xabarlarni turlicha qabul qiladilar. Neyromarketing bu segmentlar uchun qanday xabarlar samarali ekanligini aniqlash orqali PR kompaniyalarini yanada aniqroq yo'naltiradi.

Asosiysi, neyromarketing brend va iste'molchi o'rtasida chuqur emotsional bog'lanishni yaratishga yordam beradi. PR texnologiyalari orqali brendlar iste'molchilar bilan hissiy aloqaga kirishadi, bu esa brendga bo'lgan sadoqatni oshiradi. Neyromarketing orqali PR xabarlarining qanday hissiy javoblar uyg'otishini bilish va shu javoblarni ijobiy yo'nalishda boshqarish mumkin.

PR faoliyatining asosiy vazifalaridan biri bu brendning ijobiy reputatsiyasini shakllantirish va uni boshqarishdir. Neyromarketing orqali esa brendga nisbatan iste'molchilarning umumiy munosabatini tahlil qilish va shu asosda reputatsiyani boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Neyromarketing PR faoliyatida brendning ijobiy imijini yaratishga yordam beradi va uning doimiy ravishda saqlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalarini targ'ib qilish: Ikkala kompaniya ham ijtimoiy mas'uliyat kompaniyalarini keng yoritish orqali mijozlar e'tiborini jalb qilish va ularning ijobiy munosabatini shakllantirishga intiladi. Ijtimoiy mas'uliyat kampaniyalari jamoatchilik orasida brendning ijobiy imijini mustahkamlashga yordam beradi. Brend imijini yaxshilash va inqirozga qarshi kommunikatsiya: PR texnologiyalari orqali kompaniyalar inqiroz holatlarida brend imijini tiklash va potentsial zararlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Neyromarketing va PR texnologiyalari birgalikda qo'llanilganda iste'molchilarning ong ostidagi hissiy javoblarini samarali boshqarish va brendning maqsadli auditoriya bilan yanada chuqur aloqalar o'rnatishga yordam beradi. PR texnologiyalari iste'molchilarning e'tiborini tortish, ularni jalb qilish va ularga ijobiy ta'sir ko'rsatishda asosiy rol o'ynaydi, neyromarketing esa iste'molchilarning ongsiz qaror qabul qilish jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Aytish joizki, neyromarketing va PR texnologiyalari birgalikda qo'llanganda, iste'molchilar bilan muloqotda yanada ko'proq hissiy, kognitiv va xulqiy ta'sir ko'rsatish

mumkin bo‘ladi. PR texnologiyalari orqali brend o‘z imijini kuchaytirib, o‘z faoliyatini keng auditoriyaga yetkazadi, neyromarketing esa ushbu xabarlarning iste’molchilar ongiga va ong ostiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.

PR texnologiyalarida brend hikoyasi yaratish va uni keng ommaga chiroyli qilib yetkazish muhim ahamiyatga ega. Neyromarketing PR xabarlari orqali iste’molchilarda qanday hissiy javoblar shakllanishini tahlil qilib, brend xabarlarini optimallashtirishga yordam beradi. Masalan, brendlar fMRI yoki EEG texnologiyalaridan foydalangan holda reklama roliklari va PR kampaniyalarining qanday hissiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlashi mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida, PR xabarlariga emotsional jihatdan kuchliroq tasvirlar yoki so‘zlar qo‘shilib, iste’molchilarni yanada ko‘proq jalb qiladigan kampaniyalar ishlab chiqiladi.

PR texnologiyalarida kontent marketingining roli katta. Yaxshi ishlab chiqilgan kontent iste’molchilarda ishonch uyg‘otishi va brendga sodiqlikni oshirishi mumkin. Neyromarketing usullari PR kontentining samaradorligini tahlil qilishda foydalaniladi. Masalan, brend maqola, blog yozuvlari yoki vizual kontent orqali iste’molchilarning diqqatini jalb qilishni maqsad qilgan bo‘lsa, eye-tracking texnologiyasi bu kontentning qaysi qismlari eng ko‘p e’tiborni tortishini aniqlashga yordam beradi. Shunga ko‘ra kontent dizayni yoki yozma ma'lumotlar optimallashtiriladi, bu esa PR kampaniyasining samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy media PR texnologiyalarining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, u keng auditoriyaga tezkorlik bilan yetib borish imkonini beradi. Neyromarketing ijtimoiy mediada PR xabarlari va reklama postlarining ta’sirini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladigan kontentlarning iste’molchilar emotsiyalariga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini fMRI yoki GSR texnologiyalari yordamida aniqlash mumkin. Shu orqali ijtimoiy tarmoqdagi PR kampaniyalarining qanday elementlari kuchliroq hissiy javobni keltirib chiqarayotgani aniqlanib, PR strategiyalari takomillashtiriladi.

PR kompaniyalari doirasida tashkil etiladigan ko‘rgazma va tadbirlar brend bilan jonli muloqot qilish imkonini beradi. Neyromarketing usullari bu tadbirlar davomida mijozlarning brendga qanday reaksiyalar berayotganini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, tadbirlarda yoki ko‘rgazmalarda EEG va GSR texnologiyalari orqali mijozlarning hissiy javoblarini kuzatish orqali qaysi ko‘rgazma yoki mahsulot taqdimoti elementlari ko‘proq qiziqish uyg‘otishini aniqlash mumkin. Shundan so‘ng, brend o‘z PR kampaniyalarini yanada kuchliroq interaktiv va hissiy bog‘lovchi tarkib bilan boyitishi mumkin bo‘ladi.

Neyromarketing vositalari PR kampaniyalarida brendning imijini ijobiy tarzda shakllantirishda yordam beradi. PR orqali iste’molchilar ongiga ta’sir qiluvchi xabarlar tarqatilib, neyromarketing orqali ularning ongsiz hissiy reaksiyalari o‘lchanadi. Masalan, Next va Makro brendlari uchun reklama roliklari va PR kampaniyalarida maqsadli auditoriyaga emotsional jihatdan qiziqish uyg‘otuvchi kontentni yetkazish samaradorligi fMRI orqali o‘lchanishi mumkin. Bu metod yordamida PR orqali yaratilgan brend imiji uzoq muddatli iste’molchi sodiqligini ta’minlaydi. Neyromarketing usullari PR texnologiyalari orqali etkazilayotgan xabarlarga qo‘shimcha hissiy ta’sir qo‘shib, ularning samaradorligini

oshiradi. Bu iste'molchilarning brend bilan bog'lanishini kuchaytiradi va brendga sodiqlikni shakllantiradi.

Umuman olganda, neyromarketing PR kampaniyalarini optimallashtirishga yordam beradi. Targetlangan reklama va PR materiallari maqsadli auditoriyaning ongsiz hissiyotlariga asoslangan holda ishlab chiqiladi, bu esa PR kampaniyalarining samaradorligini oshiradi. Brendning mijoz bilan kuchli aloqasi: Neyromarketing orqali PR kampaniyalari yanada shaxsiylashtiriladi, bu esa mijozlar va brend o'rtasidagi aloqani kuchaytirib, uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiradi.

Neyromarketing va PR texnologiyalarining integratsiyasi brendlarning iste'molchilar bilan chuqurroq hissiy bog'lanish o'rnatishi va iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatishi uchun juda muhimdir. Ushbu integratsiya orqali brendlar o'z xabarlarini yanada samarali tarzda yetkazish, sotuvlarni oshirish va auditoriyaning brendga sodiqligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Neyromarketingning nazariy asoslari PR va marketing sohalarida innovatsion yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Ushbu fan vositalari orqali iste'molchilarning ongsiz qarorlariga ta'sir ko'rsatish va brend bilan bog'liq hissiyotlarni boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Neyromarketing PR va marketing strategiyalarini yanada individualizatsiya qilish, samaradorligini oshirish va uzoq muddatli sadoqatni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu soha vakillari ish jarayonlarida PR texnologiyalarini samarali qo'llash orqali brendlar iste'molchilar bilan yanada chuqurroq va ongli aloqa o'rnatishga erishadilar.

Xulosa qilib aytganda, neyromarketing – bu iste'molchilar miya faoliyatini o'rganish orqali sotib olish qarorlariga qanday omillar ta'sir qilishi haqida ma'lumot olishni maqsad qilgan fan. Bu yondashuv marketingga yangi qarashlarni olib keladi, masalan, insonlarning hissiyotlari va ong osti reaktsiyalariga asoslangan marketing kampaniyalarini ishlab chiqishdir. Neyromarketing vositalari PR xabarlarining omma tomonidan qanday qabul qilinishi va iste'molchi ongida qanday taassurot qoldirishi haqida aniq ma'lumot beradi. Bu esa brendning reputatsiyasini shakllantirish, auditoriya bilan samarali muloqot qilish va uzoq muddatli sadoqatni yaratish uchun strategik PR kampaniyalarini yaratishga yordam beradi hamda u PR texnologiyalariga ta'sir qilib, turli brendlarga o'zlarining kommunikatsion strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Neuromarketing Science and Business Association (NMSBA). Neuromarketing Theory & Practice Journal.
2. Keller, K. L. (2013). Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. Pearson Education.
3. Schultz, D. E., & Barnes, B. E. (1995). Strategic Advertising Campaigns. NTC Business Books.
4. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson.
5. Ariely, D. (2008). Predictably Irrational: The Hidden Forces That Shape Our Decisions. HarperCollins.

6. Dooley, R. (2011). Brainfluence: 100 Ways to Persuade and Convince Consumers with Neuromarketing. Wiley.

7. Cialdini, R. B. (2006). Influence: The Psychology of Persuasion. Harper Business.

8. Lindstrom, M. (2010). Buyology: Truth and Lies About Why We Buy. Crown Business.

9. Peck, J., & Childers, T. L. (2003). To Have and to Hold: The Influence of Haptic Information on Product Judgments. Journal of Marketing, 67(2), 35-48.

10. Damasio, A. R. (1994). Descartes' Error: Emotion, Reason, and the Human Brain. Putnam Publishing.

11. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. Farrar, Straus and Giroux.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODS.

Badalova Zulfiya Kutbitdinovna
Teacher of English language Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine,Animal Husbandry and Biotechnology.
Khujaakhmatova Qunduzoy Bakhtiyarovna
Teacher of English language Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology.

Annotation: *The article is devoted to the prospects for the development of methods of teaching English to students of non-philological fields. The methods, new forms, ways and techniques of teaching for effective improvement of the level of the studied material by students are presented.*

Keywords: *perspective, effectiveness, teaching methods, professional competence, teaching technology.*

Аннотация: *Статья посвящена перспективам развития методики обучения английскому языку студентов не филологического направления. Приведены методы, новые формы, способы и приемы преподавания для эффективного повышения уровня изучаемого материала учащимися.*

Ключевые слова: *перспектива, эффективность, методы обучения, профессиональная компетентность, технология преподавании.*

The culture of each language being studied is presented in textbooks and teaching aids and is interesting to students, therefore, cultural studies methods can be universal for learning languages. Of course, it is necessary to make methodological developments that take into account the peculiarities of language and culture. The cultural studies methodology is good because it allows the teacher to combine different methods and different forms of work in the process of language learning. The grammatical translation method can be used here when writing or translating information about the area or the biography of a great composer or artist. Audiovisual and audio–lingual methods can be used when listening to melodies or songs of the composer, the communicative method can be used in dialogues and skits, games and role-playing situations. In the process of teaching languages, it is necessary to familiarize English teachers with the methods of teaching Western languages, because students compare the methods of teaching those and other languages, and very often English lessons may seem boring and uninteresting to them compared to a German or French lesson; therefore, now we need to pay great attention to improving the skills of English language teachers, familiarizing them with the methods of Western languages, with teaching technologies, so as not just to transfer modern teaching methods and technologies to English language teaching, but to take those innovations from other methods that will be acceptable in teaching English and will not differ sharply from the methods, on the contrary, the methods and technologies used will be of interest to

students and will complement the methods of teaching Western languages that they already know, They will give you the opportunity to compare independently not only languages and cultures, but also teaching methods.

An example is modern learning technologies, which are now not only fashionable, but also such a consolidating tool that combines methods of teaching English and other foreign languages. After all, the project method or collaborative learning, distance learning or interactive learning methods – all of them are currently manifested and working in foreign language lessons and classes.

Of course, teachers should take into account the specifics of teaching each language in comparison with the native language of students, but the forms of classes, technologies may be similar and familiar to students, which allows the teacher not to waste time explaining the work in one way or another.

It is the flexible combination of different methods of teaching English based on the cultural aspect, used by the teacher in the classroom together with a variety of teaching technologies, that will contribute to the motivation of students and effectiveness in mastering languages in the future. A skillful combination of classroom and extracurricular work in teaching English and culture during the lesson with work in English language circles after lessons, participation in events, competitions, festivals related to the language being studied and organized by various institutes and organizations, systematic professional development of English teachers together with teachers and teachers of other foreign languages, will bring great it benefits not only in the field of effective language teaching, but also in the field of cooperation between teachers of different foreign languages, in the exchange of methods and technologies, experience, views on certain problems that arise in the process of learning languages.

We talk all the time about learning in collaboration, we use this method in the process of teaching a language in the classroom, but we forget about cooperation between teachers of different foreign languages, different subjects, we do not exchange our observations, ideas, we do not go to each other's classes, we do not talk about what we are doing and what we are We would like to do better and how. No methods, even the most modern, seemingly proven and effective ones, will help us, teachers of English and other foreign languages, if we do not cooperate primarily with each other, if we do not hold joint seminars and forums, if the methods and technologies that we use in the classroom will rather separate our students should not be united, and they will not create a single "image of the world" for them. We must strive to ensure that our students want to learn as many languages and cultures as possible, so that they see the example of cooperation between teachers of different languages as an opportunity to effectively master not one, but two, three or more languages being studied at educational establishment. If we want to live in a world united by globalization and the Internet, we must not only cooperate with each other, but also teach this cooperation to our students.

Cooperation based on languages and cultures will be the best and most effective method of teaching English. How to make an English lesson interesting, emotional and at the same time as effective as possible? Success depends on many factors - on the professional competence of the teacher, on the ability to be reflective and even on human

CubeSat - this is the format small (super small) artificial earth satellites for space exploration, with dimensions of 10×10×10 cm with a mass of no more than 1.33 kg. The creation of CubeSats became possible thanks to the development microminiaturization and the use of general industrial microelectronics to create space satellites. After the appearance of the CubeSat format, an even smaller format appeared pocketcube weighing up to 250 gr. and size 5×5×5 sm.



Fig.1. GeneSat-1

CUBSAT satellites are a rapidly developing area of the global space industry, demonstrating cost -effective and affordable solutions such as:

- technology demonstrations
- testing new devices/technical solutions in space
- building communication groups
- applications in the structures of the "Internet of Things"
- construction of information systems (environmental monitoring, cartography for agriculture).

Structurally, CubeSat is an aluminum frame, inside which are located:

- central processor module;
- radio channel;
- antenna-feeder devices;
- power supply system;
- batteries and charge controller;
- solar panels.

- satellite position determination system;
- a system for correcting its position.

CubeSat satellite is relevant, in particular, the signal-to-noise ratio (SNR — Signal - to - Noise) ratio at the receiver input via the downlink channel (DL — Down Link) since it is extremely important to know what SNR values can be expected at the receiver side.

$$SNR = P_t + G_t + G_r + \eta_t + \eta_r - L_r - L_t - L - L_{add} - N[dB]$$

Where N is the total thermal noise power (has a known relationship to the noise spectral density $N_0 = kT_{noise}$) in dBm (decibels per milliwatt), P_t is the transmitted power in dBm, G_t and G_r are the antenna gains on the transmitter and receiver sides, respectively (in dBi—isotropic decibels), η_t and η_r are the feeder gains of the transmitter and receiver (in dB), L_t and L_r — losses in feeders (in dB), L losses in the path of electromagnetic wave propagation in dB L_{add} — additional losses in dB.

Next, the thermal noise power is calculated:

$$N = 10lg\left(\frac{kT_{noise}B_{noise}}{10^{-3}}\right)[dBm]$$

Where k is the Boltzmann constant, $T_{noise} = T_a + T_t$ — equivalent noise temperature, T_a — sum of antenna losses and sky noise (background), $T_c = T_0(F_{sys}-1)$ is the receiver noise temperature ($T_0 = 290$ K , and $F_{sys} = 10^{\wedge}$ NF /10 is the noise factor, which can be estimated from the noise pattern (NF — noise figure) of the receiving antenna), and B_{noise} is the noise bandwidth. The noise bandwidth can be taken to be equal to the receiver bandwidth itself B, but the noise bandwidth can be estimated slightly more accurately as γ B, where γ is a constant from 1.002 to 1.57 (related to the receiver configuration).



Fig.2. Distances



Fig. 3. Expected SNRs

REFERENCES:

1. Villela T. et.al. Towards the thousandth CubeSat: A statistical overview //International Journal of Aerospace Engineering. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 5063145.

2. Qiao L., Rizos C., Dempster A. G. Analysis and comparison of CubeSat lifetime //Proceedings of the 12th Australian space conference. – Citeseer, 2013. – С. 249-260.

3. Baktur R. CubeSat link budget: Elements, calculations, and examples //IEEE Antennas and Propagation Magazine. – 2022. – Т. 64. – №. 6. – С. 16-28.

4. Ampatzoglou A., Kostopoulos V. Design, analysis, optimization, manufacturing, and testing of a 2U CubeSat //International Journal of Aerospace Engineering. – 2018. – Т. 2018. – №. 1. – С. 9724263.

5. Saeed N. et al. CubeSat communications: Recent advances and future challenges //IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2020. – Т. 22. – №. 3. – С. 1839-1862.

NAVOIY QALAMIGA MANSUB ARBAIN ASARIDA KELGAN QIT'ALAR G'OYASI

Gulrux Maxamedova Abduqahhor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy fanlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasi tayanch doktoranti tel: 97761 89 92 Email:gulruxmahamedova@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada Navoiy islom dinida qur'ondan keyin ikkinchi manba hisoblangan ilmga oid mashhur asari hisoblangan "Arbain"ning bir necha qit'asini keltirilib, ushbu hadislar g'oyasi borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Mir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, arba'in, qit 'a, sahih hadis, shafoat, odob-axloq, qirq hadis, turkiy til, a'mol,* ravzai jannat, *hamd, na't, odob-axloq, to'rtlik, nazm, janr, guvoh, saylanma hadis, an'ana, odob-ahloq, Chil hadis, forsiy, Qo 'qon qog 'ozi, turkiy, arabiy, raf, naf.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinib, suveren davlat bo'lgach, o'zining boy ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama tadqiq etish, sof islom ilmlarini tiklash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirdi. O'zbekistonda milliy davlatchilik va diniy qadriyatlarni tashkil etish jarayoni tom ma'noda mustaqillik natijasidagina o'z maqomiga ega bo'ldi. Ushbu siyosiy-huquqiy amaliyotda o'z mazmun-mohiyatini mustahkamlashning har bir yili o'z qadriga ko'ra jamiyat siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotining ortga qaytarib bo'lmas jarayoniga aylandi. "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir[24]".

Asrlar davomida o'zining salmoqli o'rni bilan adabiyotimiz tarixida yuksak o'rinni egallab kelayotgan asarlar qatorida Navoiy "arbaini" ham bor. Arbain[25] qirqta mashhur, sahih hadis [26] mazmunini she'riy vaznda, aniqrog'i, bir ruboiyda ifodalash san'atini anglatib, iste'molda qirqta saylanma hadisdan iborat hadis kitoblariga aytiladi. Ushb uslubda asar yaratish Islom olamida yaxshi bir an'anaga aylangan bo'lib, bunday asarlar oddiy xalq vakillari hadislar mazmunini oson tushunishi va xotirasida uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan.

Quyida "Arbain"ning bir necha qit'asini keltirib, hadis g'oyasi borasida fikr yuritsak:

Rahmat ozodag'akim ul olmas,
Dahr dinoru dirhamin g'amg'a.
Lek la'nat angaki qul bo'lg'ay,

[24] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil, 19 oktyabr.
[25] Izoh: Arabcha "arba'" ya'ni "qirq" so'zidan olingan.
[26] Izoh: Sahih so'zi arab-tilidan olingan bo'lib, to'g'ri, chin, sog'lom degan ma'noni anglatadi. Sahih hadis esa eng ishonchli deb hisoblangan hadis nomi. " // O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. — B. 301.

Xoh dinoru xoh dirhamg‘a[27].

Hadis g‘oyasida aniq va tiniq aytilmoqda, dinor[28] va dirham[29], umuman, boylikka hirs qo‘yish, unga qul bo‘lish, mute’ bo‘lish qoralanmoqda. Hadis g‘oyasining muddaosi poraxo‘rlikka, rishvat oluvchilarga qarshi kurashdan iborat, shunday shaxslar qattiq tanqid tig‘i ostiga olinmoqda. To‘g‘ri, halol mehnat ila qo‘lga kiritilgan boylik, bu asl boylik, unga hech kim daxl qila olmaydi. Mehnat evaziga qo‘lga kiritilgan boylik, bu chin va rost boylik, unga hech kim, hech qachon egalik qila olmaydi. Hadisning o‘ziga quloq tutamiz:

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Hazrati Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Dinorga va dirhamga qul bo‘lganlarga Allohning la’nati yog‘iladi”, dedilar[30]. Yuqoridagi g‘oyaga monand hadis quyida ham keladi va mohiyatan ancha mushtarak, ular bir-birini to‘ldiradi.

Boy emas ulki, mol kasratidin,
Ko‘rmagay foqavu talab ranjin.
Oni bilkim, Xudoy bermish anga,
Nafsi ammora tarkini ganjin[31].

Ayon bo‘ladiki, boylik mavjud mol-mulkda emas, balki nafsga va uning amriga qarshi kurashda ekan. Hadisning o‘zini eshitamiz: Abu Hurayraning rivoyat qilishicha, hazrat Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Boylik mol-dunyoning ko‘pligida emas, balki nafs ning to‘qligidandur”, deganlar[32]. Navoiy odob-axloq hadislariga ham e’tibor qaratadi, shunday hadislardan biri kulgi va uning o‘rni xususida bo‘lib, unda ushbular aytiladi:

Asru ko‘p kulmakim, o‘lar ermish,
Zindadil ko‘ngli kulgu hasratidin.
Muni har kimki bildi ko‘ngli bila,
Kulmagay o‘lsa ko‘ngli hasratidin[33].

Bu hadisda behuda kulish, ko‘p kulish, o‘rinsiz kulish odobsizlik alomati ekani, hatto andishasizlik va behayolik belgilari ham u bilan uyqash ekani oshkora aytilmoqda. Hadisning o‘zida “Ko‘p kuluvchi bo‘lma, chunki ko‘p kulish dilni o‘ldiradi” deyiladi, agar e’tibor bilan diqqat qilinsa, darhaqiqat, kulgining xillari ko‘p. Ammo qayerda va qanday holatda kulish katta madaniyat ekanini zinhor unutmaslik lozimligi talabi qat’iy qo‘yilmoqda hamda unga rioya qilish muhim jihatligi o‘z ta’kidini topmoqda[34].

Navbatdagi bir hadis onalar haqida bo‘lib, tajassum topgan ma’no-mohiyat o‘z e’tibori bilan tarbiyaning asl o‘zagini bizga anglatib beradi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam hadislariga diqqat qilaylik: “Jannat onalaringizning oyog‘i ostidadur”. Ana shu fikrlarni A. Navoiy she’rga aylantiradi:

Anolarning oyog‘i ostidadur,

[27] Ushbu hadis O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Navoiy “Arba’in”ining 3902-V – raqam va 9762 – III raqam ostidagi nusxasida to‘qqizinchi hadis sanaladi.
[28] Izoh: oltin tanga.
[29] Izoh: kumush tanga.
[30] Ushbu hadis O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Navoiy “Arba’in”ining 3902-V – raqam va 9762 – III raqam ostidagi nusxasida to‘qqizinchi hadis sanaladi.
[31] Ushbu hadis O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Navoiy “Arba’in”ining 3902-V – raqam va 9762 – III raqam ostidagi nusxasida o‘ttiz ikkinchi hadis sanaladi.
[32] Muttafaqun alayh.
[33] Ushbu hadis O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Navoiy “Arba’in”ining 3902-V – raqam va 9762 – III raqam ostidagi nusxasida o‘ttiz oltinchi hadis sanaladi.
[34] Abdulmajid Hasanxon Yahyo va Husanxon Yahyo. Navoiydan chu topqaysan navoe. – T: Hilol-nashr, 2014. – B. 40.

Ravzai jannatu jinon bog‘i.
Ravza bog‘in visolin istar esang,
Bo‘l anolar oyog‘in tufrog‘i.

Hadisda ilgari surayotgan asosiy g‘oya shundan iboratki, ya’ni onaga, tag‘in onaga va yana onaga, shundan keyingina otaga xizmat qilish jannatga kirishning asosiy vositalaridan bir ekani uqtirilmoqda. Shu sababli “Arbain”ning hamma nusxalarida har bir qit’a ustiga mazmunidan foydalanilgan hadis yozib qo‘yilgan.

Ad-dunyo mal’unatun va mal’unun ma fiyha illa zikrallohi taolo.
Dunyovu har ne andadur mavjud
Bo‘ldi haq la’nati giriftori.
G‘ayri haq zikrikim, erur zokir
Tengrining rahmati sazovori[35].

Alisher Navoiy o‘z asarini Jomiy bilan bir davrda yaratgan bo‘lib, Shoir Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she’riy usulda taqdim etadi. “Arbain” ning asosiy qismi “Sizlardan hech biringiz o‘ziga ravo ko‘rgan narsasini birodariga ravo ko‘rmaguncha, chin mo‘min bo‘lolmaydi”, degan mashhur hadisning navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo‘min ermastur, ulki iymondin
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay.
Tokki qardoshiga ravo ko‘rmas
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Tanlangan hadislarning deyarli barchasi komil inson axloqiga oid qarashlarni o‘zida aks ettirganini ko‘rishimiz mumkin. Bu hadislarda insonlar yaxshilik qilishga chorlanadi, yomon illatlardan qaytariladi, umuman olganda, ular insonning hayot va jamiyatdagi vazifasini anglatadi. Masalan, “Insonlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi tegadiganidir”, degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilda shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf’ andin.
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Etsa ko‘prak ulusqa naf’ andin[36].

Ko‘rib o‘tganimizdek, ushbu sharh orqali insonning ulusga jamiyatga xizmat qilishi ulug‘lanyapti. Umuman olganda, “Arbain” asari insonning ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu haqda shoir asarning xotima qismida aytib o‘tadi:

Erur ul Arbainning avvali hol,
Ayla bu “Arbain” bila a’mol.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ilmiy-tanqidiy tekst (nashr. P.Shamsiev). – Toshkent: Fan, 1970. – 205 b.

[35] Arba’in: Qirq hadis sharhi / So‘z boshi mualliflari va sharhlovchi: Q.Ahad, O.Mahmud. T. : Adabiyot va san’at, 1995.
[36] Arba’in / Nashrga tayyorlovchi: Karimbek va Saidbek Hasan; Sharhlovchi A.Rustam. T. Meros, 1991.

2. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (nasriy bayon muallifi: Sh.Sharirov). – Toshkent: Fan, 1984. – 197 b.

3. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 89 b.

4. Sharafiddinov. O. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1978. –B. 521.

5. G‘ulomov. Y. Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida. Kitobda: Ulug‘ o‘zbek shoiri. – Toshkent: O‘qituvchi, 1948. –B. 57.

ВАЖНОСТЬ УЛУЧШЕНИЯ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ДЛЯ УРОКОВ

Йулдошева Нилуфар Юсуфовна
Преподаватель Бухарского инновационного образовательного и медицинского университета

Аннотация: *В статье рассматривается важность улучшения предоставления электронных образовательных ресурсов для уроков.*

Keywords: *resources, informatization, technology, education, system, interactive, presentation, digital, process.*

Annotation:*This article discusses the importance of improving the provision of electronic educational resources for lessons.*

Ключевые слова: *ресурсы, информатизация, технологии, образование, система, интерактивный, презентация, цифровой, процесс.*

Annotatsiya:*Ushbu maqolada darslar uchun elektron ta'lim resurslarini taqdim etishni yaxshilashning ahamiyati muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *resurslar, informatizatsiya, texnologiyalar, ta'lim, tizim, interaktiv, taqdimot, raqamli, jarayon.*

На глобальном уровне широкая интеграция информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в различные сферы общественного развития подчеркивается как важнейший фактор развития интеллектуального потенциала. В электронной образовательной среде особое внимание уделяется формированию рефлексивных навыков студентов посредством улучшения образовательного процесса с использованием ИКТ. Особенно важным является обучение независимому мышлению и анализу, а также обогащение личного опыта студентов знаниями и навыками, полученными в ходе обучения.

Источники указывают, что основной целью информатизации образования является подготовка участников образовательной системы (педагогов, обучающихся, технического и инженерного персонала, административных и управленческих работников и т. д.) к полноценному и эффективному участию в их повседневной, социальной и профессиональной жизни в обществе, насыщенном информацией. Подчеркивается необходимость комплексного решения проблем образовательного развития в области ИКТ, что включает в себя обеспечение трудовой сферы высококвалифицированными специалистами и профессиональное развитие кадров.

Из этого можно сделать вывод, что для эффективной интеграции информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс

необходимо ориентироваться на потребности участников процесса, включая преподавателей и учителей.

Ведущие образовательные и научные учреждения по всему миру проводят современные научные исследования по формированию рефлексивных навыков студентов в рамках электронной образовательной среды. В нашей стране в процессе реализации концепции непрерывного образования, дистанционного обучения, широкого внедрения ИКТ в образовательный процесс, а также применения эффективных и современных дидактических средств для обучения учащихся среднего образования в компьютерной среде теоретически и практически исследуются работы таких ученых, как А. Арипов, А.А. Абдуқодиров, У.Ш. Бегимқулов, Р.Р. Боқиев, П.М. Жалолова, Ф.М. Закирова, Х.И. Ибрагимов, У.Х. Мингбоев, Ф.Р. Муродова, Б. Мўминов, М.Д. Пардоева, Б.М. Суробов, Н.И. Тайлоқов, Б.З. Тўраев, М.А. Файзиев, И.А. Эшматов, И.А. Юлдошев, У. Юлдашев и другие.

В условиях продолжающегося развития компьютерных технологий, особенно в области программного обеспечения, систематически предпринимаются усилия для эффективной реализации инновационных подходов, направленных на улучшение технологического мировоззрения студентов, медиа-грамотности и технологической компетенции.

Современное образование представляет собой осознание традиций гуманитарной педагогики, особенно эпохи свободного образования, когда можно системно реализовывать идеи, улучшающие личную свободу студентов в компьютерной образовательной среде.

Существуют актуальные задачи, связанные с эффективным использованием информационно-коммуникационных технологий в образовательных процессах и дальнейшим развитием деятельности в этой сфере. К ним относится улучшение условий для использования компьютерных технологий и интернета преподавателями и учащимися, обучение эффективным и целенаправленным способам использования ИКТ и интернета, организация уроков с использованием ИКТ и образовательных ресурсов, а также систематическое изучение и распространение опыта педагогического состава, эффективно использующего ИКТ и образовательные ресурсы в ходе уроков. Также рекомендуется мониторить новые образовательные ресурсы, загружаемые в интернет.

Преимущества электронных образовательных ресурсов включают:

- Неограниченный доступ к ним и возможность воспроизведения в электронном виде по мере необходимости;
- Реализация дистанционного обучения;

• Включение дополнительной релевантной научной и практической информации, включая видео, аудио, анимации и другие материалы, с возможностью их передачи с одного места в другое;

• Наличие альтернативных (резервных) вариантов;

• Ссылки на базы данных полученной информации и необходимой литературы;

• Единый доступ к базам данных для потребителей любого возраста;

• Эффективное онлайн-общение, среди других преимуществ.

Компьютеризированный образовательный процесс открывает возможности для разработки новых методов представления учебных материалов в информационно-коммуникационной среде, обеспечивая свободу познавательной деятельности для участников образовательного процесса.

Заключение:

Улучшение предоставления электронных образовательных ресурсов имеет ключевое значение для повышения качества и доступности образования. В эпоху цифровых технологий эти ресурсы не только способствуют интерактивному и персонализированному обучению, но также подготавливают студентов к будущему, ориентированному на технологии. Интегрируя инновационные подходы и обеспечив педагогов необходимыми инструментами и поддержкой, мы можем создать среду, способствующую развитию независимого мышления, критического анализа и более глубокому пониманию знаний. В конечном итоге эффективная реализация электронных образовательных ресурсов значительно способствует развитию всесторонне развитых, компетентных личностей, готовых процветать в быстро меняющемся мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Насирова Ш.Н., Максмудаова М.А. Эффективность использования электронных ресурсов в образовании. Восточное искусство и культура, ISSN 2181-063X, Научно-методический журнал, Специальный выпуск, II/2020, Коканд, с. 204-211.

2. Насирова Ш.Н., Максмудаова М.А. Эффективность использования электронных ресурсов в образовании. Восточное искусство и культура, ISSN 2181-063X, Научно-методический журнал, Специальный выпуск, II/2020, Коканд, с. 204-211.

ISLOM HUQUQIDA OLDI-SOTDI SHARTNOMALARI TUZISHDA TOMONLAR ROZILIGINI BELGILASH MEXANIZMLARI

A.A. Yo‘ldoshbekov

Toshkent davlat yuridik universiteti, Biznes huquqi kafedrasi o‘qituvchisi Elektron pochta: anvarbekyuldashbekov07@gmail.com Tel:+99899852-63-03

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom huquqi doirasida oldi-sotdi shartnomalarini tuzishda tomonlar roziligini belgilash mexanizmlari yoritib beriladi. Islom huquqida tijorat munosabatlarini tartibga solishda adolat va shaffoflik tamoyillari asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, shartnoma tuzishda tomonlarning roziligi hal qiluvchi o‘rinni egallaydi.*

Mazkur maqolada tomonlar roziligini shakllantirishda “ijob” va “qabul” (taklif va uning qabul qilinishi) jarayonining ahamiyati, shuningdek, ulamolar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va ularning zamonaviy shartnoma huquqiga ta'siri ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, aldov, bosim yoki majburlash holatlari tufayli kelishuvning haqiqiyligini belgilash mezonlari ham tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari Islom huquqida oldi-sotdi munosabatlarini o‘zaro manfaatdorlik va shariat tamoyillariga muvofiq amalga oshirish mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Shuningdek, zamonaviy yuridik amaliyotda Islomiy shartnomaviy normalarni qo‘llash imkoniyatlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Tomonlar roziligi, tijorat huquqi, kelishuv mexanizmlari, tijorat odobi, kelishuvning haqiqiyligi, rozilikni tasdiqlash.*

Islom huquqida shartnoma tuzish va tijorat munosabatlari Qur’on, Sunnat, ijmo’ (ulamolarning bir fikrga kelishi) va qiyos (analogiyaga asoslangan hukm chiqarish) manbalariga asoslangan holda tartibga solinadi. Oldi-sotdi shartnomalari Islom iqtisodiy tizimining asosiy qismi bo‘lib, ularning qonuniyligi tomonlar o‘zaro roziligi orqali ta’minlanadi.

Islom huquqi insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni adolat, halollik va o‘zaro rozilik tamoyillari asosida tartibga soluvchi mukammal tizimdir. Qur’on va Sunnat Islom huquqining asosiy manbalari sifatida oldi-sotdi kabi iqtisodiy munosabatlarda tomonlarning roziligini ta’minlashni muhim tamoyil sifatida belgilaydi. Jumladan, Qur’onda: “Ey iymon keltirganlar! O‘zingizga o‘zaro rozilik asosida bo‘lgan savdo-sotiq orqali mulk orttiring” (Niso surasi, 29-oyat) degan ko‘rsatma keltirilgan bo‘lib, bu oldi-sotdi shartnomalarining adolatli va shaffof bo‘lishini talab etadi.[37]

Islom huquqida oldi-sotdi shartnomalari ijob (taklif) va qabul (rozilik bildirish) asosida shakllanadi. Bu jarayon tomonlarning ixtiyoriy ravishda kelishuvga erishishiga asoslanadi. Shuningdek, Islom ulamolari tomonidan aldov, bosim yoki majburlash holatlari tufayli tuzilgan shartnomalar haqiqiy emas, deb e'tirof etiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad

[37]https://islommoliyasi.uz/uz/niso-29/.

(s.a.v.): “Savdo-sotiq o‘zaro rozilik asosida bo‘lsin” degan hadisi ham bu tamoyilning ahamiyatini tasdiqlaydi.[38]

Huquqshunos olimlar B.Xodjayev va H.Radjapovlar “Islom moliyasining huquqiy asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida islom huquqi oldi-sotdi shartnomlarning rukniga quyidagicha to‘xtalib o‘tishgan bo‘lib, unga ko‘ra oldi-sotdi shartnomasi ikki rukndan iborat ekanligi, ya’ni taklif va qabuldan iboratligini ta’kidlashadi. Hanafiy ulamolari shartnoma taraflari va predmeti shartnoma ruknlari emas, balki shartlari ekanligini keltirib o‘tishadi. Ya’ni taklif va qabul rozilikni nazarda tutadi va taraflarning mavjudligini va savdo predmetini o‘z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, aksar fiqh maktablari oldi-sotdi shartnomasining quyidagi uchta rukni borligini ta’kidlaydilar: taklif va qabulni o‘z ichiga olgan izhor (sig‘a), ahdlashuvchi taraflar (al-aqidan) va oldi-sotdi shartnomasining predmeti yoki mol-mulk (mahalul-aqd)[39]. Demak, islom huquqi shartnomalarida tomonlarining o‘zaro roziligi muhim hisoblanadi. Har qanday oldi-sotdi shartnomasida tomonlarning erkin ravishda kelishuvga erishishi kerak. Shartnoma majburiyati erkin rozilik asosida shakllanishi shart. Shu bilan birga, shartnoma shartlari shaffof va tushunarli bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda O‘zbekiston huquq tizimida oldi-sotdi shartnomalari tuzishda tomonlarning roziligi bog‘liq huquqiy mexanizmlarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi oldi-sotdi shartnomalari tuzishda tomonlarning erkinligi va o‘zaro roziligiga asoslanadi. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasi va 354-moddalarida[40] o‘z ifodasini topgan. Mazkur me'yorlarga ko‘ra, har bir shartnoma tomonlarning erkin va ongli roziligi asosida tuzilishi kerak.

Unga ko‘ra, oldi-sotdi shartnomalari tuzishda tomonlarning roziligi qonuniy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shartnoma tuzish jarayonida oferta va aksept mexanizmlari, tomonlarning erkinligi va xabardorligi, shuningdek, aldov yoki majburlashni taqiqlash tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmlar tomonlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish va shartnomalar haqiqiyligini ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, Islom huquqida aldov, bosim yoki majburlash asosida tuzilgan shartnomalarning haqiqiyligini belgilashda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

1.Erkin rozilik: Tomonlarning shartnomaga ixtiyoriy va ongli ravishda kelishlari shart.

2. To‘g‘ri ma’lumot: Shartnoma shartlari to‘liq va aniq bo‘lishi kerak. Noaniqlik (jaholat) yoki yolg‘on ma'lumot shartnomani haqiqiy emas qiladi.

3. Majburlashdan holi bo‘lish: Tomonlar o‘z qarorlarini hech qanday tazyiq yoki majburlashsiz qabul qilgan bo‘lishi kerak.[41]

Islom huquqida tomonlarning roziligini belgilash mexanizmlari inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy munosabatlarda adolat va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar zamonaviy dunyo iqtisodiyoti uchun ham dolzarb bo‘lib, ular o‘zaro manfaatli va barqaror munosabatlar yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, Islom huquqining shartnoma tuzishdagi mexanizmlari nafaqat tarixiy va diniy meros sifatida,

[38] Abu Dovud, *Sunan*, Kitob al-Buyu (Savdo bo‘limi), 3451-hadis.
[39] Islom moliyasining huquqiy asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Baxshillo Xodjayev, Husain Radjapov. – T.: “LESSON PRES” MChJ nashriyoti, 2023. – 272 b.
[40] https://lex.uz/docs/-111189 Fuqarolik kodeksi.
[41] Abu Bakr al-Kosoniy, *Bado‘ as-Sano‘*, 5/129.

balki zamonaviy iqtisodiy huquqni boyituvchi va uning barqarorligini ta'minlovchi tamoyillar sifatida ham ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. Abu Dovud, Sunan, Kitob al-Buyu (Savdo bo'limi), 3451-hadis.
2. Islom moliyasining huquqiy asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / Baxshillo Xodjayev, Husain Radjapov. – T.: "LESSON PRES"MChJ nashriyoti,2023.– 272 b.
3. https://lex.uz/docs/-111189 Fuqarolik kodeksi.
4. https://islommoliyasi.uz/uz/niso-29/.

OLIY TA’LIM TALABALARINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Safarova Nilufar Vohidovna
Meyliyeva Shoxista Rustamovna
Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li
Qarshi irrigatsiya va agro texnologiyalar instituti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oliy ta’lim talabalarni o’qitish va ushbu jarayonda didaktik o’yinlardan foydalanish haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar:*Ta’lim, didaktik o’yinlar, pedagogik texnologiya, metod, o’zlashtirish, dars, faoliyat.*

Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Pedagogik texnologiya – oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz ozaro boglangan harakatlari tizimidir. Ananaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman talim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilinishini, talim beruvchi tomonidan talim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum,kichik guruhlarda ishlash,bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Ma’lumki bolaning ta’lim olish jarayonida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bolib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti - o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga harakat qilishi lozim.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonidagi tizimli o‘zgarishlar strategiyasi o‘quv strategiyasini o‘zgartirishni nazarda tutadi. Ta’lim strategiyasi - bu maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari orqali oldindan belgilangan natijalar va ularga erishish uchun tegishli vositalarga ega bo‘lgan o‘ziga xos ta’lim modeli. Shunday qilib, strategiyani aniqlash - bu maqsadni aniqlash va uning uchun ta’lim mazmunini o‘zlashtirish jarayonini, jarayonni boshqarish tizimi sifatida tegishli o‘zaro ta’sirlar tizimini loyihalashdir. Ta’lim modeli deganda o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar quriladigan qonuniyatlarni umumlashtiruvchi va tushuntiruvchi asosiy tamoyillarni belgilovchi ilmiy nazariyaga asoslangan ta’limni tashkil etish tizimi tushuniladi. O‘quv modeli o‘z mohiyatiga ko‘ra didaktik modeldir, chunki turli xil ta’lim modellari asosiy didaktik munosabatlar tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’sir jarayonlari nisbati bilan farqlanadi. Ta’lim nazariyasi turli modellar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Aniqlangan turli xil ta'lim modellari oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonidagi o'zgarishlarning strategiyalarini amalga oshirish uchun potentsial foydalanish nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Bizningcha, didaktik tadqiqotlarning asosiy qismi maktabdagi o'quv jarayoniga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, ularning natijalaridan oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tahlil qilishda foydalanish qonuniydir, chunki asosiy didaktik aloqalar har qanday o'quv jarayonining mohiyatini tashkil etadi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni didaktik rivojlanish nuqtai nazaridan ancha konservativdir, ammo ma'lum darajada maktabda paydo bo'ladigan barcha yangiliklar oliy ta'lim muassasalari ta'limida namoyon bo'ladi. Ta'limning an'anaviy modelida aks ettiruvchi-baholash ko'nikmalaridan zaif foydalanish bilimdagi bo'shliqlarni to'liq his qilish imkonini bermaydi. Qoida tariqasida, o'qitish o'rganishdan ustun turadi, bu ta'lim faoliyatini pedagogik boshqarish bir yo'nalishli ekanligini anglatadi: o'qituvchi vazifalarni belgilaydi va chiqaradi, talaba ularni o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan nazariy materiallardan foydalangan holda bajaradi. Shunday qilib, talabalarni

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchlarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchlarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaoiy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda kata ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. "Ba'zi talabalar ma'ruzalarda foydalaniladigan an'anaviy ta'lim usullaridan qoniqib o'qiydi, ba'zilari amaliyotni ma'qul ko'radi, ba'zilari esa ilmiy-tadqiqod ishlarni, muammoli vaziyatlarni, katta chaqiriqli ta'lim usullarni xush ko'radi va o'shanga javob beradi. Talabalar turli xil usullar orqali ta'lim olishi o'ta muxim. Xisoblash fanida faollik tan olingan va motivatsiya katta kuch deb xisoblanadi, shu tufayli rag'barlantirish muamollarni ta'minlanadi. O'zida ishonch xosil qilishda ta'limni kuchaytirish uchun vaqtida konstruktiv bog'lanish bo'lishi, baxolash mezonli, tizimli bo'lishi shart. fani xisobot, dasturiy ta'minot ishlanmalar, analitik fikrlash, rejalashtirish va taqdim etish kabi ko'p ko'nikmalarda yuqori standartlarga amal qilishni talab etadi. Axoli talabalarning dasturalariga ixtiyoj sezayotganini, talabalar induksiyasi muhim ahamiyatga ega.1 Talabalar indeksi oliy ta'lim muassasaga qabul qilinishidan oldin mavjud bo'lishi lozim. Foydalanuvchining muassasa xaqida tassavurga ega bo'lishi shart, barcha e'lonlar, o'quv hisoblash fan kuchli motivatsiya e'tirof va ta'lim muammolarni rag'batlantirish taqdim etiladi. Masalan, rivojlanish davrida ular o'z ta'lim uchun katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kerak.

Ta'lim jarayonida motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin - tarbiyalanuvchida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan

qo‘llaniladigan usul. O‘yin bu bola hayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchitalabalarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklariniko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchi-talabalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o‘rgvtish, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi. Didaktik o‘yinlardan alohida foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’limtarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funkfional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Bularning orasida dilaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab syujetli, ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar, konferensiyalar kabi o‘yin mashqlariga ajratish mumkin. O‘qituvchi pedagog, avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar orasida konferensiya mashg‘ulotlari ham muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonov A., Abdalova S., Allamberganova M., Ilyasova Z. O’quv mashg’ulotlarini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari. O’quv qo’llanma. T.: “Tafakkur bo’stoni”, 2013yil 142 b.

2. Didaktik o’yinlarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati - Buxoro viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka... https://uz.denemetr.com/docs/768/index-279695-1.html?page=3

3. R.Ishmuhamedov, M.Yo‘ldashev. “Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”-T.:2016

4. J.G.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. “Pedaogik texnologiya asoslari”-t.:2001

5. Alimjonova J. I. Mutaxasislik o’qitish metodologiyasi (ma’ruzalar matni) TKTI. – T.: 2009

UMAR XAYYOMNING "NAVROʻZNOMA" ASARIDA NAVROʻZ BAYRAMINING IFODALANISHI

Choriyeva Muhlisa
Abdumalikova Jasmina
TerDU talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Umar Xayyomning «Navroʻznoma» asarida milliy bayramlarimizdan biri bo'lgan navro'z bayramining kelib chiqishi va uning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, yangilanish, milliy ruh,tarix, tabiat go'zalligi.*

Umar Xayyom, oʻzining mashhur ruboiylari bilan tanilgan buyuk fors shoiri, faylasuf va astronomodir. Uning asarlari koʻpincha insoniyatning hayoti, oʻlim, tabiat va falsafiy qarashlar bilan bogʻliq. "Navroʻznoma" asari esa, Xayyomning Navroʻz bayrami haqidagi oʻziga xos qarashlarini aks ettiradi. Navroʻz bayrami, Sharqning qadimiy va eng muhim bayramlaridan biri boʻlib, yangi yilning boshlanishi sifatida koʻriladi. Umar Xayyomning "Navroʻznoma" asarida bu bayramning ifodalanishi nafaqat ijtimoiy, balki falsafiy va maʻnaviy maʻnolarga ham boy hisoblanadi.

Navroʻz bayrami va Xayyomning falsafiy qarashlari

Navroʻz bayrami, qadimdan bahor kelishini, tabiatning yangilanishini va yangilikka intilishni ifodalaydi. Xayyomning asarida bu bayram nafaqat tabiatning yangilanishi, balki inson qalbining yangilanishi sifatida tasvirlanadi. Bayramning ifodalanishi orqali Xayyom hayotning oʻzgaruvchanligi, vaqtning tezligi va insonning oʻzini anglashining ahamiyatini koʻrsatadi. Navroʻz, yangi yilning boshlanishi sifatida, insonlarni yangi umidlar, yangi maqsadlar bilan yashashga undaydi. Xayyom bu jarayonni falsafiy tarzda yoritib, hayotning qisqa va oʻtkinchi ekanligini taʻkidlaydi.

Xayyomning "Navroʻznoma" asarida, bu bayramning falsafiy jihatlari koʻplab ruboiylarda ochib berilgan. Masalan, "Navroʻzda tabiat yangilanadi" degan gʻoya orqali Xayyom, tabiatdagi oʻzgarishlarni insonning ruhiy yangilanishi bilan birlashtiradi. Ushbu bayram davomida tabiatning uygʻonishi va yangi hayotning boshlanishi bilan birga, insonlar oʻz ichki dunyosini ham yangilashga intilishlari kerak, - deb taʻkidlanadi.

Navroʻz va ijtimoiy hayot:

"Navroʻznoma" asarida Xayyom Navroʻz bayramining ijtimoiy va madaniy jihatlariga ham eʻtibor qaratadi. Navroʻz bayrami, Sharq xalqlari uchun bir-biriga mehr-oqibat, doʻstlik, oʻzaro hurmat va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash ifodasi sifatida qaraladi. Bayramda odamlar bir-biriga sovgʻalar, toʻylar va ziyofatlar berishadi, bu esa ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Xayyom bu jarayonni, ijtimoiy hamjihatlikni va insonlarning oʻzaro aloqalarini qoʻllab-quvvatlashni sfatida ifodalaydi.

Xayyom Navroʻz bayramining ijtimoiy ahamiyatini anglab, odamlarni yaxshilikka, haqiqatga va adolatga chaqiradi. Asarida, baʻzida, jamiyatdagi notekisliklar va adolatsizliklarga ishora qilib, insonlarni oʻzaro hurmat va tinchlikka undaydi. Bayram davomida nafaqat tabiat, balki ijtimoiy hayot ham yangilanadi, deb taʻkidlaydi.

Navro‘z bayrami va Xayyomning she'riy uslubi

Xayyomning "Navro‘znoma" asarida, Navro‘z bayrami she'riy tarzda ifodalangan. Uning ruboiylari, bayramning ruhini aks ettirib, quvonch, yangilanish, erkinlik va umidlarni tasvirlaydi. Xayyomning she'riyatida bayramning go'zalligi, uning tabiat bilan bog'liqligi va inson hayotiga ta'siri yorqin ifodalanadi. Bayramni nishonlash, uning mohiyatini anglash orqali Xayyom, odamlarni hayotning qisqa va o'zgarmasligidan qo'rqmaslikka, yangi imkoniyatlardan foydalanishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,Umar Xayyomning "Navro‘znoma" asarida, Navro‘z bayrami faqatgina tabiatning yangilanishi yoki yangi yilning boshlanishi sifatida emas, balki inson qalbining yangilanishi, falsafiy anglash va ma'naviy o'sish sifatida tasvirlanadi. Xayyom bu bayram orqali odamlarni hayotning qisqa va o'zgarmasligi haqida o'ylashga, o'zgarishga intilish va yangi boshlanishlarga ochiq bo'lishga chaqiradi. Asar, shuningdek, ijtimoiy hamjihatlikni, do'stlikni va mehr-oqibatni mustahkamlashni, insoniyatning o'zaro aloqalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Xayyomning "Navro‘znoma" asari, o'zining falsafiy va ijtimoiy ma'nolari bilan nafaqat Navro‘z bayramini, balki umuman insoniyatning ma'naviy hayotini yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Umar Xayyom «Navro’znoma», Toshkent., «Mehnat»,-1990.
2.Umar Xayyom «Ruboiylar», Toshkent., -2015.

KAYKOVUSNING "QOBUSNOMA" ASARIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYAT

Hayitova Dinora
Ismoilova Shohsanam
Termiz davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Qobusnoma" qachon yozilganligi, kimga atab yozilganligi, asarning tarbiyaviy ahamiyatlari va asarda keltirilgan tarbiyaga oid hikoyalardan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *asar, Kaykovus, podshoh, nasihat, an'ana, buyuk shoir, mutaffakir, manaviyat.*

“Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz!”. Sh.M. Mirziyoyev.

Albatta, kelajagi buyuk farzandlarni tarbiya qilishda tarbiyaning ahamiyati katta va muhim ekanligini davlatimiz rahbari ham ko'p takidlaganlar. Bunday yoshlarni tarbiyalash uchun esa ajdodlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan kitoblarga, ilm-ma'rifatga tayanishimiz kerakligi nihoyatda muhimdir. Farzand tarbiyasi uchun dasturulamal bo'luvchi bir qator noyob asarlarni misol keltirish mumkin. Ularning orasida Kaykovusning "Qobusnoma" asari o'zining qimmatli pand-nasihat va ma'lumotlarga boyligi bilan ajarlib turadi.

"Qobusnoma" axloqiy-ta'limiy asar hisoblanadi. Ushbu asar Tabariston hukmdori Shams al- Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al- Maoliy ya'ni Kaykovus tomonidan fors tilida yozilgan. Bu asarni muallif o'g'li Gionshohga bag'ishlagan. " Qobusnoma" asarining asosini Qur'oni karim suralari va Muhammad (s.a.v) faoliyati, ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli so'zlar tashkil etadi. Ushbu asarni o'zbek tiliga birinchi marta buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogohiy tarjima qilgan.

"Qobusnoma" asarini biz tarbiyaviy ahamiyatlari haqida gapiradigan bo'lsak, bu asar o'zi pand-nasihat ruhida yozilgan asar hisoblanadi. Bu pand-nasihatlarni yozuvchi faqatgina o'g'liga qaratibgina qolmay, balki bu kitobni o'qiydigan har bir o'quvchiga ham o'rnak bo'lsin degan bo'lsa ajab emas.

O'g'liga aytgan bir o'gitida shunday deydi: “Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilgaysan. Bilgilki, xalqning rusmi odati shundayki, yugurib-elib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va narsalarini o‘zlarining yaxshi ko‘rgan kishisiga qoldirib ketadilar.

Men dunyoda mana shu so‘zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbaho xazinasan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan va o‘zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan”. Yozuvchi bu nasihatlarni o'g'liga aytar ekan undan o'ziga bino qo'ymaslikni ya'ni kibrlanmasligini uqtiradi. Hamma o'z farzandiga qandaydir meros qoldirib ketsa, ya'ni

mol-mulk, xazina qoldirsa yozuvchi o'g'li uchun manaviy xazima qoldirayotganini takidlaydi.

Kaykovus yana bir nasihatida shunday deydi: "... o'z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo'y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo'lsang, xuddi shunday o'zingga qaytgay". Bu nasihati orqali yozuvchi ota-onani hurmat qilishga undamoqda. Sababiki, agar sen o'z ota-onangning hurmatini joyiga qo'ysang "qaytar dunyo" deganlaridek senga ham shunday yaxshi munosabatda bo'ladi, hurmat qiladi deb uqtirgan.

Xulosa qilib aytganda, Kaykovus bu asari orqali yoshlarning tarbiyasiga katta ahamiyat berish kerakligini bayon etadi. Inson yoshligidan tarbiyaga ahamiyatli bo'lsa, aqli va shaxsini shakllantirish oson bo'lishini takidlaydi.

Agar tarbiya yoshlikdanoq berilmasa, inson hayotda o'z o'rnini topishi ham mushkul bo'lib qoladi.

Shuning uchun ham "Qobusnoma" da yoshlikdan vaqtni ta'lim-tarbiya olishga kasb-hunar o'rganishga sarflash ayni muddao ekanligi takidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Habib Abdunazar. Unsur al-Maoliy, Qobusnoma, T., 1973 (to'ldirilgan 3-nashri), T., 1994.
2. Kaykovus. "'Qobusnoma", T – 1994.
3. A. Zunnunov. "O'zbekiston pedagogical tarixi" (qo'llanma), T – 1997

AYOLLARDAGI MIOMA KASALLIGI HAQIDA

Xabibullayev Ne'matillo
"Central Asian Medical University" Davolash ishi yo'nalishi talabasi.
Ismoilova Munisa
"Central Asian Medical University" Davolash ishi yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bachadon miomasi haqidagi ma`lumotlar, uning paydo bo`lish sabablari, alomatlari va belgilari ko`rsatib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *neoplazma, leyomioma, fibromioma, rabdomioma, adenomioz, anorgazmiya, klimaks, ksenoestrogenlar, endometrioz, miomatoz, submukoz, subseroz.*

Mioma (mio... va yun. ota — o‘sma ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha) — muskul to‘qimasidan vujudga keladigan xavfsiz o‘sma; tarkibida muskul elementlari bor. Silliq muskul to‘qimalaridan paydo bo‘ladigan leyomioma va ko‘ndalang targ‘il muskullardan rivojlanadigan rabdomioma ajratiladi. Asosan, bachadon (fibromioma), me’da, ichak va boshqa a’zolarda uchraydi. Mioma kishini ortiqcha bezovta qilmasligi ham mumkin.

Bachadon miomasi har qanday ayolni qo’rqitadigan tashxis. Ultratovush diagnostikasi shifokorining bunday qarori hatto eng bardoshli ayollarni ham vahimaga tushiradi. Biroq, birdan mioma xavfidan xavotir olmaslik kerak. Birinchidan, navbatdagi menstrual siklda boshqa mutaxassisga murojaat qilish va ultratovush tekshiruvni (UZI) takrorlash kerak. Bachadon miomasi nima, u nima uchun paydo bo’ladi, miomani konservativ va jarrohlik usullari bilan davolash va uning qanday alomatlari mavjud?

Bachadon miomasi — bachadon yoki bachadon bo’yni devoridagi yaxshi sifatli neoplazmadir (o’sma). Bundan tashqari, bu kasallik ba’zan fibromioma, leyomioma deb ham ataladi. Ko’pgina hollarda miomaning bachadondagi ko’p o’choqlari mavjud, ularning har birining o’lchamlari bir necha millimetrdan bir necha santimetrgacha o’zgarib turadi. Mioma o’lchamlarini ifodalash uchun, ginekologlar homiladorlikning turli davrlaridagi (haftalarda) ayollar bachadonning kattaligi bilan qiyosiy o’lchovdan foydalanadilar. Joylashuvi va rivojlanish xususiyatiga ko'ra u uch turga bo'linadi:

- bachadon devori ichidagi o'sish - intramural mioma;
- bachadon bo'shlig'ida o'sish - submukoz mioma;
- bachadondan tashqarida o'sish - subseroz mioma.

Bundan tashqari, bachadon bo'yni miomasi mavjud. Agar u yetarli darajada davolanmasa, qinga qarab o'sishi mumkin. 35 yosh atrofidagi ayollarning o'rtacha 40 foizida bachadon miomasi bor.

Bachadon miomasi paydo bo`lishining sabablari

Ko’pincha bachadon miomasi rivojlanishi ayollarda gormonal buzilishlar bilan bog’liq, ayniqsa estrogen konsentratsiyasi ortishi bilan. Ushbu gormonal buzilish ko’proq reproduktiv davrdagi yosh ayollar uchun xos hisoblanadi. Menopauza vaqtida estrogen gormonlarining tabiiy kamayishi tufayli bachadon miomasi o’z-o’zidan, davolashdan qat’iy

nazar, yo'qolib ketishi mumkin. Bundan tashqari, bachadon miomasining sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Irsiy moyillik;
- Gormonal buzilishlar;
- Adenomioz;
- Jinsiy a'zolarda yallig'lanish jarayoni;
- Modda almashinuvi kasalliklari (qandli diabet, shu jumladan);
- Surunkali tizimli kasalliklar;
- Kamharakat hayot tarzi, ortiqcha vazn;
- Surunkali stress holati;
- Abortning ta'siri, intrauterin (bachadon ichi) kontratseptivlarni qo'llash;
- Jinsiy hayot bilan bog'liq norozilik (jinsiy aloqada anorgazmiya).

Gormonal kasalliklar

Mioma — gormonga bog'liq bo'lgan kasallikdir. Organizmda ayol gormonlari darajasi past bo'lganda, ya'ni jinsiy balog'atga yetishdan oldin va klimaks davriga kirgach, bachadon miomasi rivojlanishi ehtimoli juda kamdir. Estrogen gormonlar konsentratsiyasining me'yoridan ortiqligi mioma rivojlanishiga olib keladi.

Biroq, inson organizmida barcha gormonlar o'zaro bog'liqligini ham inobatga olish kerak va ko'pincha bachadon miomasi nafaqat estrogen konsentratsiyasining yuqoriligi, balki ayol jinsiy tizimining barcha gormonlari nozik muvozanatning buzilishi sabab paydo bo'lishi mumkin. Inson organizmida endogen estrogenga o'xshash moddalar aniqlangan va bachadon miomasi ularga huddi estrogenlarga kabi sezuvchanlikka egadir. Ushbu moddalar ksenoestrogenlar deyiladi va ularning mavjudligi, shuningdek, o'sma shakllanishiga turki bo'lishi mumkin.

Homiladorlik, tug`ish, abortlar soni

Mioma shakllanishi sababchisi sifatida gormonal o'zgarishlarning differentsial tashxisida ko'plab omillar hisobga olinadi, masalan, ayol menstrual davrining boshlanishi, menstrual siklning o'rtacha davomiyligi, homiladorliklar, tug'ruqlar soni, emizish muddati va umuman uning mavjudligi. Statistikaga ko'ra, kamida bitta farzand tuqqan ayollarda anamnezida tug'uqlar bo'lmagan ayollarga nisbatan miomaning paydo bo'lishi ehtimoli ancha past bo'ladi.

Oziqlanish ratsioni

Taomnoma kaloriyaligining yuqoriligi, to'yingan yog' kislotalari va yuqori darajali qayta ishlangan mahsulotlarni iste'mol qilish, shuningdek, o'simlik tolalarini yetarli qabul qilmaslik kabi noto'g'ri ovqatlanish semizlikka olib keladi, bu esa bachadon miomasi xavfini oshiradi. Organizmda yog' foizining ortiqchaligi gormonal muvozanatning buzilishi, xususan, androgenlarning kamayishi, estestrogenlarning esa oshishiga olib keladi. Bunday gormonal kasalliklar sezilarli darajada ham yaxshi sifatli (endometrioz, bachadon miomasi), ham reproduktiv tizimning yomon sifatli o'smalari va hatto ko`krak bezi saratoni rivojlanishi xavfini oshiradi.

Hayvonlar manbalaridan olingan oziq-ovqat iste'mol qilmaydigan ayollar bachadon miomasidan kamroq aziyat chekishadi. Bachadon miomasi shakllanishi xavfini kamaytirish uchun asosan murakkab uglevodlar, kamroq to'yingan yog'li oqsillar bilan oziqlanish,

shuningdek, taomonomaga ko'proq sabzavot, meva, kam yog'li sut mahsulotlari kiritish tavsya etiladi. Tana vaznining 10 kg oshishi ayollarda bachadon miomasi rivojlanish xavfini 20 foizga oshiradi.

Qandli diabet va gipertoniya

Erta yoshda (35 yoshgacha) gipertoniya yoki modda almashinuvi kasalliklari bo'lgan ayollarda mioma rivojlanishi xavfi yuqori bo'ladi. Og'zaki kontraseptivlardan foydalanish, jinsiy a'zolar jarohatlari (shu jumladan tug'ish va abort natijasida), ayol jinsiy tizimining surunkali yallig'lanishlari gormonal tizim buzilishiga hissa qo'shadi va mioma rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bachadon miomasi alomatlari va belgilari

Ko'pincha, ayollar mioma borligiga shubha qilishmaydi, hech qanday tashqi alomatlar namoyon bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ko'p hollarda ayol butunlay boshqa sabablarga ko'ra ginekologga tashrif buyurganida yoki tibbiy ko'rikdan o'tishi vaqtidagina o'zida mioma borligini aniqlaydilar. Bachadon miomalari kattagina o'lchamlarda bo'lsa, alomatlar deyarli doimo qayd qilinadi, boshqa holatlarda hech qanday alomat va belgilar kuzatilmaydi.

Bachadon miomasining alomatlari reproduktiv organlarning ko'plab boshqa kasalliklarining alomatlari bilan juda o'xshash. Shuning uchun, quyida keltirilgan alomatlarning birontasi aniqlangan bo'lsa, aniq tashxis qo'yish uchun ginekologga tashrifni kechga qoldirmaslik kerak.

Bachadon miomasining alomatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Nomuntazam menstruatsiya, siklning o'rtasida qonli ajralma ajralishi;
- Kamdan kam hollarda bachadondan qon ketishi yuzaga keladi, ba'zan qon miqdori juda ko'p bo'ladi;
- Hojat chiqarish muntazamliginining buzilishi, tez-tez siydik chiqarish (katta o'sma tufayli qorin bo'shlig'i bosimining oshishi bilan bog'liq);
- Uzoq muddatli bepushtlik, ham birlamchi, ham ikkilamchi;
- Qorin pastidagi og'riqlar, siqilish hissi;
- Tana vaznining ortishi bilan bog'liq bo'lmagan qorin hajmining kattalashishi.

Bachadon miomasini jarrohlik yo'li bilan davolashga ko'rsatmalar

Miomani davolash uchun tezkor jarrohlik aralashuviga ko'rsatma quyidagi holatlarda beriladi:

- Ko'p tugunlar, mioma 12 haftadan ko'proq va kichik tos a'zolarini ezayotgan bo'lsa;
- Bachadondan kuchli va tez-tez qon ketishi;
- O'sish tezligi yiliga 4 haftadan ziyod;
- Miomatoz tugun nekrozi;
- Bachadon miomasining adenomioz bilan birgalikda qayd qilinishi;
- Submukoz tugun shakllanishi;
- Subseroz tugun oyoqlarining buralib qolishi;
- Shilliq osti miomalari.

Bachadon miomasini konservativ davolash tamoyillari

Miomadan jarrohlik aralashuvisiz xalos bo'lish uchun to'g'ri ovqatlanish, gormonal va immunitet holatini tiklash tamoyillariga rioya qilish kerak. Bundan tashqari, fitopreparatlar

va gomeopatik vositalarni qabul qilish tavsiya etiladi. Bachadon miomasini operatsiyasiz qanday davolash mumkin? Miomani bartaraf etish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jinsiy yo'l orqali yuqadigan kasalliklarni (JYYK) va jinsiy a'zolar mikroflorasi buzilishlarini davolash va oldini olish;
- Immunitetni tiklash va rag'batlantirish;
- Metabolizmni me'yorlashtirishga qaratilgan taomnomani tuzatish;
- Bemorning psixoemotsional holati bilan ishlash;
- Menstrual siklni normallashtirish, bachadon qon ketishini bartaraf qilish, anemiyaga qarshi choralar.

Bachadon miomasining eng dahshatli asoratlaridan biri yaxshi sifatli o'smaning yomon sifatliga aylanishidir. Shifokorlar, o'tish ehtimoli yuqori emas, biroq mavjud degan fikrda. Shuning uchun, agar bachadonda mioma aniqlansa, reproduktiv tizimning holatini diqqat bilan kuzatish, ginekologga muntazam tashrif buyurish va o'smalar hajmini nazorat qilish uchun ultratovush tekshiruvidan o'tib turish kerak. Oxirgisi ayniqsa muhimdir, chunki aynan shishning tez o'sishi u onkologik patologiyaga o'tishning birinchi belgisidir.

Klinik davolash:

1. Tug'ilishni nazorat qilish tabletkalari -estrogen va progesteron gormonlarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi, bu mioma bilan kechadigan hayz ko'rish qon ketishining kamayishiga yordam beradi. Tabletkalar mioma hajmini kamaytirmaydi, shuning uchun ular tos bosimi, og'rig'i yoki bepushtligi bo'lgan ayollar uchun samarali davolash vositasi emas. Tabletkalar AQShda FDA (Federal Drug Administration) tomonidan miomani davolash uchun tasdiqlanmagan.

2. Levonorgestrel bilan intrauterin vosita (spiral) -hayzdan qon ketishini sezilarli darajada kamaytirishi va uzoq muddatli samarali kontratseptsiya shaklini (5 yoshgacha) ta'minlashi mumkin. Levonorgestrel spirali Amerika Qo'shma Shtatlaridagi FDA (Federal Drug Administration) tomonidan miomani davolash uchun tasdiqlanmagan.

3. Implantatsiya, inyeksiya va progestin tabletkalari -gestagenlar bachadonning ichki qatlami (endometrium) qalinligini pasaytiradi, hayz ko'rish paytida qon ketishini kamaytiradi. Ular har kuni tabletkalar shaklida, har chorakda ukol sifatida yoki har 3 yilda teri ostiga joylashtirilgan implant sifatida ishlatilishi mumkin. Progestogenlardan foydalanish FDA (Federal Drug Administration) tomonidan AQShda miomani davolash uchun tasdiqlanmagan.

4. GnRH (gonadotrofinni chiqaradigan gormon) agonistlari -mioma uchun eng keng tarqalgan tibbiy davolash. Aksariyat ayollar hayz ko'rishni to'xtatadilar va mioma hajmini sezilarli darajada kamaytiradilar. Ushbu davolanishning yon ta'siriga menopauzada uchraydigan ayollarda uchraydigan alomatlarga o'xshash issiq chaqmoqlar va tunda terlash va 12 oydan ko'proq vaqt davomida ishlatilsa suyak minerallari kiradi. Bu vaqtinchalik davolanish (3 oydan 6 oygacha), ayol kutayotganda va jarrohlik davolanishga tayyorlanmoqda.

5. Antifibrinolitik dorilar -miomani davolash uchun qo`llamang, ammo qon ketishini 30% dan 55% gacha kamaytiring.

Jarrohlik davolash:

Qon ketish va og'riq belgilarini uzoq muddatli yaxshilash uchun jarrohlik davolash tavsiya etilishi mumkin. Boshqa holatlarda jarrohlik muolajalari bepushtlikni davolashga qaratilgan.

Bir nechta jarrohlik muolajalar mavjud:

1. Histerektomiya - bachadonni qorin yoki ayol jinsiy a'zosi orqali jarrohlik yo'li bilan olib tashlash. Bu aniqlangan naslga ega ayollar uchun, boshqa jarrohlik muolajalarga qiziqmaydiganlar uchun va kamroq invaziv operatsiyadan keyin og'ir yoki takroriy alomatlari bo'lganlar uchun tanlangan davolash bo'lishi mumkin. Simptomlarni bartaraf etish uchun tuxumdonlar va bachadon bo'yni (bachadon bo'yni) ni olib tashlash kerak emas.

2. Miomektomiya - miomani jarrohlik yo'li bilan olib tashlash.

Uni laparotomiya (qorin devorida katta kesma) yoki laparoskopiya (qorin devoridagi bir necha mayda kesmalar) yordamida bajarish mumkin.

Agar mioma submukozal bo'lsa, histeroskopik miomektomiya (ayol jinsiy a'zosi orqali, bachadon bo'yni orqali) tavsiya etilishi mumkin.

Miomaning takrorlanish xavfi katta.

Miomektomiya qilingan ayollarning taxminan 10-25% ikkinchi jarrohlik amaliyotiga muhtoj.

3. Endometriyal ablasyon - ayol jinsiy organi va bachadon bo'yni orqali proba kiritish orqali issiqlik yordamida endometriumni yo'q qilish.

4. Bachadon embolizatsiyasi - kichkina kateter qinidagi katta tomirga kiritilib, mioma yaqinidagi tomirga o'tadi.

Tomirga mayda zarrachalar chiqariladi, qon tomirlarini miomaga yopishadi.

Operatsiyadan keyin og'riq o'rtacha va shiddatli bo'lib, ayollarning uchdan bir qismida isitma bor.

Taxminan 20% ayollarga simptomlarni nazorat qilish uchun ikkinchi protsedura (histerektomiya, miomektomiya, qayta embolizatsiya) kerak.

5. Mioliz - qorin bo'shlig'iga laparoskopik usulda kiritilgan uskuna orqali issiqlik yoki sovuq yordamida miomani yo'q qilish.

Xulosa: O'z salomatligiga e'tibor qilmaslik, mioma tufayli kelib chiqqan kuchli bo'lmagan, ammo muntazam bachadondan qon ketishlar oddiy qon yo'qotishlarga va anemiya sindromi rivojlanishiga olib keladi.

Bu kasallikning yana bir xavfi, kamqonlikning asta-sekin rivojlanishi tanani bunday holatga moslashishiga imkon beradi, natijada bu holatdan chiqish uchun tashxis va davolash murakkablashadi.

Agar bemorning farzandlari bo'lsa, muammoning axloqiy tomoni oson hal bo'ladi. Shunga qaramay, agar ayolning farzandi bo'lmasa ham, ushbu imkoniyatni saqlab qolish uchun o'z hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yish kerak emas.

Agar operatsiya o'tkazish tavsiya etilgan bo'lsa, demak, jarayonni boshqa usullar bilan to'xtatib bo'lmaydi va bu a'zoning yo'qotilishi muqarrardir.

O'smaning yomon sifatli shishga aylanishi ehtimolini esdan chiqarmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ushbu maqolada O`zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
2. O`zME Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

ROBOTOTEXNIKA VA SUN'IY INTELLEKTNING ETIK MASALALARI, ROBOTLARNING INSONHAYOTIGA TA'SIRI VA XAVFSIZLIK MASALALARI

Mansurova Dildora Otabek qizi
Shodiyev Asilbek Boqi o'g'li
Egamberdiyev Sardorbek Tohirjon o'g'li
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi
Esanov Temurmalik Beknazar o'g'li
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola robototexnika va sun'iy intellektning zamonaviy jamiyatga ta'siri, xavfsizlik masalalari va etik muammolarni tahlil qiladi. Robot va sun'iy intellekt texnologiyalarining inson hayotidagi ijobiy va salbiy jihatlari, jumladan samaradorlikni oshirish, xavfli vazifalarni avtomatlashtirish va vaqtni tejash bilan bir qatorda ish o'rinlarining qisqarishi, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va etik muammolar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot robototexnika va sun'iy intellektdan foydalanishda xavfsizlik va etik masalalarni tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Robototexnika, sun'iy intellekt, etik masalalar, xavfsizlik, avtomatlashtirish, inson hayoti, ma'lumotlar maxfiyligi, texnologik rivojlanish.*

KIRISH

Robototexnika va sun'iy intellekt zamonaviy jamiyatni o'zgartirayotgan asosiy texnologiyalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar sog'liqni saqlash, sanoat, transport, ta'lim va kundalik hayotning ko'plab sohalarida qo'llanilib, samaradorlikni oshirish, vaqtni tejash va inson mehnatini yengillashtirishga katta hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellektning yuzaga kelishi insoniy qaror qabul qilish jarayonlariga yordam berib, murakkab muammolarni hal etishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan, tibbiyotda tashxis qo'yishda yordam beruvchi algoritmlar yoki ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratmoqda.

Biroq, robototexnika va sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga qator xavflar ham yuzaga chiqmoqda. Ish o'rinlarining qisqarishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, insonning shaxsiy hayotiga aralashuv xavfi va robotlarning nosozligi oqibatida kelib chiqadigan ehtimoliy zararlar texnologiyaning salbiy jihatlari sifatida ko'rilmoqda. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar bilan bog'liq etik masalalar, masalan, robotlar va sun'iy intellektning qaror qabul qilishdagi javobgarlik darajasi, dolzarb muammo sifatida muhokama qilinmoqda.

Shunday ekan, robototexnika va sun'iy intellektning rivojlanishini nafaqat texnologik, balki etik va xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muvozanatli baholash bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir. Mazkur maqola ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan.

Robototexnika va sun'iy intellektning rivojlanishi inson hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalarning kundalik hayotda va ishlab chiqarish jarayonlarida

qo‘llanilishi samaradorlikni oshirish va inson mehnatini yengillashtirish imkonini yaratmoqda. Robotlar xavfli vazifalarni bajarishi, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida jarayonlarni tezlashtirish va inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish orqali jamiyat rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Ammo, bu texnologiyalar bilan birga bir qator salbiy ta’sirlar va xavf-xatarlar ham yuzaga chiqmoqda. Ish o‘rinlarining qisqarishi, inson va robot o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashishi, shaxsiy ma’lumotlarning himoyalanishiga bo‘lgan tahdidlar va robotlarning nosozligi natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalar asosiy xavotir manbalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, robototexnika va sun’iy intellektning rivojlanishi etik masalalarni ham kun tartibiga chiqarmoqda. Masalan, robotlarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, bu qarorlar uchun kim javobgar bo‘lishi va insonning ularga to‘liq ishonishi lozimmi kabi savollar hali-hanuz aniq javob topgani yo‘q.

Xavfsizlik masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Avtonom tizimlar va robotlarning ishlashidagi nosozliklar, ularning dasturiy ta’minoti orqali manipulyatsiya qilinish xavfi, shuningdek, sun’iy intellekt algoritmlaridan noqonuniy yoki zararli maqsadlarda foydalanish ehtimoli jamiyat uchun jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday ekan, robototexnika va sun’iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlarini batafsil o‘rganish, xavfsizlikka oid muammolarni hal etish va etik masalalarni tartibga solish zamonaviy texnologiyalar rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

USULLARI

Robototexnika va sun’iy intellektning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilish, ushbu texnologiyalarning inson hayotiga ta’sirini har tomonlama baholash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganish hamda xavfsizlik va etik masalalarga ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish.

1. Robototexnika va sun’iy intellektning afzalliklarini o‘rganish: Robot va sun’iy intellekt tizimlarining ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, transport va ta’lim sohalaridagi samaradorlikni oshirishdagi rolini o‘rganish. Inson faoliyatining murakkab va xavfli vazifalarini avtomatlashtirish orqali hayot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini tahlil qilish. Texnologiyalar yordamida resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlarini aniqlash.

2. Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash: Sun’iy intellekt va robotlarning rivojlanishi natijasida ish o‘rinlarining qisqarishi va iqtisodiy tengsizliklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish. Robotlarning nosozligi yoki boshqaruv tizimlariga kiberhujumlar oqibatida yuzaga keladigan xavflarni baholash. Shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish.

3. Etik masalalarni o‘rganish va muhokama qilish: Robotlarning qaror qabul qilish qobiliyati va ushbu qarorlar uchun javobgarlik masalasini tahlil qilish. Robototexnika va sun’iy intellektdan foydalanish orqali ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi ehtimollarini o‘rganish. Texnologik taraqqiyotning inson huquqlari va erkinliklariga ta’sirini baholash.

4. Xavfsizlik masalalariga ilmiy yondashuvni ishlab chiqish: Robot va sun’iy intellekt tizimlarining xalqaro xavfsizlik standartlariga muvofiqligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Robototexnika sohasida huquqiy va texnik me’yorlarni aniqlash va ularni

joriy etish yo‘llarini taklif qilish. Dasturiy ta’minotni himoya qilish va robotlarning xavfsizligini ta’minlash uchun samarali usullarni ishlab chiqish.

5. Inson va robotlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirish: Texnologiyalarning inson manfaatlariga xizmat qilishini ta’minlash uchun ularning roli va chegaralarini belgilash. Robotlardan foydalanishda inson omiliga bo‘lgan ehtiyojni saqlab qolish va ularni inson imkoniyatlarini to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llash strategiyalarini ishlab chiqish. Texnologiyalarni joriy qilish jarayonida jamiyatni xabardor qilish va axborot yetkazish tizimlarini rivojlantirish.

6. Texnologik rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish: Sun’iy intellekt va robototexnika tizimlarining barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiqligini ta’minlash. Jamiyat va davlat tuzilmalari o‘rtasida ushbu texnologiyalarni tartibga solish bo‘yicha samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Texnologik yangiliklardan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirish va ularning ijtimoiy ta’sirini boshqarish.

Bu vazifalar orqali robototexnika va sun’iy intellektning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini birlashtiruvchi yagona strategik yondashuv ishlab chiqiladi, bu esa jamiyatga ushbu texnologiyalardan foydalangan holda xavfsiz va barqaror taraqqiyotni ta’minlash imkonini beradi.

Robototexnika va sun’iy intellekt sohasidagi ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Asosiy e’tibor quyidagi masalalarga qaratildi. Robotlarning ijtimoiy hayotga ta’siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar. Ish o‘rinlari qisqarishi va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq natijalar. Sun’iy intellektning xavfsizlik va etik masalalariga oid xalqaro tajribalar. Tadqiqotlardan olinadigan ma’lumotlar asosida robototexnika va sun’iy intellektning afzalliklari va xavf-xatarlariga ilmiy baho berildi.

Ijtimoiy ta’sirni o‘rganish. Robotlarning ta’lim, tibbiyot va uy-ro‘zg‘or ishlarida qo‘llanilishi bo‘yicha real hayotdagi misollar o‘rganildi. Robotlardan foydalangan holda inson faoliyatini osonlashtirish jarayonlari kuzatildi.

Iqtisodiy jihatlarni tahlil qilish. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi va iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha misollar tahlil qilindi. Sun’iy intellektdan foydalanish natijasida paydo bo‘layotgan yangi iqtisodiy imkoniyatlar va ish o‘rinlarini yo‘qotish xavfi baholandi.

Xavfsizlik masalalarini o‘rganish. Robotlarning nosozligi yoki dasturiy ta’minotdagi xatoliklar natijasida yuzaga kelgan xavfsizlik muammolari bo‘yicha amaliy misollar tahlil qilindi. Sun’iy intellekt tizimlariga kiberhujumlarning oqibatlari bo‘yicha tadqiqot natijalari ko‘rib chiqildi.

Solishtirma tahlil usuli. Turli mamlakatlar tajribasi asosida robototexnika va sun’iy intellektning qo‘llanilishi hamda ularga oid xavfsizlik qoidalarini solishtirildi. Xalqaro tashkilotlarning robototexnika va sun’iy intellekt xavfsizligiga oid qoidalari milliy tajribalar bilan taqqoslandi.

Ilmiy-huquqiy tahlil. Robototexnika va sun’iy intellektning huquqiy tartibga solinishi bo‘yicha xalqaro hujjatlar va standartlar o‘rganildi. Milliy va xalqaro qonunchilikdagi bo‘shliqlar aniqlanib, takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu metodlar asosida robototexnika va sun'iy intellektning afzalliklari, xavf-xatarlari hamda etik va xavfsizlik masalalariga oid ma'lumotlar jamlandi va tahlil qilindi. Bu, o'z navbatida, mavzuni chuqur yoritishga imkon berdi.

NATIJALAR

Robotlarning inson hayotiga ta'siridagi ijobiy tomonlari

1. Samaradorlikni oshirish: Robotlar inson faoliyatining turli sohalarida, jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarida yuqori aniqlik va uzluksizlikni ta'minlaydi. Zavodlarda avtomatlashtirilgan robotlar mahsulotni tez va bir xil sifatda ishlab chiqarishga imkon beradi, bu esa ishlab chiqarish hajmini oshiradi.



1-rasm. Sun'iy intellekktning ijobiy va salbiy ta'sirini diagrammasi

2. Vaqtni tejash: Robotlar vazifalarni tezkorlik bilan bajaradi, bu esa inson omiliga nisbatan vaqtni sezilarli darajada tejaydi.

Tibbiyotda jarrohlik robotlari operatsiyalarni qisqa vaqt ichida yuqori aniqlik bilan bajaradi, bu bemorlarning tezroq tiklanishiga imkon yaratadi.

3. Xavfli vazifalarni avtomatlashtirish: Robotlar inson hayotiga xavf tug'diradigan vazifalarni bajaradi, masalan, radiatsiya ta'sirida ishlash, portlash xavfi bo'lgan hududlarni o'rganish yoki chuqur suv osti ishlarini bajarish.



2-rasm. Sun'iy intellekktning inson hayotiga ta'sirini diagrammasi

4. Tibbiyotda foydalanish: Diagnostika va jarrohlikda sun'iy intellekt va robotlarning qo'llanilishi orqali kasalliklarni aniqlash va davolash sifati yaxshilandi.

5. Ta'lim va uy-ro'zg'orda yordam: Robotlar ta'lim jarayonida interaktiv o'rganish vositasi sifatida qo'llanilib, bolalar va kattalar uchun qulaylik yaratadi. Uyda esa robot yordamchilari turli uy ishlarini avtomatlashtiradi.

Salbiy tomonlari

1. Ish o‘rinlarining qisqarishi: Avtomatlashtirish natijasida ko‘plab an’anaviy ish o‘rinlari yo‘qolib, ishsizlik darajasi oshishiga olib kelmoqda.

2. Texnologiyaga haddan tashqari bog‘liqlik: Robotlarga ortiqcha ishonch inson qobiliyatlarining pasayishiga va texnologik tizimlardagi nosozliklar tufayli katta muammolarga olib kelishi mumkin.

3. Xavfsizlik va etik muammolar: Robotlarning nosozligi yoki noto‘g‘ri boshqarilishi natijasida baxtsiz hodisalar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

4. Shaxsiy ma’lumotlar xavfi: Sun’iy intellekt texnologiyalari orqali yig‘iladigan ma’lumotlar maxfiyligi buzilishi va ular suiiste’mol qilinishi ehtimoli mavjud.

Ushbu natijalar robotlarning inson hayotidagi rolini chuqurroq anglashga imkon berib, ularni samarali va xavfsiz qo‘llash bo‘yicha muhim yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Robototexnika va sun’iy intellekt inson hayotini tubdan o‘zgartirayotgan texnologiyalar bo‘lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zamonaviy jamiyatning muhim vazifasidir.

Robotlarning samaradorlik, xavfsizlik va inson faoliyatini avtomatlashtirishdagi yutuqlari ularga nisbatan katta qiziqish uyg‘otmoqda. Shu bilan birga, ularning ish o‘rinlarini qisqartirishi, xavfsizlik va etik muammolarni yuzaga keltirishi ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.

Muvozanatni ta’minlash uchun takliflar:

1. Ta’lim va qayta tayyorlash dasturlari: Avtomatlashtirish oqibatida ish o‘rinlarini yo‘qotgan shaxslar uchun yangi kasb va ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan dasturlarni joriy qilish lozim.

Sun’iy intellekt va robototexnika sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish uchun innovatsion iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish zarur.

2. Texnologiyani tartibga soluvchi siyosat:

Texnologik rivojlanishni boshqarish va uning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun davlat va xalqaro miqyosda qonunlar va tartib-qoidalar ishlab chiqilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar uchun robotlarning xavfsizligi va etik qoidalarga muvofiqligini kafolatlash bo‘yicha majburiyatlar belgilanishi lozim.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq etik qoidalarni ishlab chiqish

Robototexnika va sun’iy intellektning rivojlanishi nafaqat texnik, balki etik masalalarni ham o‘rtaga qo‘ymoqda. Texnologiyalarning jamiyatdagi rolini tartibga solish uchun quyidagi etik qoidalar ishlab chiqilishi kerak:

1. Robotlarning javobgarligi va inson nazorati:

Robotlarning qaror qabul qilish qobiliyati cheklangan bo‘lishi va inson nazoratini saqlab qolish zarur.

Avtonom tizimlarda yuzaga keladigan xatoliklar uchun javobgarlikni aniqlash bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

2. Ijtimoiy adolatni ta’minlash: Texnologiyadan foydalanishda ijtimoiy tengsizlikning kuchaymasligiga e’tibor qaratish kerak. Robotlardan foydalanish imkoniyatlari har bir jamiyat qatlamiga teng taqsimlanishi lozim.

3. Maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi: Robotlar orqali to'plangan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun qat'iy qoidalar ishlab chiqilishi zarur. Sun'iy intellekt algoritmlarining shaffofligi va diskriminatsiya qilmasligi ta'minlanishi kerak.

4. Inson manfaatlariga xizmat qilish: Har qanday texnologiya inson hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Robotlar inson qadr-qimmatini hurmat qilishi va inson huquqlariga tahdid tug'dirmasligi lozim.

5. Xalqaro hamkorlik: Texnologik rivojlanish bilan bog'liq etik qoidalar xalqaro hamkorlik asosida ishlab chiqilishi va ularning barcha davlatlar tomonidan tan olinishi muhimdir.

XULOSA

Robototexnika va sun'iy intellekt jamiyatga ulkan imkoniyatlar yaratgan holda muhim muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ularning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun muvozanatni ta'minlash zarur. Bunda ta'lim, siyosat va etik qoidalarning uyg'unlashuvi asosiy omil hisoblanadi.

Robototexnika va sun'iy intellekt sohalari tez sur'atlarda rivojlanib, zamonaviy jamiyatning har tomonlama o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar samaradorlikni oshirish, xavfli vazifalarni avtomatlashtirish va inson hayotini yaxshilashda katta imkoniyatlar yaratadi. Ammo, ular bilan bog'liq xavf-xatarlar va etik muammolar ham mavjud. Ish o'rinlarining qisqarishi, kiberxavfsizlik tahdidlari va texnologiyalarning inson huquqlari va erkinliklariga ta'siri kabi masalalar jiddiy e'tibor talab etadi.

Robototexnika va sun'iy intellektni ijtimoiy, iqtisodiy va etik jihatlardan baholash zarurati ortmoqda. Shuningdek, texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq etik qoidalar va xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish jamiyatning kelajakdagi barqarorligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Muvozanatli yondashuv, ya'ni texnologiyalarni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llash va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish kerak. Bu uchun ta'lim, siyosat, huquqiy tartiblar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.

2. Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

3. Asimov, I. (1996). Robotlar va Etika: Asimovning Robototexnika Qonunlari.

4. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

5. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.

6. IEEE Global Initiative on Ethics of Autonomous and Intelligent Systems (2019). Ethically Aligned Design.

7. Siau, K., & Yang, Y. (2017). Impact of Artificial Intelligence, Robotics, and Automation on Higher Education. Advances in Intelligent Systems and Computing.

8. Jo‘rayevich, P. O., & ogli, E. T. B. (2024). Sun‘iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari. Science and innovation, 3(Special Issue 17), 620-629.

9. Эсанов, Т. Б. Ў. (2022). Ўзбекистон республикасида автомобилга бўлган талаб ортиши билан муқобил энергия манбаларининг ўрни. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 892-899.

10. Пиримов, О. Ж., & Эсанов, Т. Б. (2022). Электр транспорт воситаларини қуёш электр станциялари ёрдамида қувватлантириш учун лойиҳа ва моделлар. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 835-844.

11. Sobir o‘g, B. R. L., Normurod o‘g‘li, M. S., & Beknazar o‘g‘li, E. T. (2024). Forecasting the urban electricity supply system. Pedagogs, 58(4), 87-91.

12. Beknazar o'g'li, E. T. (2024, March). Elektromobil quvvatlantirgichlar uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning tabiiy-iqtisodiy ta'siri. In Uz Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 73-81).

13. Mirzayev, S. N. O. G. L., & Esonov, T. B. O. G. L. (2024). Forecasting the urban electricity supply system. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(5), 558-563.

14. Jo‘Rayevich, P. O., & ogli, E. T. B. (2024). Sun‘iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari. Science and innovation, 3(Special Issue 17), 620-629.

15. Beknazar o‘g‘li, E. T. Forecasting the urban electricity supply system.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MODUL TIZIMINING SAMARADORLIGI

Kambarov Nodirjon Sattarovich
University of Business and Science o‘qituvchisi p.f.f.dok (PhD), dotsent v.b.
Ergashova Ziyoda Abdulvayit qizi
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi talabasi.

Annotasiya: *Maqolada texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning texnologik kompitensiyalarini shakllantirishda modul tizimi samaradorligi modul tizimining struktrasi model o‘quv faoliyatini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, jarayoni, modelni amalga oshirish mexanizmlari, shu jumladanpedagogik shart-sharoitlar, kutilayotgan natija va o‘quvchilarning texnologik kompetensiyasini shakllantirish darajalarini aks ettiruvchi tartiblangan sxema shakli, ushbu maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar to‘g‘risidafikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologik, kompitensiya, modul, integral ta’lim, Rontent bloki protsessual blok ko‘rgazmali, bosma, audiovizual, elektron, jumladan, interfaol doska, elektron o‘quv resurslari, didaktik materiallar, manekenlar, o‘quv ustaxonalari jihozlari, qiziqishi, mustaqilligi, ijodiy faolligi, shakllar, usullar, psixologik, pedagogik.*

THE EFFICIENCY OF THE MODULAR SYSTEM IN FORMING TECHNOLOGICAL COMPETENCES OF PUPILS IN TECHNOLOGY LESSONS

Abstract: *The article discusses the effectiveness of the modular system in the formation of technological competencies of students in technological classes, the structure of the modular system, the purpose, content, the process of organizing model educational activities, the mechanisms for implementing the model, including the pedagogical conditions, the expected result and the technological competence of students in the form of an ordered scheme. , reflecting the levels of formation, the tasks that must be completed to achieve the goal.*

Keywords: *technological, competence, module, integrated learning, content block, procedural block, visual, printed, audiovisual, electronic, including interactive whiteboard.*

KIRISH

Maqolada texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning texnalogik kompitensiyalarini shakllantirishda modul tizimi samaradorligi modul tizimining struktrasi model o‘quv faoliyatini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, jarayoni, modelni amalga oshirish mexanizmlari, shu jumladan pedagogik shart-sharoitlar, kutilayotgan natija va o‘quvchilarning texnologik kompetensiyasini shakllantirish darajalarini aks ettiruvchi tartiblangan sxema shakli, ushbu maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Texnalogiya darslarida o`quvchilarning texnalogik kompatensiyalarini shakillantirishda yaqindan yordam bergan mutaxassislar Muslimov N.A., Usmanboyeva M.X, Sayfurov D.M, Anorqulova G.M, Andreev A.A. K.o‘rganganlar hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ular darslar jarayonlarida darslarni qiziqarli samarali tashkil etishda tadqiqot olib borib, o‘z fikrlari, qarashlari va tavsiyalarini berdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

5.5.1 Maqolada bola ta’lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati shakillantiradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning texnologik kompitensiyalarini shakllantirishda modul tizimi samaradorligi, modul tizimining struktrasi model o‘quv faoliyatini tashkil etishning maqsadi, bu orqali barkamol shaxsni tarbiyalash, har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan vazifalar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O‘quvchilarni texnologik kompitensiyalarini shakllantirishda, tarbiyalash jarayonlarida turli rivojlantirish mezonlari tahlili qilindi. Bu samadorigi bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

OLINGAN NATIJALAR, TAHLILLAR VA QARASHLAR

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi ta’limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmog‘i lozim. Bugungi kunda maktabda shakllangan texnologik kompetensiyalar ularga qo‘yiladigan talablarga yetarli darajada javob bermaydi. Agar biz boshlang‘ich sinf maktab o‘quvchilarining texnologik kompetentsiyalarni o‘zlashtirishga tayyorligini tahlil qilsak, ularni ushbu kompetensiyalarning asosi bo‘lgan transformativ faoliyatga bevosita kiritish, keyin uning mohiyati, tuzilishi haqida aniq tasavvurlar va texnologik kompetentsiyani shakllantirish bo‘yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar etishmaydi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar va texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishga yordam beradigan o‘quv modelining yo‘qligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish muammosining dolzarbligini ko‘rsatadi. Kompetentsiyalar murakkab, integral ta’lim bo‘lganligi sababli, ularni shakllantirish o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini har tomonlama rejalashtirmasdan, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun eng mos vosita usullarni tanlamasdan amalga oshirish mumkin emas. Aslida, kompetentsiyani shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish ko‘plab omillarni hisobga olgan holda uning shakllanishi jarayoni haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasdan samarasiz bo‘ladi. Ushbu muammoni hal qilishning bir usuli ta’lim jaryonini modellashtirishdir, uning maqsadi asosiy umumiy ta‘limda o‘quvchilarning fan buyicha kompetentsiyalarini qanday samaraliroq shakllantirish haqida umumiy g‘oyani yaratishdir.

Kompetensiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati

Kompetensiya – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kompetentlilik – (lotincha: competens – layoqatli, qobiliyatli) degan ma’noni bildiradi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, mustaqil faoliyat, real

baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim–o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo’lib, tayanch kompetensiyalarda namoyon bo’ladi.

1. Kommunikativ kompetensiya

2.Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

5.Umummadaniy kompetensiyalar

6. Mehnat savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Shulardan ikkitasini ko‘rib o‘tsak:

Umummadaniy kompetensiyalar

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
– badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
– orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
– umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
– o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
– xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Mehnat savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:
– aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
– shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
– kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;
– inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Model - bu har qanday ob’ekt, jarayon yoki hodisaning o‘xshashini haqiqiy, kattalashtirilgan yoki kichraytirilgan shaklda takrorlashdir. Bundan tashqari, bunday tadqiqot usulidan foydalanish o‘rganilayotgan ob’ekt yoki jarayonni maqsadli, izchil va har tomonlama o‘rganishni kafolatlaydi, yaxshi natija bilan samarali ishlash variantlarini tahlil qilishga yordam beradi. Maqolaning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllanish jarayonining mazmuni-protsessual modelini quyidagi shaklda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Amalga oshirish usuliga

ko‘ra, ushbu model real xolatga tegishli bo‘lib, maqsadli, mazmunli, xuquqiy va baholash-samarali bo‘lgan komponentlarni birlashtirgan tizim bo‘lib, tarkibiy qismlarning har biri tuzilmada alohida blok bilan ifodalanadi. Model o‘quv faoliyatini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, jarayoni, modelni amalga oshirish mexanizmlari, shu jumladan pedagogik shart-sharoitlar, kutilayotgan natija va o‘quvchilarning texnologik kompetensiyasini shakllantirish darajalarini aks ettiruvchi tartiblangan sxema shaklida bo‘ladi va u faqat belgilangan barcha bloklar o‘zaro mutanosib bog‘lik holda faoliyat yuritsa, muvaffaqiyatli ishlaydi, ya’ni, model haqiqatdan ham tizimga aylanadi. Psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish shuni kursatadikki maktab o‘quvchilarining texnologik kompetentsiyalarini kasbiy kompetentsiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish ijobiy natija beradi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak: o‘quv jarayoniga qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish, bu shaxsning o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha katta miqdordagi ma’lumotlarga ega bo‘lish istagida ifodalanadi, buning uchun shakllar va o‘qitish usullari majmuasidan foydalanadi; o‘quvchilarning texnologik kompetensiyalarini shakllantirish darajasini oshirish;

- zamonaviy pedagogik ish tajribalar asosida maktabda texnologiya darslarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha ish tartibini ishlab chiqish.Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun modulni quyidagi bloklarga ajratish va shu bloklar asosida texnologik kompitensiyalarni shakllantirish yaxshi natija beradi. Kontent bloki texnologik kompetensiyalarning o‘z mazmunini va o‘qitish mazmunini o‘zida aks ettiradi, uning davomida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Texnologik kompetensiyalar o‘z ichiga bilim, ko‘nikma, insonning texnologik jihatdan muhim fazilatlari, qadriyat munosabatlarini o‘z ichiga oladi (bu fazilatlar biz aniqlagan texnologik kompetentsiya tarkibiy qismlariga muvofiq guruhlanadi). Ushbu fazilatlarga ega bo‘lish o‘quvchilarga har qanday fan yo‘nalishidagi faoliyatini texnologik tamoyillarga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Modelning protsessual bloki texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish xususiyatlarini, qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari va usullarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishning zarur sharti o‘quv faoliyatini faollashtirishdir - o‘quvchilarning o‘zlashtirishga qiziqishi, mustaqilligi va ijodiy faolligini oshiradigan bunday shakllar, usullar va o‘quv vositalarini ishlab chiqish va ishlatishga qaratilgan o‘qituvchining harakatlari. bilimlar, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni amaliy qo‘llashda, shuningdek, ishlab chiqarish holatini bashorat qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, taqdim etilgan modul bloklari ko‘rsatkichlar va belgilar texnologiya darslarida o‘quvchilarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantirish modeli o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarkibiy qismlar tizimi bo‘lib, ma’lum bir pedagogik shartlar to‘plamini hisobga olgan holda samarali bo‘ladi shu bilan birga o‘quvchilarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantirish darajalarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni olgan bilimlarini, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy hayotda qo‘llay olish, echimlar topishga o‘rgatishdir.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR:

1. Muslimov N.A. Usmanboyeva M.X. Sayfurov D.M. «Innavatsion ta'lim texnologiyalari» T-2015

2. Anorqulova G.M. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy tavsiyanoma T-2015

3. Andreev A.A. К вопросы об определении понятия «дистанционные обучение»

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Kambarov Nodirjon Sattarovich
University of Business and Science o‘qituvchisi p.f.f.dok (PhD), dotsent v.b.
Ravshanova Jasmina Qobiljon qizi
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi talabasi.

Annotasiya: *Ushbu maqolada texnologiya darslarini o‘qitish samaradorligini oshirish, texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari, yangi information pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishning muhim ahamiyatlari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Axborot kommunikatsion texnologiyalar, texnologiya, televizor, radio, audio-video yozuv, telefon.*

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: *В статье описывается эффективность обучении уроков технологии, совремнные методы обучения в процессе обучения технологии, особенности использования педагогических и информационно-коммуникационных технологий, важность внедрения новых информационных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *Информационно-коммуникационные технологии, технология, телевидение, радио, аудио-видеозапись, телефон.*

FACTORS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS IN PRIMARY CLASSES

Annotation: *This article describes the importance of increasing the effectiveness of teaching technology lessons, modern methods of education in the process of teaching technology, specific aspects of using pedagogical and information and communication technologies, and the application of new information and pedagogical technologies.*

Keywords: *Information communication technologies, technology, television, radio, audio-video recording, telephone.*

KIRISH

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni texnalogiya faniga qiziqishini oshirish uchun avval darsni samaradorligini oshirish lozim bo‘ladi. Shu bilan birga mehnat ta’limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va

aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni darsaga qiziqishini keyingi sinflarda texnalogiya darsini davom ettirilishi zarurligi haqida fikr yuritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Texnologiya darslarida o‘quvchilar qiziqishi bo‘yicha darsni samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘rganib chiqqan mutaxassislardan: Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M.Qo‘ysinov O.A, V.N. Sattorov, H.S.Yakubova, Muslimov N, Sharipov Sh. Qo‘ysinov O, Q. Abdullayevalar texnologiya darslarini giziqarli va samararali tashkil etisda turli shakl va metodlardan foydalanish yo‘llari borasida tadqiqot olib borib, o‘z tavsiyalari, usullarini berdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limi jarayonlarida darslar samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda turli ko‘nikma va malakalari tushuntiriladi. Bu borada texnalogiyaning boshqa turlari singari qo‘l mehnati turidan ham foydalanish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu orqali har tomonlama o‘quvchini qiziqishi bo‘yicha darsni yaxshi takomillashtirish muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Bu samadorligi bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

OLINGAN NATIJALAR, TAHLILLAR VA QARASHLAR

O‘quvchi-yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, ya’ni ularni har tomonlama davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan yetuk malakali mutaxassis darajasida tayyorlash barcha o‘qituvchilar oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir. Harakatlar strategiyasi asosida “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilinganligi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi, deb o‘ylaymiz. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda axborot komunikatsion texnologiyalaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Su qatorda texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish obyekti

The integration of metallurgical plants into the power supply system presents both challenges and opportunities for enhancing grid stability and operational efficiency. By understanding the unique energy requirements of these facilities and implementing proactive management strategies, it is possible to mitigate their impact on the power grid. Effective collaboration between plant operators, power system managers, and regulatory bodies is essential to optimize energy usage, promote sustainability, and ensure uninterrupted power supply. The adoption of modern technologies, such as real-time monitoring, smart grids, and energy-efficient practices, is critical in addressing these challenges. Moreover, through continuous innovation and regulatory support, the metallurgical industry can lead in sustainable industrial practices, contributing to a resilient and environmentally friendly energy future.

REFERENCES:

1. International Energy Agency (IEA). (2022). Industrial Energy Efficiency: Opportunities and Policy Perspectives. Retrieved from IEA. (https://www.iea.org/reports/industrial-energy-efficiency)

2. World Bank. (2023). Power Supply and Demand Management in Developing Countries. Retrieved from World Bank. (https://www.worldbank.org/en/topic/energy/publication/power-supply-and-demand-management-in-developing-countries)

3. European Union. (2023). Energy Efficiency Directive and its Role in Industrial Processes. Retrieved from EU Energy. (https://energy.ec.europa.eu/topics/energy-efficiency/energy-efficiency-directive_en)

4. American Council for an Energy-Efficient Economy (ACEEE). (2023). Demand Response and Energy Management Strategies for Industrial Plants. Retrieved from ACEEE. (https://www.aceee.org/research-report/u2316)

QOZOG‘ISTON ZARGARLIGI: O‘TGAN ASRLARDA BUGUNGI KUNGACHA

КАЗАХСКОЕ ЮВЕЛИРНОЕ ИСКУССТВО: ОТ ПРОШЛЫХ ВЕКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ

KAZAKH JEWELERY: FROM CENTURIES PAST TO THE PRESENT DAY

Axmedjanova Umida Baxodirovna
O‘zbekiston Respublikasi,Toshkent shahri, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat dizayni kafedrasi dotsenti,
Komilova Omina A’zam qizi
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat dizayni kafedrasi talabasi,

Annotatsiya: *Ushbu maqola Qozog‘istonnig zargarlik san’ati va uning tarixiy,madaniy hamda iqtisodiy ahamiyatiga bag‘ishlangan. Unda zargarlikning skiflari davridan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish yo‘li keng qamrovda yoritlgan. Qadimiy naqshlar, ramzlar va zargarlik buyumlari orqali xalqning dunyoqarashi, an’analari va madaniy qadriyatlari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qozog‘iston, zargarlik, san’at, naqsh, ramz, madaniyat, tarix, milliy, an’ana, meros.*

Qozog‘iston zargarlik san’ati o‘zining uzoq yillik tarixi, betakror naqshlari va noyob texnikalari bilan dunyo madanyati va san’at olamida alohida o‘rinni egallaydi. Bu san’at nafaqat milliy boylik, balki xalqning o‘zligini, tarixini va madaniy an’analarini aks ettiuvchi ulkan merosdir. Qozog‘izton hududi qadimdan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bo‘lib bu yerga turli xalqlar a madaniyatlar ta’sir ko‘rsatgan. Zargarlik san’ati ham mana shu boy tarixiy va madaniy almashinuv natijasida shakllanib, bugungi kunga qadar o‘zining asl go‘zalligni saqlab qolgan.

Qozog‘iston zargarlik san’atining tarixiy ildizlari eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga, Skiflar davriga borib taqaladi. Skiflar, Markaziy Osiyoning qadimiy ko‘chmanchi qabilalari, zargarlik sohasida ulkan madaniy va badiiy yutuqlarga erishgan xalq hisoblanadi. Ularning san’at asarlari o‘sha davrdagi jamiyatning turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va estetik qarashlari haqida boy ma’lumot beradi.

Skiflarning zargarlik san’atida eng ko‘zga ko‘ringan element bu “HAYVON USLUBI” bo‘lib, bu uslubda ko‘pincha yo‘lbars, bo‘ri,burgut, kiyk va arslon kabi hayvonlarning tasvirlari ishlatilgan. Skiflarning dunyo qarashida muhim ramziy ma’noga ega bo‘lgan ular kuch, jasorat, himoya va tinchlik kabi tushunchalarni ifodalagan. Hayvon tasvirlari, odatda oltin yoki bronzadan yasalgan taqinchoqlar, kamarlar va bezaklarda uchraydi. Qozog‘iston zargarlik san’atida Skiflar davrining eng yorqin namunasi “OLTIN ODAM” topilmasi qayd etiladi. 1969-yilda Issiq mozoridan topilgan bu buyuk arxeologik kashfiyot eramizdan avvalgi IV asrga tegishli. “OLTIN ODAM” skif jangchisni kiymlari bilan birga, minglab oltin buyumlar bilan bezatilgan bo‘lib,u skif zargarligining naqadar murakkab va nafis bo‘lganini ko‘rsatadi.

MILLIY ZARGARLIK BUYUMLRI TURLARI: AN'ANAVIY BUYUMLAR

Qozog'iston zargarlik o'zining qadimiy ildizlari va boy madaniy merosi bilan mashhur. An'anaviy zargarlik buyumlari millatning tarixiy va madaniy o'zligni aks ettiruvchi muhim unsurlardan biridir. Har bir buyum nafaqat chiroyli bezak sifatida ishlatilgan,balki ular jamiyatdagi ijtimoiy holatni,dinni va qadriyatlarni ifodalagan. Qozog'istonning milliy zargarlik buyumlari asosan ko'plab marosimlar,to'ylar,diniy rasm-rusmlar va boshqa ijtimoiy tadbirlarda ishlatilgan. Quyida Qozog'istonning an'anaviy zargarlik buyumlarining eng mashhur turlari keltirilgan:

SHOLPY- bu Qozog'istonning eng an'anaviy va mashhur zargarlik buyumlaridan biridir. Asosan ayollar bosh kiyimlariga taqilgan bezaklar bo'lib, ular odatda quyoshga qarshi himoya sifatida yoki jamiyatdagi maqomni ko'rsatish uchun ishlatilgan. Sholpylarning dizayni juda xilma -xildir, lekin ko'pincha ulardan oltin, kumush, va turli xil toshlardan foydalanilgan. Bu buyumlarning nafaqat chiroyi, balki diniy va ruhiy ma'nolari ham bor. KO'RKSHILAR (ko'krak nishonlari) bu ayollarning ko'krak qismida taqilgan katta taqinchoqlar bo'lib, ular asosan to'y va boshqa marosimlarda ishlatilgan. Bu buyumlar nafaqat bezak sifatida, balki yuqori ijtimoiy maqomni ko'rsatish uchun ham ishlatilgan. Ko'kishlar asosan oltin yoki kumushdan yaslgan, ularning dizayni juda xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin odatda geometric naqshlar, hayvon tasvirlari yoki o'simliklarning tasvirlari mavjud.Ko'rkshilar zargarlik san'atining nozikligini va yuqori badiiy mahoratini namoyish etadi. Ular xalq orasida ijtimoiy maqomni oshirish va o'sha davrning estetik talablariga javob berish uchun ishlatilgan.Qozog'istonning an'anaviy zargarlik buyumlari faqat go'zallik va estetikani ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy maqomni, diniy ishonchlarniva umuman, xalqning hayot tarzini aks ettirgan. Har bir buyumning o'ziga xos ramziy ma'nosi bo'lib, ular egalarining madaniy qadriyatlari, ijtimoiy statusi va hayotiy e'tiqodlarini ko'rsatgan. Zargarlik buyumlari shu tarzda nafaqat bezak, balki o'sha darning diniy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi bir vosita bo'lib xizmat qilgan.

NAQSHLAR VA RAMZLAR

Qozog'iston zargarligida naqshlar va ramzlar katta ahamiyatga ega chunki ular nafaqat estetik maqsadlarda, balki xalqning diniy, ijtimoiy va ruhiy qadriyatlarini aks ettirishda ham muhim ro'l o'ynagan. Zargarlik buyumlaridagi naqshlar va ramzlar ko'pincha xalqning qadimiy dunyoqarashlarini, tabiatga bo'lganmunosabatini va o'zlarining hayotiy maqsadlarini ifodalagan. Har bir naqshning o'ziga hos ramziy manosi bor, va bu buyumlar faqat taqinchoq sifatida ishlatilmay, balki chuqur ma'no va qadriyatlarni o'z ida mujassamlashtirgan.

Geometrik naqshlar – Qozog'ison zargarligida keng tarqalgan va juda qadimiy an'analarga ega. Ushbu naqshlar odatda aylana, uchburchak, to'rtburchak va chiziqlardan iborat bo'lib, ular koinotning tartibini va tabiatning muvozanatini ifodalagan.Geometrik naqshlarning ma'nosi ko'pincha quyidagicha izohlanadi: Aylana: aylana ko'pincha cheksizlik va abadiyliki anglatadi. U shuningdek yerni,quyoshni, oy a boshqa tabiat ob'ektlarini simvolizatsiya qiladi. To'rtburchak va chiziqlar: to'rtburchaklar va chiziqlar asosan dunyoning to'rt tomonini, turli elementlarni va boshqaruvni anglatadi. Bunday naqshlar muvozanat, farovonlik va ijtimoiy tartibni ifodalagan. Uchburchak: uchburchak tabiatning uch elementini, ya'ni yerni, hayvoni va olovni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu

geometric naqshlar zargarlik buyumlaridan ko‘p ishlatilgan bo‘lib ular nafaqat estetik jihatdan go‘zal balki xalqning dunyoqarashini aks ettirgan. Qozog‘iston zargarlik san’atida hayvonlarning tasvirlari, ayniqsa “HAYVON USLUBI” (zoomorfizm) keng tarqalgan. Hayvonlar ular tomonidan yaratilgan naqshlar orqali, o‘zining ramziy, ahamiyatini ko‘rsatadi. Hayvon tasvirlari odatda kuch, jasorat, himoya va tabiatning muvozanati kabi tushunchalarni anglatadi.O‘simlik tasvirlari va tabiat motivlari ham Qozog‘iston zargarligida keng tarqalgan. Bu naqshlar ko‘pincha tabiiy go‘zallikni va insonning tabiat bilan uyg‘unligini aks ettiradi. O‘simliklar ramziy ma’noda quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi.

Yosh o‘simliklar: Ular hayot, o‘sish va yangilanishni ifodalovchi ramz sifatida ko‘riladi. Gul naqshlar: Gullar nafaqat go‘zallik va nafosatni, balki sevgi, baxt va kuch-quvatni anglatadi.Xushbo‘y o‘simliklar: O‘simliklar, ayniqsa xushbo‘y o‘simliklar, hayotning go‘zalligini va tabiatdagi boylikni aks ettiradi.

Ramziy belgilar va diniy ta’sir.

Qozog‘iston zargarligida diniy ramzlar ham o‘z o‘rnini egallaydi. Islom dini tarixi va uning ta’siri zargarlik san’atiga ham o‘z izini qoldirgan. Bunday ramzlar ko‘pincha quyidagicha bo‘lgan:Yulduzlar: Yulduzlar va oy tasvirlari ko‘pincha Islom dinida samoviy bo‘lishni, tinchlikni va Xudoning kuchini anglatadi.Ayollar va erkaklarning siluetlari: Ular ba’zida diniy ramzlar sifatida ishlatilgan bo‘lib, odatda o‘liklar vaqti yoki muqaddas ruhlarni eslatadi.Diniy ramzlar shuningdek, hayot va o‘lim o‘rtasidagi muvozanatni, Xudoning kuchini va odamlar o‘rtasidagi rishtani aks ettiradi.

Qozog‘iston zargarligi madaniy meros sifatida nafaqat xalqning tarixiy o‘zligini aks ettiradi, balki milliy qadriyatlarni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy ildizlari: Qadimda zargarlik buyumlari nafaqat bezak, balki diniy va marosimiy maqsadlarda ishlatilgan. Har bir buyum xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va e’tiqodlarini ifodalagan.

Madaniy o‘zlik: Zargarlik buyumlari orqali xalqning o‘ziga xos milliy naqshlari va ramzlari saqlanib qolgan. Qozog‘istonning turli hududlari o‘ziga xos zargarlik uslublariga ega bo‘lib, ular orqali hududning etnik va tarixiy xususiyatlari aks ettiriladi.

Marosim va urf-odatlar: To‘ylar, diniy marosimlar va boshqa tadbirlarda zargarlik buyumlari muhim o‘rin tutadi. An’anaviy sirg‘alar, bilakuzuklar va kamarlar nafaqat bezak sifatida, balki ramziy ma’noga ega bo‘lgan buyumlar sifatida ishlatilgan

Ilgarigi davrda: Qozog‘istonning zargarlik san’ati qadimda savdo yo‘llarining markazida joylashgan bo‘lib zargarlar o‘z mahsulotlarini Ipak yo‘li orqali boshqa mamlakatlarga eksport qilganlar. Masalan, oltin va kumushdan ishlangan buyumlar, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan taqinchoqlar nafaqat ichki bozor balki xalqaro savdo uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu zargarlar oilalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlagan va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirgan.

Hozirgi davrda: Zamonaviy davrda zargarlik sanoati Qozog‘istonning milliy iqtisodiyotida muhim sohalardan biriga aylangan. Turizm zargarlik buyumlariga bo‘lgan talabni oshiradi, chunki xorijiy sayyohlar milliy uslubdagi buyumlarni qiziqish bilan sotib olishadi. Zargarlik kompaniyalari milliy naqshlardan foydalanib, mahalliy dizaynlarni jahon

bozorlariga olib chiqmoqda.Hunarmandchilik kooperativlari kichik biznesni rivojlantirishda yordam bermoqda.

Qishloqlardagi hunarmandlar o‘z mahsulotlarini sotish orqali iqtisodiy farovonlikka erishmoqda.Hozirgi kunda Qozog‘iston zargarligi xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Milliy naqshlar va dizaynlar jahon ko‘rgazmalarida namoyish etilib, Qozog‘istonni zargarlik san’ati sohasida yetakchi davlatlardan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Qozog‘istonning zargarlik san’ati nafaqat o‘zining boy tarixiy ildizlari, balki zamonaviy dunyoda tutgan o‘rni bilan ham ajralib turadi. Bu soha madaniy qadriyatlarni saqlash, milliy o‘zlikni targ‘ib qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ilgari faqat marosimlar va urf-odatlarda ishlatilgan buyumlar bugungi kunda global bozorga yo‘l topib, xalqaro miqyosda milliy merosni namoyish etmoqda.

Qozog‘iston zargarlik san’ati madaniy va iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos boylik hisoblanadi va uning istiqboli ham shunga yarasha keng.

ADABIYOTLAR:

1. Timothy Samara. Design Elements. - New York: STIM Visual Communication, 2011.- 272 p.
2. Александр Навроцкий, О. А. Казачкова, Виктор Борисович Лившиц "Ковка и литье. Изготовление ювелирных и декоративных изделий" 2011 год.
3. В. И. Куманин "Материалы для ювелирных изделий", 2012 год.
4. Марченков В.И. Ювелирное дело. М., 1990.
5. Абдуллаев Т., Фахреддинова Д., Хакимов А. Песнь о металле. Т.: Изд. литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1986.
6. Ахмеджанова Умида Баходировна Психология цвета в рекламе // Евразийский научный журнал. 2017. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologiya-tsveta-v-reklame
7. Bakhodirovna, A. U. (2022). Baroque Art and Architecture in France. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 480-483. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1328
8. Ахмеджанова Умида Баходировна Искусство и архитектура XV века в Италии // Наука, образование и культура. 2020. №5 (49). С. 62-64. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvo-i-arhitektura-xv-veka-v-italii

NEYL GEYMAN IJODI MISOLIDA ZAMONAVIY INGLIZ ADABIY ERTAKLARI POETIKASI

Qo'chqarova Madinabonu Qaxramonjon qizi
University of business and science

Annotasiya: *Mazkur maqola zamonaviy ingliz adabiyotida adabiy ertak janrining rivoji va o'ziga xos xususiyatlarini Neyl Geyman ijodi misolida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda muallifning "Koralina", "Yulduz changi" va "Qora kitob" kabi asarlaridagi badiiy uslub, syujet qurilishi, timsollar va motivlar o'rganiladi. Maqolada zamonaviy ingliz adabiy ertaklari poetikasining asosiy belgilari, xususan, an'anaviy folklor va ertak elementlarini qayta ishlash, fantastika va realistik uslubni uyg'unlashtirish, shuningdek, zamonaviy o'quvchining madaniy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashish jarayonlari tahlil qilinadi. Neyl Geyman ijodi misolida bu janrda o'ziga xos ruhiy va falsafiy mazmunni ifodalashda fantastika vositalaridan foydalanishning qanchalik samarali ekanligi ko'rsatiladi. Annotatsiyada Neyl Geymanning adabiy ertaklari orqali zamonaviy o'quvchini jozibador va ma'noli usulda jalb etish qobiliyati, uning asarlarida mavjud bo'lgan universallik va individual uslub alohida ta'kidlangan. Mazkur maqola adabiyotshunoslar, talabalar va badiiy ertak janri bilan qiziqadigan keng kitobxonlar auditoriyasi uchun ahamiyatlidir.*

Kalit so'zlar: *Neyl Geyman, adabiy ertak, zamonaviy ingliz adabiyoti, fantastika, poetika, mifologiya, ramziylik, syujet.*

KIRISH

Adabiy ertaklar janri zamonaviy ingliz adabiyotida alohida mavqega ega. Bu janrning poetikasi, ya'ni uning shakli, mazmuni va ramziy jihatlari zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uyg'unlashib, yangi darajaga chiqmoqda. Ushbu maqola Neyl Geymanning ijodiy uslubi orqali zamonaviy ingliz adabiy ertaklarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Geyman o'zining fantastik syujetlari, o'tkir dialoglari va chuqur falsafiy mazmuni bilan bu janrni boyitgan adiblardan biri hisoblanadi.

Neyl Geyman – zamonaviy fantastika va adabiy ertaklar janrining yetakchi vakillaridan biri. Uning asarlari o'quvchilarni ham realistik, ham fantastik dunyolarni birlashtiruvchi o'ziga xos olamga olib kiradi. Masalan, "Qora kitob" (Coraline), "Yulduzlar changi" (Stardust) va "Amerika xudolari" (American Gods) kabi asarlarida u qadimiy miflar va zamonaviy syujetlarni ustalik bilan uyg'unlashtirgan.

Asosiy qism

Zamonaviy ingliz adabiy ertaklari janri so'nggi asrlarda jahon adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, nafaqat bolalar uchun mo'ljallangan, balki kattalar ongiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadigan universal badiiy uslubga aylangan. Bu janrning muhim vakillaridan biri Neyl Geyman bo'lib, uning ijodi zamonaviy adabiy ertaklar poetikasining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi.

Zamonaviy ertaklar an'anaviy folklor asoslariga tayanib, ularni yangicha badiiy shakllar bilan boyitadi. Ular ko'pincha murakkab ichki struktura, simbolizm, va zamonaviy

madaniyatga xos mavzularni o‘z ichiga oladi. Neyl Geyman o‘z asarlarida klassik ertaklarning an’anaviy formulalarini qayta talqin qilish orqali yangi badiiy shakllarni yaratadi. Masalan, “Koralina” va “Yulduz changi” (Stardust) kabi asarlari klassik ertaklar va zamonaviy fantastika janrlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda yozilgan.

Geyman ijodida poetik ifoda usullari, ya’ni metafora, alegoriya va obrazlilik alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida o‘ziga xos syujet va badiiy struktura shakllari kuzatiladi. “Koralina” ertagida o‘zgacha dunyo va real hayot o‘rtasidagi chegaralar o‘zining falsafiy va badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Bu asar inson qo‘rquvlari va orzulari mavzularini yoritib, klassik ertak poetikasini zamonaviy sharoitda qayta kashf etishga muvaffaq bo‘lgan.“Amerika xudolari” esa zamonaviy madaniyat va qadimiy mifologik obrazlarning o‘zaro to‘qnashuvi orqali yangi badiiy shakl yaratadi. Bu asarda insoniyatning o‘zlik izlash jarayoni va zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy inqiroz masalalari ko‘tariladi. Shuningdek, Geyman ertaklarida zamonaviy jamiyat muammolari, jumladan, iste’molchilik madaniyati, oila qadriyatlari va individualizm masalalari qalamga olinadi.

Geyman ertaklarida qahramonlarning arxetipik shakllari diqqatga sazovordir. Ularning ko‘pchiligi an’anaviy ertak qahramonlaridan farqli o‘laroq, murakkab xarakterga ega va real hayot muammolari bilan kurashadilar. Masalan, “Koralina” qahramoni o‘z jasorati bilan an’anaviy “oqlik”ni emas, balki ichki irodani tasdiqlaydi. Bu obraz orqali muallif zamonaviy o‘quvchini voqealar rivoji bilan emas, qahramonning ichki dunyosi va qarorlarining badiiy chuqurligi bilan hayratga soladi.

“Sandman” seriyasida esa Neyl Geyman turli madaniy qatlamlar va mifologik manbalar asosida zamonaviy ertaklarning ko‘p qatlamli poetikasini shakllantiradi. Bu asarda tush, haqiqat va xayol dunyosi orasidagi chegaralar erkin tadqiq etilib, ertakning mantiqiy va poetik xususiyatlari namoyish qilinadi.

Xulosa

Maqola Neyl Geymanning ijodini zamonaviy ingliz adabiy ertaklari poetikasining yorqin namunalari sifatida tahlil qiladi. Geyman o‘z asarlarida an'anaviy ertak elementlarini postmodernistik uslub va zamonaviy mavzular bilan birlashtiradi. Uning ijodi fantastika, realizm va mifologik motivlarning sintezi bilan ajralib turadi.

Maqolada Geymanning mashhur asarlari, jumladan, "Koralina", "Amerika xudolari", va "Qabriston kitobi" kabi asarlar tahlil qilinib, ularning poetik xususiyatlari o‘rganilgan. Muallif qahramonlar, vaqt va makon, shuningdek, inson ruhiyati va jamiyatdagi muammolarni ertak shaklida tasvirlash orqali zamonaviy o‘quvchilarni hayotiy haqiqatlar haqida o‘ylashga undaydi. Xulosa sifatida, Neyl Geyman ijodi adabiy ertak janrining rivojlanishi va global madaniyatda uning yangi shaklini yaratishda muhim o‘rin tutishi ta'kidlangan. Uning asarlari ertaklarning zamonaviy dunyodagi o‘zgaruvchan mohiyatini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gaiman, Neil. American Gods. HarperCollins, 2001.
2. Gaiman, Neil. The Sandman (komiks seriyasi). DC Comics, 1989-1996.
3. Jackson, Rosemary. Fantasy: The Literature of Subversion. Routledge, 1981.

4. Zipes, Jack. Fairy Tales and the Art of Subversion: The Classical Genre for Children and the Process of Civilization. Routledge, 1993.

FRANSIYA SAN'ATI –IMPERSSIONIZM. EDUORD MANE

Inoyatova Gulnoza Dilmurod qizi
Kafedra sanoat dizayn Islom Karimov nomidagi Toshent davlat texnika unversiteti Talabasi
kafedra sanoat dizayn, Toshkent davlat texnika unversiteti Islom Karimov nomidagi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Buyuk Fransuz rassomi Eduoard Mane hayot va ijodini o'rganadi,shuningdek o'sha davr fransuz rassomi va grafik rassomi imperessionizm asoschilaridan biriligi keltirilgan. Ushbu maqolada fransuz imperssionizm asoschisi o'sha davr san'atiga o'z hissasini qo'shgan rassom Eduord Mane hayot ijodidan bir nechta namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Fransiya San'ati imperssionizm yetakchisi va asoschisi,fransuz rassomi*

ФРАНЦУЗСКОЕ ИСКУССТВО –ИМПРЕССИОНИЗМ. ЕДУОРД МАНЕ

FRENCH ART IMPRESSIONISM.EDOURD MANE

Edouard Mane 1832 yil 23 yanvar – 30 aprel) frantsuz modernist rassomi. U 19-asrda zamonaviy hayotni tasvirlagan birinchi rassomlardan biri, shuningdekrealismdan imperssionizmga o'tishda hal qiluvchi shaxs edi. Kuchli siyosiy aloqalarga ega bo'lgan yuqori sinf oilasida tug'ilgan Mane dastlab o'zi uchun mo'ljallangan dengizdagi martabani rad etdi; u rassomlik olamiga berilib ketdi. Uning 1863 va 65 yillarda "premerasi" bo'lgan "O't ustidagi tushlik" yoki "olimpia" nomli dastlabki asarlari tanqidchilar va Tasviriy san'at akademiyasida katta bahs-munozaralarga sabab bo'ldi, ammo tez orada ilg'or ijodkorlar tomonidan maqtovga sazovor bo'ldi. Rassomlar yangi uslub, impressionizmning yutug'i sifatida. Bugungi kunda bu asarlar, boshqalar qatori zamonaviy san'atning boshlanishini belgilaydigan suv havzasi rasmlari hisoblanadi Mane hayotining so'nggi 20 yilida u o'sha davrning boshqa buyuk rassomlari bilan aloqalar o'rnatgan; u o'zining sodda va to'g'ridan-to'g'ri uslubini yaratdi, bu yangilik sifatida e'lon qilinadi va kelajakdagi rassomlar uchun katta ta'sir ko'rsatadi.

Hayotning boshlang'ich davri.

Eduard Mane 1832-yil 23-yanvarda Parijda, Rue des Petits Augustins (hozirgi Bonapard ko'chasidagi ota - bobolarning (hozirgi Bonapart) badavlat va yaxshi aloqador oilada tug'ilgan. Uning onasi Yevgeniy-Dezir Furnier diplomatning qizi va Shvetsiya valiahd shahzodasi Charlz Bernardotning xudojo'y qizi bo'lib, shved monarxlari undan kelib chiqqan. Uning otasi Auguste Mane frantsuz sudyasi bo'lib, Edouardning huquqshunoslik kasbini egallashini kutgan. Amakisi Edmond Furnier uni rasm chizishga undadi va yosh Maneni Luvrga olib ketdi. 1844-yilda u o'rta maktabga, Kollej Rollingga o'qishga kirdiu yerda 1848-yilgacha o'qishga kirdi. U kam akademik iqtidor ko'rsatdi va maktabda umuman baxtsiz edi. 1845 yilda amakisining maslahati bilan Mane maxsus chizmachilik kursiga o'qishga kirdi va u erda bo'lajak tasviriy san'at vaziri va uning umrboqiy do'sti Antonin Prust bilan uchrashdi.

Otasining taklifiga ko‘ra, 1848 yilda u Rio de-Janeyorga o‘quv kemasida suzib ketdi. U ikki marta dengiz floatiga qo‘shilish uchun imtihondan o‘ta olmaganidan so‘ng,otasi badiiy ta’lim olish istagidan qaytdi. 1850- yildan 1856- yilgacha, Mane akademik rassom Tomas Kuture qo‘l ostida tahsil oldi. Couture o‘z shogirdlarini zamonaviy hayotni tasvirlashga undadi, garchi u oxir-“ kabi quyi sinf va "degeneratsiya” mavzularini tanlashidan dahshatga tushdi . Bo‘sh vaqtlarida Mane Luvrdagi Diego Velaskes va Titian kabi eski ustalardan nusxa ko‘chirdi. 1853 yildan 1856 yilgacha Mane Germaniya, Italiya va Niderlandiyaga qisqa muddatli tashriflar qildi, bu vaqt ichida unga golland rassomi Frans Hals va ispan rassomlari Velaskes va Fransisko Xose de Goya ta’sir ko‘rsatdi .1862 yilda Mane o‘zining birinchi durdona asarlaridan biri bo‘lgan" (ehtimol 1860 yilda chizilgan) Jardin des Tuilersdagi Tuileriesdagi olomonning tasviri bilan rasm zamonaviy Parijning ochiq havoda hordiq chiqarishini ko‘rsatadi, bu Manening bir umrlik mavzusi bo‘ladi .Bog‘lardagi figuralar orasida shoir Charlz Bodler , musiqachi Jak Offenbax va

Manening boshqa oila a’zolari va do‘stlari, jumladan, rassomning avtoportreti ham bor. Tuileriesdagi musiqa tanqidiy va jamoatchilik e'tiborini tortdi, aksariyat hollarda salbiy. Bir Mane tarjimai holi so‘zlariga ko‘ra, “Tyuiler musiqasi ko‘rgazmaga qo‘yilganda qanday g‘azabni qo‘zg‘atganini tasavvur qilish biz uchun qiyin”.Klassik qahramonlar, tarixiy piktogrammalar yoki xudolar o‘rniga Manening ijtimoiy doirasini tasvirlash orqali rasmni ushbu mavzularning qiymatini shubha ostiga qo‘yish yoki uning zamondoshlarini bir xil darajaga ko‘tarishga urinish sifatida talqin qilish mumkin. Ernest Meissonier kabi tarixiy rassomlarning nozik tafsilotli mo‘yqalamlariga o‘rganib qolgan jamoatchilik Manening qalin cho‘tka zarbalari qo‘pol va tugallanmagan ko‘rinadi, deb o‘yladi. Mavzu va texnikadan g‘azablangan bir necha tashrif buyuruvchilar hatto rasmni yo‘q qilish bilan tahdid qilishdi. Manening butlaridan biri Ejen Delakrua rasmning kam sonli himoyachilaridan biri edi. Asosan salbiy munosabatga qaramay, tortishuvlar Maneni Parijda taniqli ismga aylantirdi.

1-rasm. Edouard Mane, Buqalar jangi.1865-1866

Buqalar jangi ushbu asari yaratishda Maneni Ispaniyaga bo‘lgan sayohati bo‘ldi. U 1865 yili Ispaniyaga tashrif buyuradi. Sayohat bir haftadan ko‘proq davom etgan bo‘lsada ,bu ispan uzoq vaqt hayratda qolgan rassomda chuqur tassurot uyg‘otdi.Uning rasmlarida ispan hayotining jonli sahnalari shu jumladan buqalar janiradagi seriyalar paydo bo‘la boshladi. Buqalar jangida u buqa va torero qarama- qarshi bo‘lganida harakatdan oldingi

tarang manzarani tasvirlagan. Ularni yonida yirtqich ot sajda qilib yotibdi. Mane bu asarda sezirali keskinlikni yaratadi, g'azabdan oldingi sukunat.

2-rasm. O't ustidagi tushlik1863 yil

Yana bir yirik erta asar – "O't ustidagi tushlik" (Le Dejeuner sur lherbe) , asli Le Bain 1863- yilda Parij saloni uni ko'rgazmaga qo'yishdan bosh tortdi, ammo Mane uni Salon des Refusés (Rad etilganlar saloni) da ko'rsatishga rozi bo'ldi. Ushbu parallel salon rasmiy salonning Tanlov qo'mitasi 5000 dan ortiq taqdimotdan atigi 2217 ta rasmni qabul qilganidan keyin jamoatchilik noroziligiga yechim sifatida imperator Napoleon III tomonidan boshlangan . Bu rad etilgan rassomlarga, agar xohlasalar, rasmlarini namoyish qilish imkoniyatini berdi. shuningdek, uning qisqartirilgan eskizga o'xshash qo'llanilishi, Maneni Kurbetdan ajratib turuvchi yangilik munozarali edi. Bir tanqidchining ta'kidlashicha, cho'tka bilan ishlov berish "polni tozalash" bilan bajarilganga o'xshaydi. Biroq, uning do'sti Antonin Prust kabi boshqalar rasmni nishonlashdi va romanchi Emile Zola uni ko'rish tajribasidan shu qadar ta'sirlandiki, keyinchalik u o'zining "Luvre " ("San'at asari") romanida sarlavhali rasmga asos soldi. Le Dejeuner sur l'herbe haqida.

3-rasm. Olimpiya asari 1863-65yillarda ishlangan moyli bo'yoqda ishlangan Musée d'Orsay muzeyda saqlanadi.

"O't ustidagi tushlik"da bo'lgani kabi , Mane "Uyg'onish davri" rassomining hurmatli asarini "Olimpiya" (1863) kartinasida yana bir bor takrorladi, yalang'och rasmda ilk studiya fotosuratlarini eslatuvchi uslubda tasvirlangan, lekin pozasi Titianning "Venerasi" suratiga asoslangan edi. Urbino (1538). Rasm, shuningdek, Fransisko Goyaning "Yalang'och Maja" (1800) kartinasini eslatadi. Mane salonga yalang'och rasmni namoyish qilish uchun taklif qilinganidan keyin tuvalga kirishdi. Uning o'ziga ishongan fohishaning betakror ochiq

tasviri 1865-yilda Parij saloni tomonidan qabul qilindi va bu janjalni keltirib chiqardi. Antonin Prustning so‘zlariga ko‘ra, faqat ma’muriyat tomonidan ko‘rilgan ehtiyot choralari rasmni xafa bo‘lgan tomoshabinlar tomonidan teshilishi va yirtilishiga yo‘l qo‘ymadi. Yalang‘och ayol sochlaridagi orxideya, bilaguzuk, bo‘yniga lenta va xachir shippak kabi kichik kiyim kiygani uchun bu rasm bahsli edi, bularning barchasi uning yalang‘ochligi, shahvoniyligi va qulayligini ta’kidladi. xushmuomala turmush tarzi. Orxideya, ko‘tarilgan sochlar, qora mushuk va guldasta o‘sha paytda jinsiy hayotning timsoli edi. Ushbu zamonaviy Veneraning tanasi nozik, mavjud standartlarga ziddir. Rasmning idealizm yo‘qligi tomoshabinlarni hayratda qoldirdi. Yapon yog‘och bloklari san’atidan ilhomlangan rasmning tekisligi yalang‘ochni yanada insoniy va kamroq shahvoniy qilishga xizmat qiladi. To‘liq kiyingan qora tanli xizmatkor qora tanlilar giperseksual bo‘lgan degan o‘sha paytdagi nazariyadan foydalanadi. Bu yerda u xushmuomalaga xizmatkor kiyimini kiygani, bu qismning jinsiy tarangligini yanada kuchaytiradi.

4-rasm. Palitra bilan avtoportret, 1879 yil.

Asosiy impressionistlar guruhidan farqli o‘laroq, Mane zamonaviy rassomlar mustaqil ko‘rgazmalarfoydasiga uni tark etishdan ko‘ra, Parij salonida namoyish etishga intilishlari kerakligini ta’kidladi.Yozuvchi Emmanuel Gonsalesning qizi Eva Gonsales uning yagona rasmiy talabasi edi. Unga impressionistlar, ayniqsa Mone va Morisot ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ta’siri Manening engilroq ranglardan foydalanishida namoyon bo‘ladi. 1870-yillarning boshidan keyin u qorong‘u fondan kamroq foydalandi, ammo impressionist rasmga xos bo‘lmagan qora rangdan o‘ziga xos foydalanishini saqlab qoldi. U ko‘plab tashqi (plener) asarlarni chizdi, lekin har doim studiyaning jiddiy ishiga qaytdi. Mane bastakor Emmanuel Chabrier bilan yaqin do‘st bo‘lib, uning ikkita portretini chizgan: musiqachi Manening 14ta rasmiga egalik qilgan va o‘zining ”Ekspromptu”asarini Manening rafiqasiga bag‘ishlagan.

Tanqidchilar tomonidan keskin qoralangan bo‘lsa-da, uning an’anaviy yakuni yo‘qligini qoralagan bo‘lsa-da, Manening ishini boshidanoq muxlislari bor edi. Ulardan biri 1867 yilda yozgan Emile Zola edi: “Biz haqiqatning bunday sodda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimalarini ko‘rishga o‘rganmaganmiz”. Keyin, aytganimdek, hayratlanarli darajada nafis

noqulaylik bor, bu haqda o‘ylash haqiqatan ham maftunkor tajribadir tabiatni yumshoq shafqatsizlik bilan izohlaydigan yorqin va jiddiy rasm.

Mane rasmlaridagi qo‘pol bo‘yalgan uslub va fotografik yorug‘lik ayniqsa zamonaviy deb qaraldi, va Uyg‘onish davri asarlaridan nusxa ko‘chirgan yoki manba sifatida foydalangan. U Tomas Couture studiyasida o‘rgangan texnikani rad etdi. - bunda rasm quyuq ohangli zaminda ketma-ket bo‘yoq qatlamlari yordamida qurilgan - engil zaminda shaffof bo‘lmagan bo‘yoq yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, alla prima usuli foydasiga,o‘sha paytdagi roman, bu usul rasmni bir o‘tirishda tugatish imkonini berdi. Bu impressionistlar tomonidan qabul qilingan va keyingi avlodlar uchun moylarda bo‘yashning keng tarqalgan usuliga aylandi. Manening ishi qisman uning yuzalarining noaniq tekisligi, tez-tez eskizga o‘xshash parchalar va figuralarning qora konturlari tufayli “erta zamonaviy” deb hisoblanadi, bularning barchasi rasm tekisligining yuzasiga e'tiborni tortadi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

. I.V. Dmitrieva SAN’AT TARIXI (1-qism) Учебная поссоба // Toshkent -2020. С. 1-204

2. Рахманов Ж.М. Концепция развития рекламного искусства // Наука, образование и культура. 2020. №6 (50). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-razvitiya-reklamnogo.

3. Абдусалямова Ш. К. Национальные куклы в Узбекистане //Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 83-85.

4. Kamiljanovna A. S. Corrugation and its Application in Furniture Design //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 123-128.

5. Абдусалямова Ш. К. Дизайн плиты и вытяжки для современного интерьера //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 5 (49). – С. 67-69.

6. Абдусалямова Ш. К. и др. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА ВЕЛИКОЙ ФРАНЦУЗСКОЙ РЕВОЛЮЦИИ. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА НАПОЛЕОНА //" USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/3636

7. Абдусалямова Ш. К. История игрушки //Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 80-82.

9. Kamiljanovna A. S. et al. FRANTSIYA SAN’ATI. BARBIZON MAKTABI. TEODOR RUSSO, JAN FRANSUA MILLE //SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH". – 2024. – Т. 17. – №. 1.

https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/3636

11. Одилова Сайёра Джавдатовна Эстетические составляющие творчества ювелирных мастеров // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/esteticheskie-sostavlyayuschie-tvorchestva-yuvelirnyh-masterov

TINISH BELGILARI VA ULARNING ISHLATILISH USULLARI

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich
Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi
Shirinboyeva Sevinch Sattor qizi
Husanboyeva Fotima Husniddin qizi
Husanboyeva Zuhra Husniddin qizi
ISFT instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya: *Ta`lim islohoti yangicha fikrlovchi, globallashuv jarayonida axborot oqimida to'g'ri yo'l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta`lim–tarbiyasi, kasb-hunar o'rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta`lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta`lim standartlari yaratilmasin, ularni o'quv–tarbiya jarayoniga joriy qilish o'qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. O'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi muhim ekan, bunda birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahorati muhimdir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish va ularning ishlatilishini tushuntirish usullari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tinish belgilari, nuqta, so'roq, undov belgisi, vergul, qoida, nutq, o'quvchi, gap, dars, bo'lak, ona tili, imlo.*

Ma'lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisidir. "Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi". Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. SHuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi.

1-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar "Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar.

O‘qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to‘xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Bolalar, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, 3-5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o‘rtasidagi to‘xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to‘g‘ri talaffuz qilishini o‘rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo‘yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o‘qishga oldindan tayyorlash uchun chizmadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so‘zlarni sanaydilar va o‘qituvchi rahbarligida chiziqlar bilan belgilaydilar:

Biz ertakni sevamiz.

____ ____ ____ .

Ovqat pishdi.

___ ____ .

O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi:

– Og‘zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza (to‘xtam) bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko‘rsatadi). Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko‘rsatish uchun alohida belgi – nuqta ishlatiladi.

Bir necha darsdan so‘ng o‘quvchilar gaplarni o‘qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalaniladi. O‘quvchilar gapni yozganda o‘qituvchi nuqta qo‘yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo‘yilmasa, xato hisoblanadi. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo‘yish lozimligini tushuntiradilar. SHunday yo‘l bilan gapning oxiriga nuqta qo‘yish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

So‘roq va undov belgilari bilan ham savod o‘rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so‘rash mazmunini bildirgan gaplarni o‘qiydilar. O‘quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya’ni gapning oxirida ovozni ko‘tarish bilan o‘qishga o‘rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so‘roq belgisini qo‘yishni talab etadi. Undov belgisini qo‘yishni o‘quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o‘qilishi bilan bog‘laydilar.

O‘quvchilar 2-sinfda “Gap” bo‘limi mavzularini o‘rganish jarayonida nuqta, so‘roq va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. SHu vaqtdan boshlab o‘quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo‘yilishini anglay boshlaydilar.

“Darak gap” mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda nuqta qo‘yilishi, “So‘roq gap” mavzusi bilan bog‘liq holda so‘roq belgisi va “Undov gap” mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda undov belgisining qo‘yilishi o‘rgatiladi.

4-sinfda o‘quvchilar “Gapning uyushiq bo‘laklari” mavzusi o‘rganilganda sanash ohangi bilan bog‘langan bo‘laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O‘qituvchi ikki gapni o‘qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko‘rsatadi. Masalan, Biz ona tilimizni sevib o‘rganamiz (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). Men, Ra’no, Alisher boshqa tillarni ham sevib o‘rganyapmiz (Men, Ra’no, Alisher so‘zlaridan so‘ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi).

O‘quvchilar uyushiq bo‘lakli gap tarkibidagi uyushiq bo‘laklarning ammo, lekin, biroq so‘zlari bilan bog‘langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o‘rgatish davridayoq o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o‘qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o‘rgatadi. Masalan, Olma, olcha, nok – meva. Kitob – bilim bulog‘i.

Ona tili darslarida so‘zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o‘qituvchi I sinf o‘quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo‘yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O‘qituvchi aniq misollar bilan sanab ko‘rsatilgan so‘zlardan oldin ikki nuqta qo‘yilishini, har bir so‘zning vergul bilan ajratilishini ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o‘qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. SHunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o‘stirib boradi.

O‘quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to‘la singdirish, ularni tinish belgilarini o‘z o‘rnida ongli ishlatishga o‘rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo‘yish, ta’kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

Ona tili darslarini o‘qish darslari bilan bog‘lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o‘qish, so‘zni aniq ishlatish, o‘z fikrlarini grammatik to‘g‘ri shakllantirishga o‘rganadilar. SHunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og‘zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta’minlaydi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarni grammatik tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida ularda to‘g‘ri yozuv malakasi ham shakllantiriladi va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asos solinadi. Imlo qoidalari bir so‘znigina emas, balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me’yorga muvofiq butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. SHuning uchun har bir darsda imlo ustida ishlash muxim vazifa sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G’. O’zbek tili grammatikasi. –T.: Fan, 1995.

2. Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. –T.: O’qituvchi, 1995.

3. Sayfullaeva R. Hozirgi o’zbek tilida qo’shma gaplarning formal-funksional talqini. – T.:Fan 1994.

4. M.Yo‘ldoshev. O‘zbek tili praktikumi (1-qism). Toshkent: TDPU. 2005

5. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent: 1983-yil.

6. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. –

T.: O‘qituvchi, 2002.

7. R.Qosimova, Boshlang‘ich sinflarda imlosi qiyin so‘zlarni o‘rgatish, T.: 1964.

8. Dehqonova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta’lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta’lim texnologiyalari. T., 2006-yil

9. Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. “Boshlang‘ich ta’lim saboqlari” Toshkent 2014.

10. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022

JAMIYAT VA TA'LIMDAGI O'ZGARISHLAR

Haydarova Gulruh Muhiddin qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,Ta'lim va tarbiya nazariyasi (maktabgacha ta'lim) fakulteti magistranti 1- kurs talabasi

Annotatsiya: *Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bulgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik taffakurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standartlash demakdir. Jumladan, o'qitishning va'zxonlik, og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchi bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'llovchisi bo'lishi muhim. Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim- tarbiya tizimida bo'layotgan o'zgarish va yangiliklar haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, standart, o'quv jarayoni, tarbiya, o'qituvchi, pedagogik texnologiya, o'quvchi, kadr, jamiyat, maqsad.*

O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyixalanadi, kutilayotgan yakuniy natija — ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi sikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi yoki o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Respublikamiz ta'lim-tarbiya muassasalarida samarali innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning yanada takomillashuviga, ta'lim sifatini jaxon andozalariga yetkazishga, kadrlarni yagona Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda tayyorlashga olib keladi. Kelgusida pedagogik texnologiya nazariy va amaliy jixatdan yanada boyib boradi.

Pedagogik texnologiyaning moxiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish va uni tatbiq etishni xisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U

pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchining shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lgan o'qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar. Shu sababli ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshira borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar.

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi va ikkinchi bosqichlari vazifalari muvaffaqiyatli hal qilinib, uchinchi bosqichdagi o'zgarishlar davom etmoqda. Bu bosqichda o'quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish talab qilinadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy qilishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT) ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o‘ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi(AT) va texnik vositalar(TV)dan foydalanish kerakligi;

4. O‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, o‘quvchining qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi lozimligi;

5. O‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob’ektiv baholash, o‘quvchilarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob’ektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l-aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

Bugun har bir sog‘lom fikrlovchi inson yangi asrda o‘zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o‘rni va salohiyati qanday bo‘lishini o‘ylashi tabiiy. O‘tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi esa O‘zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lganligi bilan baholanadi. Mustaqil davlat o‘zining asosiy qonuni - Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy hujjatlariga ega bo‘ldiki, ular orasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o‘rin tutadi. Undagi g‘oyalar, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustahkamlovchi insonlarning

manfaatini ifodalaydi. Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish, ta'lim - tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar kun tartibiga qo'yildi.

O'tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo'lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta'lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limni kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishini nazarda tutmoq o'rinlidir. Zero, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e'tirof etilganidek,

«Ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir.

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini, ularning ta'lim sifatini oshirish va axborot hamda kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy ta'limni rivojlantirishga ta'sir qanday ko'rsatishini tasavvur qila olishimiz shart.

Ko'p hollarda «ta'limning kompyuter texnologiyalari» iborasi «axborot texnologiyalari» iborasi bilan aralashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda, asosan, an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so'nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi.

Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak. Mavjud holat, axborotlar oqimining negizlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning tafakkuri va fikr yuritishi jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmasmikin? Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muhitga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz lozim.

Shu o'rinda biz axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e'tirof etishni xohlardik. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub'ektivizmni cheklaydi. Masalan, agar o'quvchining javobi yoki bevosita o'zlashtirishini baholash o'qituvchining o'quvchi shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi. Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lganida, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor.

Bu narsa ayrim o'quvchilarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymanish kabi sifatning namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi. Uchinchidan, har bir o'qituvchining o'zigagina xos bo'lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To‘rtinchidan, yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o‘zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o‘rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin. Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma’lumotlarni kichik hajmli disketlarga yozib olish va ulardan zarur o‘rinlarda foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni, ham mablag‘ni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo‘ladi. Eng muhimi, manfaatdor auditoriya xohlagan ma’lumotini bir xil sifat va tizimda olishi mumkin bo‘ladi. Nihoyat, ular “axborot asri” deb e’tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o‘stiradi, ulardagi texnik vositalardan cho‘chish hissini yo‘qotadi. Xullas, ta’lim muassasalarining bu narsaga sarflangan mablag‘lari behuda ketmasligi ehtimoldan xoli emas. Agar biz har bir yosh qalbida Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, pok iymon va odamgarchilikni tarbiyalay olsak, ular xalqaro axborot tizimlari orqali bizning fikrlash tarzimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarni tanqidsiz qabul qilmaydigan, yurtimiz istiqboliga xizmat etadiganlarinigina saralab olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun biz yoshlarimizda barqaror mafkuraviy immunitetni tarbiyalashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.-T.: «Fan», 2000 y.

2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: «Tarbiyachi», 2004 y.

3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. -T.: YUNISEF, 2005 y.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o‘quv qo‘llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.

5. Y.V. Goncharova, I.S. Telegina. Innovasionnaya deyatelnost v doshkolnom obrazovatelnom uchrejdenii. Uchebno-metodicheskoye posobiye. Nijnevartovsk: Izd-vo Nijnevart. gos. un-ta, 2013.

6. F.Qodirova. Maxsus ta’lim jarayoniga interfaol usullarni tatbiq etish. A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI. T-2013

7. T.L.Xurvaliyeva. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilari malakasini oshirish kurslari uchun “Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalar” O‘quv moduli bo‘yicha ma’ruza matni. Toshkent-2016

TA'LIM SOHASIDA VEB-SAYTLARNING O'RNI

Xolmamatov Ilyos Sharif o'g'li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
Choriyev Adham A'zamjon o'g'li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

Annatatsiya: *Ushbu tezisda biz veb-saytlarning ta'lim sohasidagi o'rni haqida yozilgan. Veb-sayt nima? Uning tarixi haqida ma'lumotva uning davrlari va ularda veb-saytlarni rivojlanish jarayonlari Ta'lim sohasida veb-saytlarning o'rni qay darajada ekanligini va ularni asosiy vazifalarini ko'rsatish. Veb-saytlarning tarixi va davrlarini batafsil yoritdik. Veb saytlarning ta'lim sohasiga asosiy vazifalari. Ta'lim olish jarayonlarida axborot texnoligiyalar kirib kelgani juda keng imkoniyatlarini yaratdi. Har bir inson sifatli ta'lim olishi uchun o'zi yashab turgan geografik joylashuvini o'zgartirishga majbur bo'lar edi. Qidiruv tizimlarining foydalanilish darajasi. Ta'lim jarayonlarida ishlatilishi haqida va ularning O'zbekiston hududida bozor ulushi. An'anaviy ta'lim va masofaviy ta'lim haqida. Masofaviy ta'limni ustunlik tomonlari. Masofaviy ta'limdagi asosiy yutuqlarni yoritib berdik. o'zbekiston ta'lim tizimida veb-saytlarning o'rnihaqida ma'lumotlar.Emaktab.uz platformasining asosiy ustunlik tomonlarini yoritb berdik.*

Kalit so'zlar: *Veb-sayt, axborot texnologiya,HTML, CSS, Javascript, brauzer, masoviy ta'lim, sun'iy intelekt, emaktab.uz hemis.uz.*

Veb-sayt deb kompyuter tarmog'idagi bir elektron manzilda joylashgan elektron hujjatlar majmuiga aytiladi. Veb-saytlarning tarixi haqida to'xtalamiz. Dastlabki veb-sayt 1991-yil 6-avgust sanasida yaratilgan. U Tim Berners-Lee tomonidan yozilgan hisoblanadi. Bu http://info.cern.ch saytni ko'rishingiz mumkin. Saytning asosiy maqsadi ma'lumot berishdan iborat bo'lgan. Saytda HTML hujjatlarini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berishi uchun xizmat qilgan. Ushbu sayt asl nusxasi "CERN Science Gateway"(Yevropa Yadro Tadqiqotlari Tashkiloti) muzeyida saqlanadi. Bu veb-sayt tarida daslabki bosqich hisoblanadi. Statik veb-saytlarda HTML asosida yaratilgan hisoblanadi. Statik veb-saytlar veb sohasining 1.0 avlodi hisoblanadi. 1995-yilga kelib dinamik veb-sayt yaratildi. Endilikda veb-saytlar JavaScript va CSS kabi texnologiyalar yaratildi va qo'llanila boshlandi. Bu davrga kelib eng yirik qidiruv sayti ihga tushurildi. Bu google.com sayt edi. Bu davr vebning 2.0 avlodi hisoblanadi. Hozirgi kundabiz yuqori darajadig veb-saytlardan foydalana boshladik. Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish algoritmlari veb-sayt tajribasini yangi darajaga olib chiqmoqda. Veb 3.0 avlodi yuqori darajada ma'lumotlarni yig'ish,tahrirlash va uzatish vazifalarini juda osonlik bilan bajarmoqda.

XXI asrda barcha insonlar raqamli qurilmalardan keng foydalanib kelmoqda va bundan keyin ham foydalanishadi. Texnologiyalar rivojlangani sari inson hayotiga turli yengilliklar berdi. Ta'lim olish jarayonlarida axborot texnoligiyalar kirib kelgani juda keng imkoniyatlarini yaratdi. Har bir inson sifatli ta'lim olishi uchun o'zi yashab turgan geografik joylashuvini o'zgartirishga majbur bo'lar edi. Hozirda siz ma'lumot olish uchun yuzaga

keladigan ba'zi bir navgatga turish va kutish kabi jarayonlarni unutgan bo'lsangiz kerak. Ma'lumot qidirmoqchi bo'lsangiz brauzeringizga kirasiz va unga o'zingizga kerak bo'ladigan ma'lumotni kiritasiz. Qidiruv tizimi orqali sizga butun dunyodagi ma'lumotlarni chiqarib beradi. Ilm ixlosmandlari uchun bu juda katta imkoniyat hisoblanadi. o'zbekistonda qidiruv tizimlaridan eng ko'p foydalaniladigani Google brauzer hisoblanadi. Uning bozor ulushi 75% ni tashkil qiladi. 1-rasmda batafsilroq ko'rishingiz mumkin.

1-rasm. o'zbekistonda qidiruv tizimlarining bozor ulushi

Veb-saytlarda ta'lim sahasida keng ko'lamda foydalanishmoqda. Biz hozir ta'lim sohasini barcha qismlarini elektron ko'rinishga o'tmoqda. Veb-saytlarni ta'lim sohasida quyidagi muammolarni yechishga yordam berdi.

1. Joy va vaqt chegarasini bartaraf etish.
2. Ta'limga kirish imkoniyatining kengayishi.
3. Individual yondashuv.
4. Xarajatlarni qisqartirish.
5. Bilim almashishning tezlashuvi.

An'anaviy ta'limda faqat auditoriyada o'qish imkoniyati bo'lsa, veb-saytlar bu cheklovni olib tashladi. Istalgan vaqtda va istalgan joyda o'rganish imkoniyatini berdi. Siz uydan o'tirgan holdan o'zingizning mobil gadjetingiz orqali butun dunyodagi kitoblar, maqola, tadqiqotlardanni o'qish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bu orqali siz ta'lim olishda barcha bir bilan bir xil darajada bo'lasiz.

Uzoq hududlarda yashovchilar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ldi. Kam resursli hududlarda ham xalqaro darajadagi bilimlardan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Masofaviy ta'lim bu ta'limning yangi shakli hisoblanadi.

Masofaviy ta'lim — bu texnologiyalar yordamida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi masofani bartaraf etuvchi ta'lim shakli. Bu tizim internet, kompyuter texnologiyalari va maxsus platformalar asosida ishlaydi. Masofaviy ta'lim pandemiya, tabiiy ofatlar yoki boshqa sharoitlarda uzluksiz ta'lim olish imkonini beradi.

Masofaviy ta'limning asosiy afzalliklaridan bular talabalar o'qish vaqtini o'zlari belgilashi mumkin. Istalgan hududdan darslarga qo'shilish imkoniyati mavjud. Transport va boshqa xarajatlarga ehtiyoj kamayadi. Elektron kitoblar, video darsliklar va boshqa o'quv materiallari istalgan vaqtda foydalanish uchun ochiq bo'ladi.

Shu bilan birga, masofaviy ta'lim muammolarni ham keltirib chiqaradi: talabalar uchun motivatsiya yetishmasligi, texnik qiyinchiliklar va jonli muloqotning cheklanganligi. Hozirgi kunda masofaviy ta'lim uchun Google Classroom, Zoom, Moodle kabi platformalar keng qo'llaniladi. Ushbu tizim yordamida nafaqat maktab va universitetlar, balki professional o'quv kurslari ham faoliyat yuritmoqda.

Masofaviy ta'lim — kelajak ta'limining ajralmas qismi bo'lib, texnologiyalar rivoji bilan yanada takomillashadi va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu ta'limni yanada arzon, qulay va global qiladi.

Ta'lim sohasida veb-saytlar katta o'zgarishlarga olib kelmoqda va ularning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Veb-saytlar ta'lim jarayonini yanada qulay, samarali va keng qamrovli qilishga yordam beradi.

Ular o'quvchilarga va o'qituvchilarga resurslarga, ma'lumotlarga, onlayn darslarga, testlarga va boshqa o'quv materiallariga tez va oson kirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston sharoitida biz ta'lim tizmining asosiy bog'inlaridan hisoblangan umumiy o'rta va o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib bizda maktablarda eMaktab.uz tizimi, oliy ta'lim muasssalarida esa hemis.uz kabi platformalardan foydalaniladi. emaktab.uz platformasi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak bunda eng asosiy muammo bo'lgan qog'ozbozlik ishlaridan kechib yuborilgani.

Platformadan oldin o'qituvchilar o'quvchilarning davomot qilishi uchun har bir sinfda "Sinf jurnali" mavjud edi. Emaktab tizimida esa davomat tog'ridan to'g'ri tizimda qilinadi. Bunda ortiqcha vaqtdan tejaladi. Baholarni veb-sayt orqali kuzatish mumkin. Bunda ota-onalar bolalarining davomot va o'zlashtirish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatishlari mumkin bo'ladi. Bu esa ta'lim tizimida juda katta yutuq hisoblanadi. Ushbu platforma rollarga asoslangan tizimlar sirasiga kirgadi.

Shuning uchun bu platformada o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va davlat organlarining o'zlarinig asosiy hisoblari mavjud bo'ladi. Bunda o'quvchilar o'zinig shaxsiy ma'lumotlari orqali o'ziga biriktirilgan hisobga kirishadi. Berilgan adabiyotlar, uyga vazifalar, baholar hamda dars jadvallarini ko'rishlari mumkin hisoblanadi. Bu ma'lmotlar o'quvchilarga qulay tarzda ulashiladi. Bu tizimning asosiy ustunliklaridan hisoblanadi. Ota-onalar esa o'zlarining farzandlarini maktabdagi dars jaroyonidagi baholarini ko'rishi mumkin bo'ladi. Bu orqali ular farzandlarining bilim darajalariga qarab ularga rag'bat yoki tanbeh berishlari mumkin. Ushbu jarayon orqali ota-onalar farzandlari taqdiriga befarq emasliklarini ko'rishimiz mukin bo'ladi. O'qituvchilar qismida asosan har bir o'qituvchiga biriktirilgan sinflar jadvalaini ko'rishingiz mumkin.

Ular uchun ham dars jadvalari, o'quv rejalari va davomot oynalari mavjud bo'ladi. Bu veb-saytlarning ta'limda ilm oluvchi va beruvchilarning kundalik yumushlarni yengillashtirishi hamda vaqtini tejash imkoniyatini berdi. Qulayliklar bilan sizning kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirasiz. Hozirgi axborotlarni to'g'ri va to'liq olishga imkoniyatingizni oshiradi. Siz bu orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatingizga qo'l keladi.

Veb-saytlar orqali o'quvchilar va talabalarga turli darsliklar, video darslar, interaktiv mashqlar va boshqa o'quv materiallari taqdim etiladi,hamda, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali kommunikatsiya o'rnatishga yordam beradi. Ular forumlar, chatlar va boshqa muloqot platformalarini o'z ichiga oladi. Bu esa ta'lim resurslariga qulay kirish imkonini beradi. Bundan tashqari masofaviy ta'lim uchun zarur vositalarni taqdim etadi, talabalarga o'z uyidan turib, darslarga qatnashish, topshiriqlarni bajarish va o'qituvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Ta’limda veb-saytlar o‘quvchilarga yangi bilimlar olish, turli onlayn kurslar va testlarda ishtirok etish, bilimlarini baholash imkoniyatlarini yaratadi. Ta’lim sohasida veb-saytlarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Ular ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, samarali va qulay qilishda muhim rol o'ynaydi. Veb-saytlar yordamida talabalar o‘quv materiallariga, kurslarga va ta’lim resurslariga tez va oson kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masofaviy ta’limni rivojlantirish, o‘qituvchilar va talabalarning o‘zaro muloqotini ta’minlashda veb-saytlarning roli alohida. Shu bilan birga, veb-saytlar orqali ta’limning sifatini oshirish, yangi metodlarni joriy etish va global ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Mukammal dasturlash 1” - Javlon Abdullo (2022)
2. “Axborot komununikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati” - Amirov D.M (2010)
3. “Ta'limda axborot texnologiyalari”-A.A.Abduqodirov, S.O.Tursunov (2019)
4. “Mukammal dasturlash 2” - Javlon Abdullo (2022)

Internet manbalari

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Veb-sayt.
2. https://gs.statcounter.com/search-engine-market-share/all/uzbekistan
3. https://info.cern.ch/
4. https://emaktab.uz/

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO‘L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI

Kambarov Nodirjon Sattarovich
University of Business and Science o‘qituvchisi p.f.f.dok (PhD), dotsent v.b.
Gmail:nodirjonkambarov2@gmail Tel: +998939447261
Abdurahmnova Diluza Hakimjon qizi
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi talabasi.Tel: +998944252511

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnati, qo‘l mehnatiga o‘rgatishni tashkil etish shakillari, ish turlarining mazmuni, mehnat samaradorligini oshirishga oid talablar, o‘qitish metodlari.*

REQUIREMENTS FOR THE USE OF HAND LABOR IN TECHNOLOGY CLASSES

Annototsion: *Preparing students for work in the primary grades is manual labor based on their interests, inclinations and opportunities. In this regard, the process of labor education is aimed at developing students' knowledge, labor, moral, aesthetic, economic, environmental and intellectual capabilities for this age in specific labor processes, resulting in the need to continue their preparation for work in later grades.*

Keywords:*manual labor in primary school, forms of organization of manual labor training, content of types of work, requirements for increasing labor efficiency, teaching methods.*

KIRISH

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, ularning qiziqishlari va imkoniyatlariga asoslangan narsa qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta’limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni qo‘l mehnatidan foydalanish yo‘llarni ko‘rsatib bergan mutaxassislardan: Mukhamadovna T. M., Sharipovna H. A, Mukhamadovna T. M., Mukhamadovna T. M, Muhammedovna T.M, Тилавова М. М, Matlab M. T., Zarnigor T. S. Qo‘ldoshev R., Rustambek Q. Ular darslar jarayonlarida mavzuga doir narsalarni yasab darslarni giziqarli va samararali tashkil etishda turli shakl va metodlardan foydalanish yo‘llari borasida tadqiqot olib borib, o‘z fikrlari, qarashlari va tavsiyalarini berdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limi jarayonlarida o‘quvchilar qo‘l mehnatiga oid turli ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Bu borada mehnatning boshqa turlari singari qo‘l mehnati turidan ham foydalanish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu orqali har tomonlama o‘quvchini qilgan qo‘l mehnatlari muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Bu samadorligi bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

OLINGAN NATIJALAR, TAHLILLAR VA QARASHLAR

Qo‘l mehnati faoliyatining muhim natijasi-o‘quvchilarning o‘rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlashga da’vat etib, ularda darsdan darsga yanada chuqur bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qildiradi. O‘quvchilar qo‘l mehnati sosida bajaradigan ishlar orqali mehnatning juda ko‘p xususiyatlarini farqlash, materiallarning o‘xshash xususiyatlarni izlash va topish, ulaming aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin o‘rganib boradilar. Bularning barchasi o‘quvchilarda berilgan qo‘l mehnati topshiriqlari va vazifalarni to‘g‘ri bajara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnati faoliyati mehnatning o‘z-o‘ziga xizmat turi, maishiy xo‘jalik mehnati, tabiat quchog‘idagi mehnat turlari mazmun-mohiyati bilan bevosita bog‘liq.Bolang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi. Qo‘l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog‘oz, karton, sitm, yog‘och, gazlama va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xomashyolar (maxsus loy, yog‘och va plastmasslar, plastilin, elim va boshqalar) bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektor, radiotexnika to‘plamlari va hokazo bilan ishlashga o‘rganadilar.Bularning hammasi o‘quvchilarga qo‘l asbobi bilan ishlash, har hil xom-ashyolardan foydalanishning ma'lum tajribasini to‘plashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushinishga, mehnat kishilarda hurmatda bo‘lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishga shakllantirishga yordam beradi. Qo‘l mehnati mehnatning har bir turiga qarab o‘zining pedagogik imkoniyatlarini hosil qiladi. Uning ahamiyati ham boshqa mehnat turlari ahamiyati kabi u yoki bu bosqichda o‘zgararib turadi.Masalan, agar o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish 1-sinflarda kata tarbiyaviy ahamiyat kasb etsa, 2-3-sinflarda esa mehnat endi hech qanday zo‘r berishni talab qilmaydi va u bolalar uchun odatdagi hol bo‘lib qoladi. Qo‘l mehnati tamoyillarini o‘zida mujassam etgan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish faoliyatining kundalik mehnat jarayonida pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish shakl va usullari o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Bu faoliyatda bolaning kerakli malakalarini, xulq-atvorida mustaqillikning, amaliy tajribasini egallab olishi uchun eng qulay imkoniyatlar yaratiladi.Qo‘l mehnati tamoyillarini o‘zida mujassam etgan maishiy-xo‘jalik mehnati ham o‘ziga xos xususiyatligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Maishiy-xo‘jalik mehnatda bolaning qatnashishi ancha erta boshlanadi. Yosh bolaning hatto chetlangan jismoniy va ma'naviy

imkoniyatlari ham navbatchilik vaqtida namayon bo‘ladi. Bola binoni, maydoncha(uchastka)ni tartibga keltirish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarib turadi.

Bu o‘z navbatida bolada o‘zining mustaqillik, faollik xislatlaini namoyish etishga imkon beradi. Maishiy xo‘jalik mehnati mazmunida ma’lum davr, vaqt ichida takrorlanib turadigan ishlarni ko‘ramiz.

Undagi mehnatning o‘ziga xos rang-barangligi yoki bir-biriga yaqinligi, yoki o‘xshashliklari bilan takrorlanibgina qolmay, balki tipik hayotiy vaziyatlarni ham yuzaga keltiri turadi. Bunda bolalarning mehnat topshiriqlarini bajarishida ulardagi harakatlarning batartibligi, ish yuzasidan qo‘yilga topshiriq va vazifalarga to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnata bilishi, uyushganligi, ishlash ishtiyoqi talab qilinadi. Bunday ishlarni muntazam bajarib turilishi bolalarda alohida emosional kayfiyat, mehnatsevarlik, jamoatchilik asoslari kabi ahloqiy sifatlarini shakllanishiga yordam beradi.

Maishiy-xo‘jalik mehnati jarayonida, shuningdek, bolalarga tejamkorlik bo‘lish xislatlari, ko‘zga ko‘rinmas tartibsizlikni seza bilish va o‘z tashabbusi bilan uni bartaraf etish qobiliyatlarni tarkib toptirish uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnatiga o‘rgatishning tashkil qilish shakillaridan yana biri - tabiat quchog‘idagi mehnat turlari hisoblanadi.

Bolalarning tabiat quchog‘idagi mehnati jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, harakatni takomillashtiradi.Tabiat quchog‘ida bajariladigan mehnat bolalarning tarbiyasida ijobiy omillarni shakllanishiga katta asos qo‘shadi. Bu mehnat turi orqali bolalrdagi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik yanado oshadi.

Ularda qishloq xo‘jalik mehnatiga qiziqish ushbu ish bilan shug‘ullanuvchi kishilarga nisbatan hurmat-izzatda bo‘lish, ular mehnatini e'zozlash xislatlarini tarkib toptiradi.

Texnologiya darslarining yana bir muhim vazifasi - bolalarni axloqiy tayyorlash va ularga jamoada ishlash, ijodiy tashabbus, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni o‘rgatishdan iborat. Zero, bolalarni mehnatga ruhiy tayyorlash o‘ziga xosmurakkab, uzoq davom etadigan va mazmun-mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bolalarni butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketadigan omillardan biri hisoblanadi.

Omillarning har biri garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsada, mehnatga ahloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnat qilishga o‘rgatish va buning uchun uni ruhiy jihatdan to‘g‘ri tayyorlash kerak.

Bu unda mehnatga nisbatan, ayniqsa, uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishiga qiziqishni shakllantirish demakdir.Bolalarni mehnat qilishga ruhiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi.

Bular sezib anglash, psixomotor, hissiy idrok, diqqat, xotira, tafakkur va boshqalardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik komponent(tarkibiy qism)lari deyiladi.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda ish turlarining usullari. Qog‘oz va karton bilan ishlash, gazlama bilan ishlash, turli materiallar bilan ishlash, texnik modellashtirish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mehnati, qishloq ho‘jaligi mehnati.

Qo‘l mehnatining asososiy usullari. Og‘zaki bayon qilish, tushuntirish va hikoya qilis, suhbat, mashqlar, amaliy ishlar, labaratoriya ishlari, mustaqil ishlar, ekskursiya, kitob bilan ishlash, texnik vositalar,yangi pedagogir texnologiyalar.

Mustaqil ishlar – bu o‘qituvchining bevosita ishtiroksiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o‘rindda o‘quvchilar o‘zlarining intilishlarini qo‘llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalariniu yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar. Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar qo‘l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o‘rtasida uzviy aloqada bo‘lishi kerakligini his etsinlar. O‘quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo‘lmasligi kerak. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar. Mustaqil ishlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf texnologiya darslari jarayonlarida qo‘l mehnati mashg‘ulotlari bolalarga avvalo, eng oddiy buyumlardan turli shakllar, o‘yinchoqlar, xilma-xil o‘yinlar o‘ynash uchun buyumlar, ko‘rgazmali qurollar, o‘qli asboblar va shu singari boshqa narsalar yasash o‘rgatiladi. Qo‘l mehatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyatlai keng. Qo‘l mehati o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, fazoviy tasavvurlarini kengaytiradi, ularda yaratuvchanlik va odobiy-axloqiy sifatlar shakllanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. 0 ‘quv qo‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.

3. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. - 2021. - T. 11.

4. Тилавова М. М. и др. Гендерный подход на уроках технологии //European esearch: innovation in science, education and technology. - 2020. - С. 33-35.

5. Matlab M. T., Zarnigor T. S. Gender approach in education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. Page: 1750-1755.

NIZOMULMULKNING "SIYOSATNOMA"ASARI HAQIDA

Haydarova Jamila Chorshanbi qizi
Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2 -kurs talabasi javohiry301@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nizomulmulkning "Siyosatnoma"asari haqida,undagi ba'zi rivoyatlar mazmuni va tarixiy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar:*Nizomulmulk,siyosatnoma,davlat tuzilishi,asar,tarix,sulton Alp-Arslon,tarixiy ahamiyati.*

Annotation: *This article describes Nizonulmulk's work "Siyasatnama", the content and historical significance of some narrations in it.*

Key words: *Nizamulmulk, policy document, state structure, work, history, Sultan Alp-Arslan, historical significance.*

Аннотация: *В данной статье описывается произведение Низонулмулька «Сиясатнама», содержание и историческое значение некоторых повествований в нем.*

Ключевые слова: *Низамулмульк, программный документ, государственное устройство, деятельность, история, султан Алп-Арслан, историческое значение.*

Saljuqiylar davlati, O'rta Osiyoning tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir davlatdir. U XI-XII asrlarda Markaziy va G'arbiy Osiyo hukmronligini qo'lga kiritgan edi. Bu davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ko'plab ma'lumotlar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Bu manbalardan biri ham Nizom ul-Mulk tomonidan yozilgan "Siyosatnoma" asaridir."Siyosatnoma" siyosiy hikmat va hukumat boshqaruvining nazariy asoslari bo'yicha yozilgan eng muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Bu asar, Saljuqiylar davlatining siyosiy va madaniy hayotini yoritishda katta ahamiyatga ega. "Siyosatnoma" asari yuridik, etik, siyosiy va falsafiy masalalarni qamrab oluvchi eng keng miqyosli dasturli asarlardan biri hisoblanadi.

"Siyosatnoma" asari Nizomulmulk tarafidan 1092-1093 yillarda yozilgan bo'lib, o'rta asr davlat boshqaruvi va siyosatining nazariy asoslari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu asar orqali Saljuqiylar davlatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, rahbariyati, davlat boshqaruv tizimi, jamoat hayoti, sof davlatchilik masalalari va jumladan talabalar tayyorlash sistemasi haqida buyuk ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.A.A.Zejev "Nizomulmulk va uning "Siyosatnoma" asari" nomli maqolasi (1957 yil) asarning siyosiy nazariya va amaliyot jihatidan ahamiyatini ko'rsatadi. Z.Karimov " "Siyosatnoma"da davlat boshqaruv tizimi tasavvuri" nomli ilmiy ishida asarda Saljuqiylar davlat tasviri berilganini, u davlat boshqaruv intizomining

asosiy elementlari haqida ma'lumot berganini qayd etadi. V.N.Bartold "Turkiy sharq tarixi" asarida "Siyosatnoma" dagi siyosiy hujjatlarning ba'zi qismlarini tilga olib, saljuqlilarning jamiyat hayoti va davlat tuzilishi haqida tasvir beradi. D.S.White "Medieval

technology and social change" kitobida "Siyosatnoma"da davlat xizmati, xizmatdorlik tizimi va uning rivojlanish tarixi haqida mablag'lar keltirib, shunga asoslanib saljuqlilarning davlat boshqaruvini tahlil qilgan.Shunday qilib, "Siyosatnoma" asari Saljuqiylar davlatining tarixini, siyosatini, jamiyatini, ijtimoiy voqealari va intizomni o'rganishda eng qadimiy va etiborli manba hisoblanadi. Ushbu asarning haqiqiy mazmunini ochiqlaydigan adabiyotlar esa uni til va mamlakat tarixining nuqtai nazaridan tahlil qilgan.[1]

“Siyosatnoma” jiddiy siyosiy va ijtimoiy hujjat bo‘lib, markaziy hukumat parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir. Unda hozirgi iqtisodiy tafakkurning asosiy g‘oyalari o‘z aksini topgan.Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo‘shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg‘oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o‘rin olgan. Asarning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat’iy qoida va tartib o‘rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo‘lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta’minlash uchun harakat qilishga da’vat qiladi. Nizomulmulk Bag‘dod safari yo‘lida yollangan qotil tig‘idan halok bo‘ladi.

Asarda juda ko'plab hikoyatlar keltirilgan.Jumladan,"Podshohlar tomonidan Alloh taolo ne'matlari qadrini bilish"bobida bir hikoyat keltiriladi. Unda Abdulloh Ibn Umar al-Xattob otasiga agar otasi bir kun o‘ladigan bo‘lsa ,o'lganidan keyin ikkinchi yoki uchinchi kecha uni tushida ko'rishini xohlashini aytadi.Otasi o‘lganiga o‘n ikki yil bo‘ladi hamki tushiga kirmaydi.Va nihoyat bir kuni otasi tushiga kiradi.Shunda orasidan nega shuncha vaqtdan beri tushiga kirmaganini so'raganda ota tiriklik paytida cho‘ponlik qilganida,bir ko‘rik buzilganida xizmatchilari uni tuzatmaydi va natijada bir qo‘yning oyog‘i tushib ketib sinadi.Shuncha yildan beri shu qo‘yning oyog'i singani uchun javob berayotganini aytadi.Bu hikoyatdan xulosa shuki,hukmdor inson xoh podshoh bo‘lsin,xoh oddiy cho‘pon doim o‘z qo‘li ostidagi har bir narsa yoki insonlar uchun ,albatta, javob beradi.Yaxshilik va adolat bilan boshqarsa mukofotini,yomonlik,zulm qilsa jazosini oladi.

"Din, shariat va unga o'xshagan ishlarni tahqiq qilish va bajo keltirish" bobidagi bir hikoyada esa podshohlarning eng zo'r fazilatlar-dindorligidir deyiladi.Darhaqiqat,din eng yaxshi tarbiyaviy.Uni mukammal bilgan inson davlatni doim adolatli boshqaradi.Yana shu o‘rinda,Podshohlar haftada ikki kunda diniy yig‘ilishlar qilishi,hadis, Qur'on tinglashi lozimligi aytilgan.Bunday insonlar sultonlarning eng a‘losi bo‘lishi ta'kidlangan.Shuningdek, asarda shoh, sulton farmonlari barchaga taalluqlidir, uni hatto hukmdorga yaqin odamlar ham buzishi mumkin emasligi ta’kidlanadi. Shuning uchun ham Nizomulmulk qonun va siyosat oldida hammani teng deb qaragan.

[1]Ne’matova Rahima Shamsiddinovna.Saljuqiylar davlati tarixini yoritishda "SIYOSATNOMA" asarining o‘rni

"Siyosatnoma"asarida davlat boshqaruvi haqida keng fikr yuritilgan, undagi rivoyatlar, hikoyatlar, aforizmlar Nizomulmulkning jamiyat va davlatni boshqarish, falsafa, axloq masalalariga oid javoblaridir. Asarda jamiyat va davlatni boshqarish masalalarifalsafiy-

axloqiy yondashuv orqali ochib berilgan. Nizomulmulkning siyosiy-falsafiy qarashlarida podshoh (sulton), xalq (raiyat) va shaxs (fuqaro) o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlash asosiy o'rinda turgan.Insonparvar podshoh davlatni uzoq boshqaradi, xalq farovonligini o'ylaydi, zo'rlik ishlatmaydi. «Kim insonparvarlikka chindan intilsa, u hech qachon yomonishlar qilmaydi... Kim insoniylikni sevsa, undan yuqori narsa yo'q deb hisoblaydi»degan g'oyani o'z davrida alloma Konfutsiy ilgari surgan edi. Bunday g'oyalarni Nizomulmulkda ham kuzatish mumkin. Demak, insonparvarlik shaxslararo munosabatlardangina iborat emas, u jamiyat va davlatni boshqarishga ham taalluqli voqelikdir. To'g'ri, ba'zan Nizomulmulk insoniylikni kichiklarning kattalarga hurmat ko'rsatishi, deb ham talqin qiladi. Keyin ushbu talqinni podshoh va xalq , amaldor va fuqaro , davlat va shaxs munosabatlariga ko'chiradi. Qanday bo'lmasin, jamiyat va davlatni boshqarishda insoniylik,insonparvarlik tamoyillariga tayanishga da'vat - Nizomulmulk ijodidagi olijanob jihatdir.

Xulosa

Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk. shoh vahokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi.Shunday qilib, davlatni boshqarish o'sha davrga nisbatan o'ziga xos funksiyalarni bajardi. «Siyosatnoma» muallifi jamiyat a'zolarini sadoqat, haqqoniyat, adolat yo'lida qoyim turmoqqa chorlaydi, aql va jasorat bilan ish tutmoq yo'llarini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.1. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулук). – Т.: Янги аср авлоди, 2008.
2. Хусейнов А.А. Великие этики. - М .: Республика, 1995.
3. Бутов Александр Владимирович. Концепция государственного управления Н. Макиавелли // Вестник Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова. — 2016. — Вып. 6 (90).